

JAHON TARIXI

11



Shuhrat Ergashev, To'liqinjon Bobomatov, Jamshid Abdullayev


JAHON TARIXI



Yangi nashr

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
11-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*



Toshkent – 2025

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Farmonov Rahmon — tarix fanlar doktori, professor
Karimov Farhod Erkinovich — siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

TAQRIZCHILAR:

T. Alimardanov — Rennessans ta'lim universiteti professori;
N. Sattorov — Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti;
J. Akramov — Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);
Q. Ehsanov — Yangihayot tumani 332-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi;
M. Hasanov — Yangihayot tumani 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



— atamalar izohi



— mulohaza yuriting



— ijodiy ish topshirig'i



— bu qiziq!



— o'ylab ko'ring



— yodda tuting!



— eslab ko'ring!



— tahlil qiling



— mustahkamlash uchun
savol va topshiriqlar

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.



Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas. Mazkur ibora paydo bo'lganidan buyon ming yillar o'tdi. Bu — butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o'zgarishda, yangilanishda deganidir.

Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Har qanday yangilanishning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish xususiyati shunday.

Davrlar o'taveradi, zamonlar almashaveradi. Bu yorug' olamga kelgan har bir odamzod avlodi turli o'zgarish va yangilanishlar sari boraveradi.

Butun insoniyat kabi jahondagi har bir xalq va millat ham o'zining taraqqiyot tongiga qarab intiladi. Tabiatning buyuk hodisasi bo'lgan quyoshning har erta saharda olamga yuz ko'rsatishi qanchalik go'zal va jozibali bo'lsa, dunyodagi xalqlar va davlatlar rivojida yangi tonglarning boshlanishi ham shu qadar fayzli va tarovatlidir.

Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalqlar tarixida o'ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o'z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho'qqilarga ko'tariladi. Nisbatan qisqa davrda erishilgan ulug' marralar jahon ahlini lol qoldiradi. Ayni bir xalq salohiyatining ulkan natijasi bo'lgan olamshumul yutuqlar esa insoniyat tarixining yorqin sahifalariga aylanadi, dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta kuch va shiddat beradi.

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**





“SOVUQ URUSH”NING TUGASHI

1989-YIL 3-DEKABRDA
AQSH PREZIDENTI
JORJ BUSH VA SSSR
RAHBARI MIXAIL
GORBACHOV “SOVUQ
URUSH” TUGAGANLIGINI
E’LON QILISHDI.

I BOB



XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA DUNYO MAMLUKATLARI



SSSRNING PARCHALANISHI

1991-YIL 26-DEKABRDA
SSSR OLIY SOVETI-
NING RESPUBLIKALAR
KENGASHI SSSRNING
TUGATILISHI TO’G’RISI-
DAGI DEKLARATSIYANI
QABUL QILDI.



1-MAVZU

XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA XALQARO MUNOSABATLAR

XX ASRNING 90-YILLARIDA XALQARO MUNOSABATLAR

Jahon tarixi eng yangi davrining uchinchi bosqichi 1991-yildan boshlanib, hozirgi kungacha bo'lgan voqealar tarixini o'rganadi. Bu davrda sotsialistik rejimning barbod bo'lishi, "sovuq urush"ning barham topishi va SSSRning tarqalib ketishi jahon miqyosida kuchlar nisbatiga, shakllangan geosiyosiy muvozanatga katta ta'sir ko'rsatdi. Xalqaro munosabatlarda qirq yildan ortiq hukmronlik qilgan ikki qutbli dunyo tartibi yakuniga yetdi.

Bu davrda iqtisodiy va madaniy hayotning globallashuvi, ekologiya muammolarining keskinlashuvi, dunyoning katta qismida modernizatsiya jarayonlarining tugallanmaganligi bilan bog'liq ziddiyatlar xalqaro barqarorlikka jiddiy xavf solib, ko'plab mamlakatlardagi murakkab muammolarning manbayiga aylandi.

1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlar tizimida tub burilish yuz berdi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sotsializmning qulashi, SSSRning parchalanishi natijasida **"ikki qutbli dunyo" modeli** barham topishi **ko'p qutbli dunyoning** tashkil topishiga sabab bo'ldi. Ular boshchiligida kuchayib borgan integratsiyalashuv jarayonlari XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi xalqaro munosabatlarning muhim omiliga aylandi.



ESLAB KO'RING!

Ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan keyin xalqaro munosabatlarning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ldi?



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

1. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyo mamlakatlarining chegaralarida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligini xaritadan aniqlang.
2. Dunyoning siyosiy xaritasi yordamida SSSRning parchalanishi natijasida paydo bo'lgan davlatlarni ko'rsating va ularning mustaqillikka erishish sanasini infografika ko'rinishida yozing.



O'YLAB KO'RING

Ko'p qutbli dunyoning tashkil topishi xalqaro munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatdi?

Ayni paytda, ikki qutbli dunyo tizimining o'zgarishi bir qator davlatlar siyosiy rivojlanishida keskin burilishga olib keldi. Totalitar mafkuraning barham topishi natijasida vujudga kelgan mafkuraviy bo'shliqqa progressiv g'oyalar bilan birga millatchilik, diniy mutaassiblik, tajovuzkorlik g'oyalari ham kirib keldi, lokal urushlar xavfi kuchaydi.

Dunyoning turli mintaqalaridagi siyosiy beqarorlik yangidan yangi mojarolarni keltirib chiqardi. 1990-yillar oxirida Tropik va Janubiy Afrika qonli urushlar, davlat to'ntarishlari, partizanlik harakatlari maydoniga aylandi.

XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA XALQARO MUNOSABATLAR

XXI asr boshlarida insoniyat duch kelgan eng xavfli muammolardan biri xalqaro terrorizm bo'lib qoldi. Xalqaro terrorizm insoniyatga o'tgan asrlardan buyon ma'lum bo'lsa-da, ammo aynan hozirgi davrda, global jahon sivilizatsiyasining shakllanishi yakunlovchi bosqichga kirgan paytda u jahon siyosatida yangi sifat va o'rin kasb etmoqda. 2001-yil 11-sentyabrda Nyu York va Vashington shaharlarida amalga oshirilgan terroristik aktlar jahon jamoatchiligini terrorizmga qarshi birlashishga undadi. Aytish joizki, 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida xalqaro terrorizm xavfi haqida nutq so'zlagan.



MULOHAZA YURITING

Ko'p qutbli dunyo modelining shakllanishi qanday natijaga olib kelishi mumkin?





YODDA TUTING!

Jahon tarixi eng yangi davrining uchinchi bosqichi 1991-yildan boshlanib, hozirgi kungacha bo'lgan voqealar tarixini o'rganadi.

1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlar tizimida tub burilish yuz berdi.

1990-yillar oxirida Tropik va Janubiy Afrika qonli urushlar, davlat to'ntarishlari, partizanlik harakatlari maydoniga aylandi.

Ayni paytda, XXI asr boshlariga kelib, jahonda bir qator davlatlarning kuchayishi va ularning muqobil markazlarga aylanish jarayoni ham ko'zga tashlanib qoldi. Jadal rivojlanayotgan Xitoy, Hindiston, Braziliya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Meksika, Fors ko'rfazi mintaqasidagi arab davlatlari va boshqalar xalqaro va mintaqaviy munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. 2001-yili **SHHT** (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti — mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti), 2009-yili **BRIKS** (ing. **BRICS** — Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va JAR nomlarining bosh harflari — davlatlar hamdo'stligi) xalqaro tashkilotlarining paydo bo'lishi va ularga a'zo davlatlar safining kengayib borishi jahondagi kuchlar nisbatiga ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa ko'p qutbli dunyo modelining shakllanish jarayoni boshlandi.

O'zbekiston Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** 2023-yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida: **“Jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilmoqda. Global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi muammolar va xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish kuchaymoqda va bularning barchasi keng ko'lamdagi keskinlik ortishiga sabab bo'lmoqda”**, – deya bugungi xalqaro vaziyatga ta'rif berdi.

2020-yil boshida butun dunyoga tarqalgan **“COVID-19” pandemiyasi** jahondagi mavjud muammolarni yanada keskinlashtirdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, 2025-yil boshiga kelib, dunyo bo'yicha 777 milliondan ortiq odam “COVID-19” bilan kasallanib, shundan 7,0 milliondan ortiq kishi vafot etdi. Pandemiya jahon iqtisodiyotiga ham juda katta ta'sir ko'rsatdi: fond birjalarida narxlar keskin tushib ketdi, jahon bozorida neft va oltinning narxi sezilarli pasaydi, yuk va yo'lovchi tashish sohalari katta zarar ko'rdi, ko'plab korxonalar o'z faoliyatini to'xtatdi.

XXI asrning birinchi choragida jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi jadallashdi, G'arb davlatlarining rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yaqinlashuvi yuz berdi. Ammo iqtisodiy hamkorlik va integratsiyaning kuchayishiga qaramasdan, jahon hamjamiyati oldida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar turibdi. Ularga Yaqin Sharqdagi Isroil bilan “Hammas” guruhi o'rtasidagi urushni, Suriyadagi jangovar to'qnashuvlarni, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi mojarolar, Afrika va dunyoning boshqa mintaqalarida kuchayib borayotgan xalqaro terrorizm xavfini kiritish mumkin. Zero, globallashtirish jarayoni susayib, mintaqalashuv jarayoni kuchayayotgan bugungi davrda urush va terrorizm xalqaro munosabatlarning murakkab muammosiga aylandi.



BU QIZIQ!

Pandemiya davrida masofaviy ish va onlayn ta'limning keskin oshishi raqamli texnologiyalarning ahamiyatini yanada oshirdi. Ko'plab kompaniyalar va ta'lim muassasalari ish va ta'lim jarayonlarini onlayn platformalarda amalga oshira boshladi. Bu o'zgarishlar raqamli texnologiyalarning rivojlanishiga olib keldi.



ATAMALAR IZOHI

Globalashuv — bu jahon mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy jihatdan birlashishi yoki yaqinlashishi jarayoni.

Modernizatsiya — bu ijtimoiy tizimni jadal rivojlantirish maqsadida uni to'liq yoki qisman yangilash, an'anaviy jamiyatdan yangilangan jamiyatga, agrar sivilizatsiyadan industrial sivilizatsiyaga o'tish jarayoni.

Totalitar mafkura — bu mafkuraviy tuzum shakli bo'lib, totalitar jamiyatda aholini keng miqyosda, ommaviy ravishda mafkuraviy qayta tarbiyalash vositasi.

Ko'p qutbli dunyo — jahonda bir-biridan ustun bo'lmagan bir nechta siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy markazlar (qutblar)ning mavjudlik holati.

Uchinchi dunyo — XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan siyosiy atama. U "sovuq urush"da va u bilan bog'liq qurollanish poygasida bevosita ishtirok etmayotgan davlatlarga nisbatan qo'llanilgan. Dastlab kapitalistik dunyo va sotsialistik lagerga kirmagan barcha mamlakatlar "uchinchi dunyo" deb atalgan.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragidagi xalqaro munosabatlar bilan bog'liq ijobiy hamda salbiy jihatlarni daftaringizga jadval ko'rinishida yozing. Fikringizni statistik raqamlar bilan asoslang.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikki qutbli dunyo tizimi barham topgandan keyin xalqaro munosabatlarning dolzarb muam-molari nimalardan iborat bo'lib qoldi?
2. 1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlarda yuz bergan tub burilish nimalarda namoyon bo'ldi?
3. "Globalashuv" va "Mafkuraviy bo'shliq" tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlik va farqlarni tushuntiring.
4. SHHT va BRIKS xalqaro tashkilotlari o'rtasidagi farqlarni muhokama qiling.
5. Darslik va internet materiallaridan foydalanib XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatayotgan muhim omillarning ro'yxatini tuzing.



2-MAVZU

SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARIDA DE- MOKRATIK INQILOBLAR VA SOTSIALISTIK LAGERNING PARCHALANISHI

SOTSIALISTIK REJIMNING PARCHALANISHI

XX asr so'nggi choragida barcha sotsialistik mamlakatlarni qamrab olgan inqiroz islohotlar zarurligini yana bir bor isbotladi. SSSRda boshlangan **“qayta qurish” siyosati** Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini chuqur isloh qilish uchun imkoniyat yaratdi.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida faol islohotlar olib borgan, mafkuraviy xilma-xillik va siyosiy plyuralizm (ko'pfikrlilik) uchun imkoniyat yaratgan mamlakatlarda demokratik jamiyatga o'tish tinch yo'l bilan amalga oshdi.

Sharqiy Yevropada demokratik o'zgarishlarni boshlab bergan mamlakat Polsha bo'ldi. 1989-yili bo'lib o'tgan saylovlar **Polsha birlashgan ishchi partiyasi (PBIP)ning** obro'si tushib ketganligi, ayni paytda muxolifatdagi **“Birdamlik” kasaba uyushmasining** ommalashib borayotganini ko'rsatdi. Natijada 1990-yili navbatdan tashqari o'tkazilgan prezidentlik saylovida **“Birdamlik” kasaba uyushmasi** yetakchisi **Lex Valensa** g'alaba qozondi.

Agar Polshada **“Birdamlik”** harakatining faoliyati SSSRdagi **“qayta qurish”**dan oldin boshlangan bo'lsa, boshqa mamlakatlardagi inqilobiy jarayonlarga **“qayta qurish”,** yangicha siyosiy tafakkur natijasida jahonda vujudga kelgan siyosiy holat bevosita ta'sir ko'rsatdi.



Sharqiy Yevropa mamlakatlari



TAHLIL QILING

Sharqiy Yevropa tarkibiga qaysi mamlakatlar kiradi? Ularni xaritada toping va poytaxtlarini yodda tuting.



MULOHAZA YURITING

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar va sotsialistik lagerning parchalanishi sabablari nimada deb o'ylaysiz? Fikringizni faktlar asosida tushuntiring.

Ruminiyada kommunistik rejimning qulashi jiddiy harbiy to'qnashuv oqibatida yuz berdi. **1989-yil dekabrda** Timishoara shahrida aholining tinch namoyishi Ruminiya maxfiy xizmati xodimlari tomonidan o'qqa tutilishi mamlakat bo'ylab qo'zg'olonning boshlanishiga olib keldi. Qo'zg'olon jayronida mingdan ortiq kishi halok bo'ldi. Hokimiyat yangi tashkil qilingan **Milliy qutqarish qo'mitasi** qo'liga o'tdi. Qo'mita raisi bo'lgan **Ion Iliesku 1990-yilgi** saylovlarda mamlakat prezidenti etib saylandi.



1989-yil 9-noyabrda Berlin devorining vayron bo'lishi

Germaniya Demokratik Respublikasida ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz avj olib, **1989-yil noyabrda** ikki nemis davlatini ajratib turgan Berlin devorining qulashiga olib keldi.

1990-yili Moskvada "Germaniya bilan munosabatlarni uzil-kesil tartibga solish to'g'risida"gi shartnoma imzolandi. Shartnomaga binoan, ikki nemis davlati (GDR va GFR) bitta — **Germaniya Federativ Respublikasiga** birlashdi.

1990–1992-yillari Sharqiy Yevropaning Chexoslovakiya, Bolgariya, Vengriya va Yugoslaviya kabi mamlakatlarida ham sotsialistik rejimlar barham topdi.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Rasmiy internet saytlari orqali Sharqiy Yevropa mamlakatlari va O'zbekiston o'rtasida qanday savdo aloqalari borligi haqida ma'lumot to'plang va dars mashg'ulotlarida muhokama qiling.

SHARQIY YEVROPA MAMLAKATLARI XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA

Asosan, tinch yo'l bilan amalga oshirilgan demokratik inqiloblar natijasida Sharqiy Yevropa davlatlari rivojlanishning iqtisodiy va siyosiy yo'nalishi etib Yevropa Ittifoqi (YI)ni tanladi.

Bozor iqtisodiga jadal o'tish oqibatida inflyatsiya darajasi va ishsizlikning o'sishi, aholi turmush darajasining pasayishi kabi jarayonlar kuzatilib, ular vaqtincha bo'lsa-da, aholining noroziligiga olib keldi.

O'zgarishlar boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan **Yugoslaviyada** murakkab kechdi. Oltita respublikadan tashkil topgan Yugoslaviya Federativ Respublikasida sotsialistik tuzumning qulashi millatchi va ayirmachi kuchlarning faollashuvi uchun imkoniyat yaratdi. Oqibatda 1991–1992-yillari Yugoslaviyadan **Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Makedoniya** Respublikalari ajralib chiqdi. Bu jarayon etnik ziddiyatlarning keskinlashuviga olib keldi.

1990-yildan keyin **Serbiyada Kosovo avtonom o'lkasi** bilan bog'liq inqiroz vujudga keldi.

Ushbu o'lkaning asosiy aholisi bo'lgan musulmon albanlar o'zlarining "Kosovo Respublikasi"ni e'lon qildi. Bu Serbiya bilan qurolli to'qnashuvga olib keldi va unga NATO aralashdi. **1999-yili** NATO qo'shinlari Yugoslaviyani bombardimon qildi. Mojaro Yevropa miqyosidagi inqirozga aylandi.

Bosniyadagi etnik nizolarni bartaraf qilish uchun bu yerga BMT tinchliksevar kuchlari kiritildi va urush harakatlari to'xtatildi. **2006-yili** o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra, Chernogoriya Serbiyadan ajralib chiqdi. Yugoslaviya Respublikasi barham topdi.

Chexoslovakiya milliy muammolarini hal qilishning tinch yo'lini tanladi. **1992-yili** o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra, mamlakat bo'linishga qaror qildi. Bo'linish jarayonini jiddiy muhokama qilib,



Yugoslaviyaning parchalanishi



TAHLIL QILING

1. Sharqiy Yevropa davlatlarining rivojlanishi uchun O'rtayer dengizi qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Sharqiy Yevropa davlatlarining rivojlanishi uchun hududiy bo'linishlar qanday ijobiy va salbiy xususiyatlar bilan yakunlandi?



O'YLAB KO'RING

Bosniyaga BMT tinchliksevar kuchlarining kiritilishi qanday natijalar bilan yakunlandi?

puxta tayyorlashdi. **1993-yili 1-yanvardan** jahon xaritasida ikkita mustaqil davlat — **Chexiya Respublikasi** va **Slovaqiya Respublikasi** paydo bo'ldi.

2014-yili Rossiya va Ukraina o'rtasida boshlangan ziddiyatlar va ularning 2022-yili keng miqyosli urushga aylanishi oqibatida Sharqiy Yevropa davlatlari YI tarkibida Ukrainaga yordam ko'rsatib keldi. Shunga qaramasdan, Vengriya va Slo-

vakiya kabi davlatlar rahbarlari Rossiya bilan ham iqtisodiy munosabatlarni tiklash tarafdori bo'lib qoldi.

2025-yilga kelib ham Kosovo va Serbiya o'rtasidagi munosabat keskinligicha qolmoqda. 2022–2024-yillarda ular o'rtasidagi kichik mojaralarda bir qancha tinch aholi vakillari halok bo'ldi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yuz bergan o'zgarishlar ularga rivojlanishning **G'arb modelini** tanlash imkonini berdi. XXI asr boshlariga kelib, ularning asosiy qismi G'arb davlatlarining iqtisodiy va harbiy-siyosiy tashkilotlari — avvalo, YI va NATOga a'zo bo'ldilar.

Dastlabki davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga qaramasdan, bugunga kelib, bu mamlakatlarning ko'pchiligida ishlab chiqarish va yashashning yuqori darajasiga erishildi. Ular G'arbiy Yevropa bilan iqtisodiy va madaniy tenglik sari dadil qadam tashlamoqda.



YODDA TUTING!

1989-yili bo'lib o'tgan saylovlar Polsha birlashgan ishchi partiyasi (PBIP)ning obro'si tushib ketganligini ko'rsatdi.

1989-yili dekabrda Ruminiyaning Timishoara shahrida aholining tinch namoyishi bo'lib o'tdi.

1990–1992-yillari Sharqiy Yevropaning Polsha, Ruminiya, GDR, Chexoslovakiya, Bolgariya, Vengriya davlatlari va Yugoslaviyada sotsialistik rejimlar barham topdi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sotsialistik tuzumning parchalanishi qanday ko'rinishlarda amalga oshirildi?
2. Sharqiy Yevropa mamlakatlari NATO va YIga a'zo bo'lishda o'z xavfsizligining kafolatidan tashqari yana qanday afzalliklarni ko'rdilar?
3. "Sharqiy Yevropa" va "G'arbiy Yevropa" tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlik va farqlarni tushuntiring.
4. MDH va Yevropa Ittifoqi tashkilotlari o'rtasidagi farqlarni muhokama qiling.
5. Rasmiy internet manbalari asosida Sharqiy Yevropa mamlakatlarining dunyo hamjamiyatiga qaysi mahsulot(lar)ni eksport qilishi to'g'risida jadval tuzing. Fikringizni sinfda kichik guruhlarda taqdimot ko'rinishida asoslang.



3-MAVZU

SOVET RESPUBLIKALARIDA MUSTAQILLIKNING E'OLON QILINISHI VA SSSRNING PARCHALANISHI



ESLAB KO'RING!

XX asrning 80–90-yillaridagi “qayta qurish” siyosati nega o'zini oqlamadi? “Qayta qurish” siyosatidan qanday maqsadlar ko'zlangan edi?



MULOHAZA YURITING

Sobiq sovet respublikalarida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi xalqaro munosabatlarda qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi deb o'ylaysiz?

SSSRda qayta qurish siyosatining boshlanishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy sohanigina emas, balki siyosiy sohani ham chuqur isloh qilishga olib keldi. Sovet respublikalarining notekis iqtisodiy rivojlanishi, tarixan bir-biriga hududiy da'volarning mavjudligi, bu kabi muammolarning sovet rahbariyati tomonidan e'tiborga olinmagani ko'plab millatlararo mojarolarni keltirib chiqardi.

Qozog'iston rahbari etib G. V. Kolbin tayinlanishiga qarshi Olmaota shahrida bo'lgan 1986-yilgi talabalar namoyishi, 1987-yilgi Qrim avtonomiyasini tiklash uchun qrim tatarlarining milliy harakati tuzilishi va dastlabki namoyishlari, 1988-yili Sumgait shahrida bo'lgan ozarbayjon-arman mojarosi, 1989-yilgi Farg'ona voqealari, 1990-yilgi O'sh shahrida yuz bergan o'zbek-qirg'iz mojarosi shular jumlasidan edi.

Bolتيqbo'yi respublikalarida boshlangan ommaviy namoyishlar Latviya, Litva va Estoniyada xalq frontlarining tashkil qilinishiga va 1990-yili amalda bu respublikalarning SSSR tarkibidan chiqishiga olib keldi. Ular XXI asr boshiga kelib, YI va NATOga a'zo bo'ldi.

1990-yili ko'plab respublikalarda mustaqillik deklaratsiyalari qabul qilindi. Respublikalar konstitutsiyalariga o'zgartirishlar kiritilib, respublika qonunlarining ittifoq qonunlariga nisbatan ustunligi ta'minlandi.

1991-yil avgustda bir guruh sovet rahbarlari tomonidan GKCHP (Favqulodda holat bo'yicha davlat qo'mitasi)ning tuzilishi SSSRning parchalanish jarayonini yanada tezlashtirdi. 1991-yilning oxiriga kelib, barcha sovet respublikalari mustaqil bo'ldi. **1991-yil 8-dekabrda** Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari yig'ilib, SSSR siyosiy birlik sifatida tugatilganligini e'lon qildi.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

O'zbekiston mustaqillikka erishgan sobiq sovet respublikalaridan qaysilari bilan faol tashqi siyosat olib bormoqda? Rasmiy internet manbalari orqali ma'lumotlar toping va ularni tahlil qiling.

larini rivojlantirish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Mintaqa mamlakatlarining tinchligi va farovonligi ko'p jihatdan umumiy sa'y-harakatlarga, yaqindan hamkorlik qilish va mintaqa manfaatlarini birgalikda himoya qilishga bog'liq bo'lib qolayotgan hozirgi sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek, birinchi sammiti 1992-yil oktyabrda Turkiyaning tashabbusi bilan Anqara shahrida o'tkazilgan hozirgi **Turkiy Davlatlar Tashkiloti** murakkab yo'lni bosib o'tdi. **Turkiy Kengashning** 2019-yil 15-oktyabrda Boku shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston tashkilotga yangi a'zo sifatida ishtirok etdi. Turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim jihatiga aylanadi. Turkiy Kengash bilan hamkorlikning faollashuvi yurtimiz uchun qo'shni davlatlar bilan ham, mintaqadan tashqaridagi yangi hamkorlar bilan ham ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi MDHdan tashqari, xalqaro maydonda nufuzli bo'lgan yana ko'plab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT), Islom Hamkorlik Tashkiloti, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT) kabilar faoliyatida o'zaro manfaatdorlik va tenglik asosida qatnashib kelmoqda.

O'zbekistonda kuzatilayotgan jiddiy modernizatsiya va islohotlar jarayoni mamlakat tashqi siyosatida, shu jumladan, uning SHHT doirasidagi faoliyatida ham yangi davrni boshlab berdi. Mamlakatimizning MDH va unga a'zo davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlari jadallashib, O'zbekiston tashabbusi bilan SHHT Xalq diplomatiyasi forumi, Sayyohlik forumi, An'anaviy tabobat, yoshlar o'rtasida startap loyihalari tanlovi, SHHT ayollar forumi kabi yirik xalqaro tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.



ATAMALAR IZOHI

Ko'ppartiyaviylik prinsipi — bu zamonaviy demokratik mamlakatlarda siyosiy hayotni tashkil qilishning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri bo'lib, mafkuraviy plyuralizm (ko'pfikrlilik)ning yorqin ifodalangan ko'rinishidir.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sobiq sovet respublikalaridagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishda MDH qanday rol o'ynadi?
2. Mustaqillikka erishgan respublikalar tanlagan taraqqiyot yo'li o'rtasidagi aloqadorlik va farqlarni tushuntiring.
3. XXI asr boshlarida Rossiya va MDH davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda qanday o'zgarishlar yuz berdi?



MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BAYROG'I

1996-YIL 19-YANVARDA QABUL
QILINGAN. RANGI KO'K,
MARKAZIDA TILLARANG
DOIRA TASVIRLANGAN. UNI
TENGLIK, BIRLIK, TINCHLIK VA
BARQARORLIKNI ANGLATADIGAN
O'ZIGA XOS SHAKLLI OQ RANGLI
CHIZIQLAR O'RAB TURADI.

II BOB



XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI MAMLAKATLARI



MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI

1991-YIL 8-DEKABRDA MINSK
SHAHRIDA TUZILGAN. SSSR
TARKIBIGA KIRGAN KO'PLAB
DAVLATLAR O'RTASIDAGI
HAMKORLIK MUNOSABATLARINI
TARTIBGA SOLISH UCHUN
MO'LJALLANGAN MINTAQAVIY
XALQARO TASHKILOT.



4-MAVZU

ROSSIYA FEDERATSIYASI

IQTISODIY ISLOHOTLAR



O'YLAB KO'RING

Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim tamoyillari nimalarda namoyon bo'ladi?

1991-yilda SSSR parchalanishi Rossiya hayotining barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Iqtisodiy islohotlar o'g'ir kechdi. Milliy daromad va sanoat ishlab chiqarishi pasayib ketdi. **1992-yil 1-yanvardan** erkin qo'yib yuborilgan narxlar keskin ko'tarildi. Ko'pchilik oilalarda oziq-ovqat xarajatlari oila daromadining asosiy qismini tashkil qildi. Oqibatda Rossiya aholisi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda birinchi marta kamaya boshladi.

Bu davrda inflyatsiyani to'xtatishning iloji bo'lmadi. Keng miqyosli xususiylashtirishga qaramasdan, haqiqiy bozor iqtisodiga o'tilmadi. Inflyatsiya va siyosiy beqarorlik investitsiyalarning kirib kelishiga to'sqinlik qildi. 1999-yilga kelib, Rossiyaning tashqi qarzi **130 milliard dollardan** oshib ketdi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli ijtimoiy holatga ham ta'sir ko'rsatdi. Ishsizlar, qochoqlar, qashshoqlar va boshpanasizlar soni keskin ko'paydi.

ICHKI SIYOSIY HAYOT

Siyosiy jabhada ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. 1991-yilgi avgust voqealari, SSSRning parchalanishi va "**shok terapiyasi**" jamiyatda ijtimoiy tanglikni oshirdi. Ish tashlashlar va siyosiy namoyishlar keng quloq yoydi.

1993-yili prezident **Boris Yelsin** Xalq deputatlari syezdini va Oliy Sovetni tarqatib yubordi, davlat hokimiyatining yangi organlari — Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasiga saylovlar hamda mamlakatning yangi konstitutsiyasi haqida referendum o'tkazish to'g'risida farmon imzoladi. Oliy Sovet rahbariyati va Konstitutsion sudning ko'pchilik a'zolari prezident farmonini konstitutsiyaga xilof deb hisoblab, unga qarshi chiqdi. Bunga javoban, Oliy Sovet binosi qo'shinlar tomonidan o'rab olindi va tankdan o'qqa tutildi.

1993-yil dekabrda Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasiga saylovlar bo'lib o'tdi.

Ovoz berishda qatnashganlarning ko'pchiligi prezident tomonidan taklif qilingan Rossiya Konstitutsiyasining loyihasini ma'qulladi. Yangi asosiy qonun qabul qilinishi bilan hokimiyatning sovet tizimi barham topdi.



MULOHAZA YURITING

Rossiya Federatsiyasi bugun dunyo siyosatida nega muhim o'rin egallaydi? Fikringizni raqamlarda izohlang.



XARITADA QUYIDAGILAR TASVIRLANGAN:

- | | |
|-----------------------------|-------------------------------------|
| 1. KALININGRAD VILOYATI | 28. TAMBOV VILOYATI |
| 2. MURMANSK VILOYATI | 29. PENZA VILOYATI |
| 3. LENINGRAD VILOYATI | 30. ULLYANOVSK VILOYATI |
| 4. PSKOV VILOYATI | 31. KURSK VILOYATI |
| 5. NOVGOROD VILOYATI | 32. BELGOROD VILOYATI |
| 6. TYER VILOYATI | 33. VORONEJ VILOYATI |
| 7. YARASLAVI VILOYATI | 34. SARATOV VILOYATI |
| 8. KOSTROMA VILOYATI | 35. SAMARA VILOYATI |
| 9. SMOLENSK VILOYATI | 36. ORENBURG VILOYATI |
| 10. MOSKVA VILOYATI | 37. ROSTOV VILOYATI |
| 11. IVONOVSK VILOYATI | 38. VOLGOGRAD VILOYATI |
| 12. VLADIMIR VILOYATI | 39. KRASNODAR O'LKASI |
| 13. NIJEGOROD VILOYATI | 40. ADIGEYA RESPUBLIKASI |
| 14. MARIY EL RESPUBLIKASI | 41. STAVROPOL O'LKASI |
| 15. KIROV VILOYATI | 42. QALMIQ RESPUBLIKASI |
| 16. UDMURTIYA RESPUBLIKASI | 43. ASTRAXON VILOYATI |
| 17. KALUGA VILOYATI | 44. QORACHOY-CHEKASIYA RESPUBLIKASI |
| 18. TULA VILOYATI | 45. KABARDIN-BOLQOR RESPUBLIKASI |
| 19. RYZAN VILOYATI | 46. SHIMOLIY OSETIYA RESPUBLIKASI |
| 20. MORDOVIYA RESPUBLIKASI | 47. INGUSHIYA RESPUBLIKASI |
| 21. CHUVASH RESPUBLIKASI | |
| 22. TATARISTON RESPUBLIKASI | |
| 23. BRYANSK VILOYATI | |
| 24. ORLOV VILOYATI | |
| 25. LIPETSK VILOYATI | |

Rossiya Federatsiyasi XXI asr

Shunday qilib, Rossiyada 1990-yillari amalga oshirilgan eng muhim siyosiy islohotlar sovetlardan qolgan hokimiyat tizimini buzish va uning o'rnida zamonaviy va demokratik hokimiyat tizimini yaratish uchun harakatning boshlanishi bo'ldi.

MILLATLARARO MUNOSABATLAR

Rossiya ko'p millatli mamlakat. Shu sababli millatlararo munosabatlar Rossiya uchun doimo dolzarb bo'lib kelgan. SSSR tarqalganidan so'ng og'ir holat vujudga keldi. 1991-yil oxiri – 1992-yil boshlarida Tatariston, Boshqirdiston va Yoqutistondagi milliy harakatlar o'zlarining syezdlarini o'tkazib, ularda RSFSR tarkibidan chiqish masalasi qo'yildi. Chechen-Ingush Avtonom Respublikasida chechen xalqining umummilliy kongressi avtonomiyani Checheniston va Ingushiyaga bo'lishni, Chechenistonning RSFSR tarkibidan chiqishini bildirdi. 1992-yili Tatariston ham o'z davlat mustaqilligini e'lon qildi.

Bularning barchasi markaziy hokimiyatni Federativ Shartnoma imzolanishini tezlashtirishga majbur qildi. Federativ Shartnoma 1992-yil martda Tatariston va Che-



TAHLIL QILING

1. Bugun Rossiya Federatsiyasi MDH davlatlarining nechtasi bilan umumiy chegaraga ega?
2. XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida Rossiya Federatsiyasining quruqlikdagi va dengiz chegaralarini xaritadan o'rganib chiqing.
3. Rossiya Federatsiyasi dunyoning qaysi davlatlari bilan eksport va import hajmini oshirmoqda?

chenistondan tashqari barcha subyektlar tomonidan imzolandi. Markaz va mintaqalarning vakolatlari Rossiya Konstitutsiyasida ham o'z aksini topdi.

Tatariston prezidenti etib saylangan **M. Shaymiyev** voqealar rivojini o'z qo'liga olishga erishdi. Tatariston 1994-yilda federal hokimiyat bilan vakolatlarni taqsimlash to'g'risidagi shartnomani imzoladi.

Checheniston markaz bilan har qanday shartnoma tuzishni rad etish yo'lidan bordi. U bilan munosabatlar fojiali xarakter kasb etdi. 1996-yili Checheniston bilan federal markaz o'rtasida boshlangan urush 2000-yilgacha davom etdi. Bu urush Rossiyaga bir necha milliard dollar zarar yetkazdi, har ikki tomondan 120 mingdan ortiq kishi qurbon bo'ldi.

1990-YILLARDAGI TASHQI SIYOSAT

1991-yili SSSR tarqalib ketgandan so'ng Rossiya oldida G'arb davlatlari va sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan munosabatlarni yangidan shakllantirish muammosi paydo bo'ldi. Rossiya prezidenti B. N. Yelsin bir necha bor AQSH prezidenti Jorj Bush bilan uchrashib, Rossiya — AQSH hamkorligi va do'stligi to'g'risida xartiya (1992), Hujum qurollarini qisqartirish to'g'risida shartnoma (1993) kabi bir qator hujjatlarni imzoladi. 1994-yili AQSH prezidenti etib saylangan Bill Klinton Rossiyani jahonning yetakchi liderlari norasmiy klubi — **G7 ga (katta yettilikka)** taklif qildi. Ammo ikki o'rtada tenglikka asoslangan munosabatlar shakllanmadi, NATOning Sharqqa qarab kengayishi davom etdi. 1994-yili Yugoslaviyada boshlangan ichki mojaroga NATOning aralashuvi, 1999-yillari Yugoslaviya hududining bombardimon qilinishi Rossiya va AQSH o'rtasidagi munosabatlarning sovuqlashuviga olib keldi.

Yevropaning yetakchi davlatlari — Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya bilan iqtisodiy aloqalar keng rivojlangan bo'lsa-da, o'zaro munosabatlar Rossiya kutgan natijalarga olib kelmadi. NATOning Sharqqa, Rossiya chegaralariga qarab kengayishi davom etdi.

Osiyoda asosiy e'tibor Yaponiya bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin davom etib kelayotgan Janubiy Kuril orollari muammosi tufayli ikki o'rtada tinchlik shartnomasi imzolanmadi, ammo iqtisodiy aloqalar rivojlandi, Yaponiya Rossiya iqtisodiyotiga katta investitsiya kiritdi.

Janubiy Koreya bilan aloqalarning yo'lga qo'yilishi Shimoliy Koreya bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning sovuqlashuviga olib keldi. Xitoy bilan esa munosabatlar rivojlanishda davom etdi.

ROSSIYA XXI ASRDA

Boris Yelsin 1999-yil dekabrda iste'foga chiqdi. Vaqtincha prezident lavozimini egallagan **Vladimir Putin** 2000-yil martda bo'lib o'tgan saylovda rasman Rossiya prezidenti etib saylandi.

V. Putin o'zining kuchli davlat hokimiyati tarafdori ekanligini ko'rsatdi. Yangi prezidentning dastlabki harakatlari jamiyat hayotida davlat hokimiyatining roli va obro'sini mustahkamlashga qaratildi. Xalqaro maydonda ham Rossiyaning roli tiklanib bordi.

2008-yil avgustda Gruziya o'zining tarkibiy qismi hisoblangan Janubiy Osetiya va Abxaziyada konstitutsion tartibni tiklashni boshladi. Shundan so'ng mojaroga Rossiya qo'shinlari aralashib, Gruziya hududigacha bostirib kirdi. "**Besh kunlik urush**" nomini olgan harbiy mojarolar tezda yakunlandi. Ammo Rossiya — Gruziya munosabatlari keskin yomonlashdi.

2014-yil fevralda Ukrainada hokimiyat almasildi. Qrimda hokimiyatni egallagan rossiyaparastlar Kiyevdagi yangi hukumatni tan olmadi. 2014-yil 16-martda ular referendum o'tkazib, uning natijasiga

binoan, Qrimning mustaqilligini e'lon qildi va Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirish to'g'risida shartnomani imzoladi. Rossiya tarkibiga ikkita yangi subyekt — **Qrim Respublikasi** va federal ahamiyatdagi **Sevastopol shahri** kirdi. Ammo bu akt jahonning ko'pchilik davlatlari tomonidan tan olinmadi.

Rossiyaning Ukrainaga nisbatan siyosatidagi yana bir muammoli jihat Ukrainaning sharqida, xususan, **Donetsk** va **Lugansk** viloyatlarida bo'layotgan voqealar bilan bog'liq. Bu yerda ham Ukrainadagi hokimiyat almashinuvini tan olmagan va Rossiya tomonidan qo'llab-quvvatlangan bir guruh rusiyzabon yetakchilar tomonidan Donetsk va Lugansk Xalq Respublikalari e'lon qilinib, harbiy harakatlar boshlab yuborildi. Ukraina hukumati Rossiyani Donetsk va Luganskdagi ayirmachilarni qo'llashda aybladi, Moskva esa buni rad etdi. 2022-yil 21-fevralda Rossiya Donetsk va Lugansk Xalq Respublikalarining mustaqilligini tan oldi. 24-fevral kuni V. Putin Donbasga yordam berish uchun keng miqyosli maxsus harbiy operatsiya boshlanganligini e'lon qildi. Sentyabr oyida referendum o'tkazilib, uning natijalari-ga ko'ra, Ukrainaning **Donetsk, Lugansk, Zaporojye va Xerson** viloyatlari Rossiya tarkibiga qo'shib olindi. Ammo BMTga a'zo bo'lgan ko'pchilik davlatlar Ukrainaning hududiy yaxlitligini qo'llab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida 1992-yilning 20-martida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Shundan keyin ikki tomonlama bir qator strategik bitimlar va kelishuvlar imzolandi.

2017-yildan ikki tomonlama munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. 2022-yil sentyabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiyani imzoladi. Mazkur deklaratsiya O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik rivojida yangi davrni boshlab berdi.



ATAMALAR IZOHI

Shok terapiyasi — bu iqtisodiy nazariya, shuningdek, ushbu nazariyaga asoslangan keskin iqtisodiy islohotlar.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rossiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
2. 1990-yillari Rossiyada amalga oshirilgan eng muhim siyosiy islohotning mohiyati nimadan iborat edi?
3. "Shok terapiyasi" Rossiya Federatsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. XXI asrda Rossiya tashqi siyosatdagi qanday muammolarni hal qilishga urinmoqda?



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Rossiya Federatsiyasi yerosti boyliklarini internet ma'lumotlari asosida jadval ko'rinishida, ustun holatida yozing. Fikringizni sinfda kichik guruhlarda taqdimot ko'rinishida asoslang.



5-MAVZU

UKRAINA, BELARUS VA MOLDOVA RESPUBLIKALARI

UKRAINA



ESLAB KO'RINGI

1922-yil 30-dekabrda Ukraina, Belarus, Kavkazorti va Rossiya davlatlari nima maqsadda ittifoq tuzishgan edi?

Inqiroz sanoat va qishloq xo'jaligini qamrab oldi. Inqirozdan chiqishning ko'plab dasturlari tatbiq etildi, ammo ulardan birortasi ham oxirigacha amalga oshirilmadi.

XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmidan ish haqidano qarzdorlikni bartaraf qilish, chet el kreditlari va valyuta bozorini tartibga solish hisobiga iqtisodiy holat o'zgardi, 1996-yili milliy valyuta — **grivna** muomalaga kiritildi. Ammo kutilganidek, chet el investitsiyasi mamlakatga oqib kelmadi, grivna tez qadrsizlanib bordi.

XX asr oxiriga kelib, ko'plab korxonalarda mulkdorlar almashdi, yangi rahbarlar ishlab chiqarishni tiklashga kirishdi. Yuqori malakali va juda arzon ishchi kuchi hamda qudratli sanoat bazasi Ukraina iqtisodiga mablag' kiritishni foydali qilib qo'ydi. Bu o'zgarishlar iqtisodning barqarorlashuviga, keyin esa iqtisodiy o'sishga olib keldi. XXI asr boshlariga kelib, Ukrainada kapitalistik iqtisodiyot yaratildi. Ammo bu ko'pchilik MDH mamlakatlarida bo'lgani singari Ukrainada ham siyosiy elitaning korrupsiyalashuviga, aholi katta qismining esa qashshoqlashuviga olib keldi.

Ukrainada 1991-yil martda referendum bilan birga prezidentlik saylovi ham o'tkazilib, **Leonid Kravchuk** Ukrainaning birinchi prezidenti etib saylandi.

Mustaqillik e'lon qilindi. Ammo yuqori samarali, barqaror milliy iqtisodni tashkil qilmasdan real siyosiy mustaqillikni qaror toptirish mumkin emasdi. SSSRni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz, umumittifoq iqtisodiy kompleksining barbod bo'lishi boshqalar qatori Ukrainaga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.



YODDA TUTINGI

1991-yil 24-avgustda Ukraina o'z mustaqilligini e'lon qildi.

*1996-yilda Ukraina milliy valyutasi — **grivna** muomalaga kiritildi.*

1996-yilda Ukraina Konstitutsiyasi qabul qilingan.

UKRAINADA DAVLAT QURILISHI VA SIYOSIY JARAYONLAR

Mustaqillikning ilk davrida Ukraina oldida turgan eng muhim vazifalardan biri davlat qurilishi muammosi edi. **1996-yili** qabul qilingan Ukraina Konstitutsiyasi bu jarayonning huquqiy asosi bo'ldi.

Ammo siyosiy beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklar uzoq yillardan beri hal qilinmay kelayotgan ijtimoiy muammolar bilan qo'shilib, bir qator siyosiy inqirozlarga olib keldi. 2004-yilgi saylovda **Viktor Yanukovichning** g'olib deb e'lon qilinishi ommaviy norozilik namoyishiga sabab bo'ldi. Natijada o'tkazilgan uchinchi tur saylovda "Bizning Ukraina" bloki yetakchisi **Viktor Yushchenko** Ukraina prezidenti etib saylandi. Ammo V. Yushchenko mamlakatda katta ijobiy o'zgarishlar qilishga erisha olmadi. Shu sababli 2010-yilgi saylovda V. Yanukovich g'olib chiqdi. U mamlakatdagi ijtimoiy tizimni to'liq isloh qilishga kirishdi. Ammo uning 2013-yili Yevroittifoq bilan hamkorlik to'g'risida kelishuvni imzolashdan bosh tortishi siyosiy inqirozga sabab bo'ldi. Kiyevda va boshqa shaharlarda ommaviy norozilik chiqishlari bo'lib, ular ijtimoiy tarmoqlarda "**Yevromaydon**" nomini oldi. V. Yanukovich Ukrainani tark etdi. 2014-yil bo'lib o'tgan saylovda **Pyotr Poroshenko** Ukraina prezidenti etib saylandi.




Qrim Avtonom Respublikasi va Sevastopol shahri Rossiyaga qo'shib olingandan so'ng Ukraina bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar o'ta keskinlashdi.

Ukrainadagi yangi hokimiyatni jahon jamoatchiligi tan oldi. Agar poytaxtda, shimoliy, markaziy va g'arbiy mintaqalarda Yevrointegratsiyaga intilayotgan yangi hukumat tezda tan olinib, aholining xayrixohligiga erishgan bo'lsa, janubi-sharqiy hududlarda rusiyabon aholining norozilik chiqishlari kuchayib bordi. Bu hudud aholisi tarixan Rossiya bilan bog'liq bo'lgani uchun ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni saqlab qolishni talab qildi va ultrao'ng, ekstremistik, millatchi guruhlarining o'z mintaqasida tarqalishiga qarshi chiqdi. Yangi paydo bo'lgan rossiyaparast yetakchilar boshchiligidagi bu harakatlar Donetsk va Lugansk viloyatlarida qurolli qarama-qarshilikka aylanib ketdi. Ukraina rahbarlari bu hududlarda anti-terror operatsiya boshlanishini e'lon qildi, bu esa ikki tomon o'rtasida keng miqyosdagi urush harakatlariga olib keldi.

2014-yil sentyabrda Belarus Respublikasi poytaxti Minsk shahrida Rossiya, Ukraina hamda Donetsk va Lugansk viloyatlari vakillari o'rtasida harbiy harakatlarni to'xtatish to'g'risida kelishuv imzolandi. Ammo 2015-yil yanvarda janglar yana boshlanib ketdi. Shu yil fevralda Germaniya, Fransiya, Rossiya va Ukraina davlat rahbarlari Minsk shahriga yig'ilib, Ukraina sharqidagi harbiy mojaroni hal etish to'g'risida yangi kelishuv imzoladi (Minsk-2). Ammo urush to'xtamadi. 2017-yil noyabrda artille-riyadan o'zaro otishmalar yana boshlanib ketdi. G'arb davlatlari va Ukraina bu mojaroda Rossiyani isyonchilarni qo'llab-quvvatlashda aybladi. Rossiya esa buni rad etib, mojaro Ukrainaning ichki ishi ekanligini ta'kidlab keldi.

2019-yil aprelda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida g'olib chiqqan **Vladimir Zelenskiy** dastlab o't ochishni to'xtatish bo'yicha Minsk muzokaralarini jadallashtirishini, Donetsk va Lugansk viloyatlarida 2014-yildan beri davom etayotgan urushga barham berishini e'lon qildi. Ammo voqealar rivoji shunga olib keldiki, 2022-yil fevraldan Rossiya va Ukraina o'rtasida keng miqyosli urush harakatlari boshlanib ketdi. 2025-yil boshiga kelib, har ikki tomondan halok bo'lganlar va yaradorlar soni 1 million kishidan ortdi, Ukrainaning 5 milliondan ortiq aholisi o'z yashash joyini tark etishga majbur bo'ldi.

BELARUS RESPUBLIKASI



Belorussiya 1991-yil 25-avgustda respublika suvereniteti haqida deklaratsiya qabul qildi. Ammo parlament qaroriga ko'ra, poytaxti Minsk shahrining 1944-yili fashistlardan ozod qilingan sanasi — 3-iyul Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi.

1994-yil qabul qilingan konstitutsiyaga binoan, Belarus Respublikasi unitar, demokratik, ijtimoiy-huquqiy davlat deb e'lon qilindi. 1994-yil bo'lib o'tgan saylovda **Aleksandr Lukashenko** mamlakat prezidenti etib saylandi. Uning tashabbusi bilan referendum o'tkazilib, belarus tili bilan bir qatorda, rus tiliga ham davlat tili maqomi berildi, davlat bayrog'i o'zgartirildi, prezidentning vakolatlari kengaytirildi.

Belarus va Rossiya o'rtasida “**Do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik**

to'g'risida”, keyin esa “**Rossiya va Belarus o'rtasida Ittifoq davlatni tuzish to'g'risida**” shartnomalar imzolandi. Shartnoma Rossiya va Belarus o'rtasida yaqinlashuv va huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, bojxona va boshqa tizimlarni birlashtirishni, davlatlararo hokimiyat tizimlarini shakllantirishni, ayni paytda davlatlar mustaqilligi va suvereniteti saqlanib qolishini ko'zda tutadi.

1996-yili birinchi Umumbelarus xalq yig'ini mamlakatning 1996–2000-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosiy yo'nalishlarini tasdiqlagandan so'ng asta-sekin iqtisodiy yuksalish kuza-tildi. 2000-yilga kelib, sanoat mahsulotlari, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va aholining real daromadi inqirozdan oldingi darajasidan oshib ketdi.

Belarus o'rtacha rivojlangan industrial davlat sanaladi. Qishloq xo'jaligi va mashinasozlik yaxshi taraqqiy topgan. Bu sohalar mahsulotlarining katta qismi eksport qilinadi. Asosiy savdo hamkorlari Rossiya va boshqa MDH davlatlari. So'nggi paytda O'zbekiston bilan ham savdo munosabatlari jadal rivojlanmoqda.

2025-yil 26-yanvarda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida A. Lukashenko yana prezident etib saylandi.

O'zbekiston – Belarus munosabatlari 2019-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belarus Respublikasiga qilgan tashrifidan so'ng jadal rivojlanmoqda.

MOLDOVA RESPUBLIKASI

Moldaviya 1991-yil 27-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Moldova Respublikasi nomini olgan davlatning birinchi prezidenti etib **Mircha Snegur** saylandi.

1990-yili Moldovaning Ruminiya bilan integratsiyalashuvi jarayonida respublikaning janubi-sharqiy mintaqalaridagi mahalliy rusiyzabon aholi orasida ayirmachilik kayfiyati kuchaydi. Ular o'zlari yashaydigan hududni **Dnestrbo'yi Moldaviya Respublikasi** deb e'lon qildi. Bu qonli to'qnashuvga olib keldi va urush Rossiya armiyasi aralashgandan so'ng to'xtatildi.

Moldova iqtisodiy jihatdan agrar-industrial mamlakatlar qatoriga kiradi. Uning iqlimi qishloq xo'jaligi uchun juda qulay. Mamlakatda mineral resurslar zaxirasi yo'q, shu sababli iqtisodiyot qishloq xo'jaligiga asoslangan. Aholining yarmidan ko'pi qishloqlarda yashaydi. Eksportning asosiy qismini oziq-ovqat va to'qimachilik mahsulotlari tashkil qiladi. Moldova Yevropaning eng kambag'al mamlakatlaridan biri. Ammo 2009-yilgi inqirozdan so'ng Moldova jadal rivojlanishni boshladi.

Biroq siyosiy holat beqarorligicha qolmoqda. **2017-yil mayda** bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida Rossiya bilan yaxshi munosabatlar tarafdori bo'lgan **Igor Dodon** g'olib chiqdi. U 2019-yili yangi saylovlar o'tkazishni taklif qildi.

2020-yil noyabrda bo'lib o'tgan saylovda Harakat va hamkorlik partiyasidan nomzod **Mayya Sandu** g'olib chiqdi. 2024-yil noyabrda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida ham yana M. Sandu g'olib bo'ldi. U Moldovaning Yevropa Ittifoqiga Ruminiya yordamida integratsiyalashuv siyosatini olib bormoqda.



ATAMALAR IZOHI

Korrupsiya — bu amaldor shaxs tomonidan o'z va-kolatlarini va unga ishonib topshirilgan huquqlarni, shu-ningdek, rasmiy lavozim bilan bog'liq obro'si va aloqa-larini qonunga va axloq normalariga xilof ravishda o'z shaxsiy manfaatlarini yo'lida suiiste'mol qilish.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Ukraina, Belarus Respublikasi, Moldova Respublikasining YIM ko'rsatkichlarini yillar ketma-ket-ligida tahlil qiling.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XX asr oxiriga kelib, qanday o'zgarishlar Ukrainada kapitalistik iqtisodning shakllanishiga olib keldi?
2. Ukrainada 2014-yilgi siyosiy inqiroz natijasida qanday muammolar paydo bo'ldi?
3. Belarus Respublikasi mustaqillik yillarida iqtisodiy rivojlanishda qanday yutuqlarga erishdi?
4. Moldova Respublikasi oldida mustaqillik yillarida qanday siyosiy va iqtisodiy muammolar paydo bo'ldi?
5. Belarus va Moldova Respublikalari iqtisodiy taraqqiyoti o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va farqlarni tushuntiring.



6-MAVZU

KAVKAZORTI DAVLATLARI

OZARBAYJON



Kavkazorti davlatlari

hokimiyatga keldi. Ammo Xalq fronti mamlakatda tinchlik va totuvlikni ta'minlay olmadi. Natijada Milliy Majlis A. Elchibeyni lavozimidan mahrum qilib, uning vakolatlarini Ozarbayjon Milliy Majlisi raisi bo'lgan **Haydar Aliyevga** topshirdi. 1993-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida H. Aliyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti etib saylandi. H. Aliyev respublikadagi ziddiyatli ahvolni yumshatishga erishdi. U o'n yil davomida mamlakatning tinch taraqqiyotini ta'minladi, qo'shnilar bilan yaxshi hamkorlik munosabatlarini o'rnatdi. Tog'li Qorabog' masalasida faol jang harakatlari to'xtatildi, muzokaralar boshlandi.

Tog'li Qorabog' Ozarbayjon hududida joylashgan va asosan, arman millatiga mansub aholi yashaydigan avtonom viloyat edi. Tog'li Qorabog' avtonom viloyati rahbarlarining viloyatni Armaniston tarkibiga qo'shishni

1991 -yil o'z davlat mustaqilligini e'lon qilgan Ozarbayjon Respublikasi 1918-yili tashkil etilgan Ozarbayjon Demokratik Respublikasining huquqiy vorisi hisoblanib, 18-oktyabr mamlakatda mustaqillikning tiklangan kuni sifatida nishonlanadi. Ozarbayjon neft va gaz zaxirasiga boy bo'lib, mintaqa siyosatida muhim rol o'ynaydi.

1990-yili Boku shahrida muxolifatchi siyosiy tashkilot — Ozarbayjon Xalq fronti namoyish boshladi va **Abulfayz Elchibey** boshchiligida Milliy mudofaa kengashi tuzilganligini e'lon qildi. Xalq frontining millatchilik ruhidagi mitinglari Bokudagi armanlar qirg'iniga bevosita turtki bo'ldi. 1992-yil mayda Bokuda davlat to'ntarishi amalga oshirilib, prezident **Ayaz Mutalibov** hokimiyatdan ag'darildi va A. Elchibey boshchiligidagi Xalq fronti



TAHLIL QILING

1. XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida Kavkazorti davlatlari o'rtasida qanday chegaraviy muammolar yuzaga keldi?
2. Kavkazorti davlatlari uchun Qora dengiz hamda Kaspiy dengizi qanday imkoniyatlarni taqdim qiladi?

so'rab qilgan murojaati mintaqadagi milliy muammolarni chigallashtirib yubordi. 1991-yili Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida Tog'li Qorabog' uchun boshlangan urush yuzasidan 1994-yili o't ochishni to'xtatish to'g'risidagi kelishuvga erishildi.

2003-yil dekabrda H. Aliyev vafot etgandan so'ng mamlakat prezidenti etib uning o'g'li **Ilhom Aliyev** saylandi. U otasining siyosatini davom ettirib kelmoqda. 2020-yili Tog'li Qorabog'da ikkinchi arman-ozarbayjon urushi boshlanib, natijada Ozarbayjon ilgari boy berilgan yerlarining bir qismini qaytarib oldi. 2023-yili boshlangan urush natijasida esa Ozarbayjon o'zining xalqaro tan olingan barcha hududlari ustidan o'z nazoratini o'rnatdi.

O'zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari 2023-yil martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga tashrifi va 2024-yil avgustda Ozarbayjon Respublikasi prezidenti Ilhom Aliyevning O'zbekistonga tashrifidan so'ng jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari o'zaro ikki tomonlama, shuningdek, MDH, Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) doirasida amalga oshirilmoqda.



ESLAB KO'RING!

1991-yil o'z davlat mustaqilligini e'lon qilgan Ozarbayjon Respublikasi 1918-yili tashkil etilgan Ozarbayjon Demokratik Respublikasining huquqiy vorisi hisoblanib, 18-oktyabr mamlakatda mustaqillikning tiklangan kuni sifatida nishonlanadi. Ozarbayjon neft va gaz zaxiralariga boy bo'lib, mintaqa siyosatida muhim rol o'ynaydi.

GRUZIYA

1991-yil martda o'tkazilgan referendumda Gruziya aholisining mutlaq katta qismi mamlakat mustaqilligi uchun ovoz berdi. Shu referendum natijalari asosida 1991-yil 9-aprel kuni Gruziya Oliy Kengashi "**Gruziya mustaqilligini tiklash to'g'risida akt**"ni qabul qildi. Ayni paytda prezident lavozimi joriy qilindi. Shu yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida muxolifat yetakchisi **Zviad Gamsaxurdiya** mamlakat prezidenti etib saylandi. Boshqaruv tajribasiga ega bo'lmagan Z. Gamsaxurdiya o'zining sakkiz oylik prezidentlik davrida mamlakat elitasi, ziyolilar bilan munosabatlarini buzdi, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirib, gruzin-abxaz mojarosini keltirib chiqardi. 1991-yili Gruziya xalq demokratik partiyasi rahbarlari Z. Gamsaxurdiyaning iste'foga chiqishini talab qildi. Mamlakatda isyon boshlanib, Tbilisida haqiqiy janglar bo'lib o'tdi. Z. Gamsaxurdiya o'z tarafdorlari bilan Tbilisini tark etdi.

Z. Gamsaxurdiya ag'darilgandan so'ng hokimiyat **Eduard Shevardnadze** boshchiligidagi Davlat Kengashiga o'tdi. Bu paytda mamlakatda ahvol og'ir, gruzin-osetin qurolli to'qnashuvi davom etayotgan edi. 1992-yil iyunda E. Shevardnadze bu urushni to'xtatishga erishdi.

O'sha yili oktyabrda o'tkazilgan saylovlarda E. Shevardnadze Gruziya Oliy Kengashi raisi etib saylandi. Ammo mamlakatda yig'ilib qolgan muammolar, ayniqsa, iqtisodiy ahvolning og'irligi E. Shevardnadze boshqaruvidan aholi noroziligini kuchaytirdi. 2003-yili o'tkazilgan parlament saylovlaridan so'ng E. Shevardnadze iste'foga chiqqanligini e'lon qildi. Yangi saylovda **Mixail Saakashvili** g'olib chiqdi. Bu jarayonlar Gruziya va G'arb matbuotida "**Atirgullar inqilobi**" nomini oldi. Hokimiyatga ko'pchiligi G'arb davlatlarida ta'lim olgan "**yangi demokratlar**" keldi.



Gruziya manzarasi



MULOHAZA YURITING

Ozərbayjon, Gruziya va Armaniston Respublikalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

M. Saakashvili hukumati Gruziyada muhim islohotlarni amalga oshirdi. Mamlakatda korrupsiyaga chek qo'yildi. Ammo M. Saakashvili davrida ham Gruziya bilan Janubiy Osetiya o'rtasidagi mojaro o'z yechimini topmadi. 2008-yil avgustda Gruziya, Rossiya, Janubiy Osetiya va Abxaziya ishtirokida bo'lib o'tgan harbiy to'qnashuv oqibatida Rossiya Abxaziya va Janubiy Osetiyaning mustaqilligini tan olib, ular bilan ikki tomonlama munosabatlar o'rnatdi.

2012-yili bo'lib o'tgan parlament saylovida muxolifatchi "**Gruziya orzusi**" partiyasi g'olib chiqdi. Shu partiya vakili **Georgiy Margvelashvili**, 2018-yili esa **Salome Zurabishvili** Gruziya Prezidenti etib saylandi.

2021-yili Gruziyaga qaytib kelgan M. Saakashvili bir nechta jinoyatda ayblanib qamoqqa olin-di. 2025-yili qaytadan sud qilinib, Gruziya davlat chegarasidan noqonuniy o'tganligi uchun qamoq muddati uzaytirildi. 2024-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan parlament saylovida "Gruziya orzusi" partiyasi g'olib chiqdi va parlament majlisida shu partiya vakili **Irakliy Kobaxidze** bosh vazir, **Mixail Kavelashvili** prezident etib saylandi. Gruziyaning Ylga a'zoligi masalasi 2028-yilgacha to'xtatildi.

O'zbekiston — Gruziya munosabatlari sust rivojlangan. 2025-yil martda Gruziya Respublikasi bosh vaziri Irakliy Kobaxidzening O'zbekistonga tashrifi doirasida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga kelishib olindi. Gruziya hukumati O'zbekiston fuqarolari uchun havo chegaralarini ochdi.

ARMANISTON

1991 -yil 21-sentyabrda Armanistonda o'tkazilgan referendum natijalariga asosan, "**Armanistonning davlat mustaqilligi to'g'risida**" deklaratsiya qabul qilindi. 1991-yil oktyabrda bo'lib o'tgan saylovda **Levon Ter-Petrosyan** Armanistonning birinchi prezidenti etib saylandi.

Armanistonning mustaqil davlatga aylanishi boshqa respublikalarga nisbatan o'zgacha asosda yuz berdi. 1980-yillardayoq mustaqillik uchun kurash tashqi omil — Tog'li Qorabog' muammosi qizigan bir paytda boshlandi. Tog'li Qorabog'ni qo'shib olish arman jamiyatida etnik birlashish, tarixiy adolatning qaror topishi sifatida qaraldi. Bu kurash jarayonida sovet davri partiya rahbarlari o'rniga kelgan milliy siyosiy elita shakllandi. Shu elita uzoq vaqt Armanistonning rivojlanish yo'nalishini belgilab keldi.

Armaniston mustaqillik yillarida Rossiya bilan munosabatlarini izchil davom ettirdi. Buning sabablaridan biri Tog'li Qorabog' masalasida Armanistonning Rossiyaga tayanishi edi. Chunki Armanistonning Ozarbayjon va Turkiya bilan chegaralari amalda yopiq, Gruziya bilan munosabatlari murakkab, Eron bilan geosiyosiy kelishmovchiliklar mavjud. Shu tariqa Rossiya Armanistonning mintaqadagi yagona ittifoqchisi bo'lib qolgan edi.

Armanistonning uchinchi prezidenti **Serj Sargsyan** 2018-yili amalga oshirgan konstitutsion islohotlar natijasida prezident vakolatlari bosh vazirga o'tdi. Ammo S. Sargsyaning bosh vazir lavozimiga saylanishiga qarshi norozilik namoyishlari boshlanib ketdi va u iste'foga chiqdi. "**Baxmal inqilob**" nomini olgan bu harakat natijasida 2018-yil may oyida hokimiyatga muxolifat yetakchisi **Nikol Pashinyan** keldi.

N. Pashinyan G'arb davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini olib bormoqda. 2023-yili Tog'li Qorabog'da Ozarbayjon suvereniteti tiklangandan so'ng Rossiya bilan munosabatlarida sovuqlik yuzaga keldi. 2025-yil martda Armaniston o'zi a'zo bo'lgan Rossiya boshchiligidagi Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga badal to'lashdan bosh tortdi.

Armaniston — agrar-industrial mamlakat. YIMning 50% dan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. Iqtisodiyotning so'nggi 15 yildagi o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5% ni tashkil qiladi. 2022-yili 110 mingga yaqin rossiyalik IT mutaxassislarining Armanistonga ko'chib kelishi mamlakat iqtisodiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. *H. Aliyev prezident etib saylangandan so'ng Ozarbayjonning ichki va tashqi siyosati qanday o'zgardi?*
2. *Gruziyada M. Saakashvili olib borgan islohotlar qanday natijalarga olib keldi?*
3. *Armanistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatida qanday omil asosiy rol o'ynaydi?*
4. *Matndan foydalanib Kavkazorti mamlakatlaridagi etnik muammolar ro'yxatini tuzing.*



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston davlatlari yerosti boyliklari bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinlarni egallaydi? Fikringizni internet ma'lumotlaridan foydalanib asoslang.



7-MAVZU

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI

QOZOG'ISTON



ESLAB KO'RING!

Markaziy Osiyo hududida qaysi davlatlar joylashgan?

1993-yil noyabrda milliy valyuta — **tenge** muomalaga kiritildi. Shu yil dekabrda Qozog'iston hukumati yirik neft konsernlari bilan Kaspiy dengizining shimoliy qismida qidiruv o'tkazish to'g'risida kelishuv imzoladi. Ayni paytda yirik korxonalarni xususiylashtirish amalga oshirildi. 1994-yilda parlament mamlakat poytaxtini Oqmola shahriga ko'chirish to'g'risida qaror qildi. U 1998-yildan "**Ostona**" deb ataldi.

O'tgan davrda Qozog'iston iqtisodiyotining asosiy sohalari neft, gaz va metallurgiya bo'lib qoldi. Aynan shu sohalarning hisobiga iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham jadal o'sishga erishildi.

Qozog'istonning milliy xavfsizligi va ichki siyosiy barqarorligini saqlashda turli konfessiyalarga mansub xalqlarning tinch-totuv yashashi asosiy masala hisoblanadi. Hozir Qozog'istonda 820 ga yaqin etno-madaniy birlashmalar faoliyat olib bormoqda. Bu tashkilotlar tinchlik va totuvlik saroyi — **Do'stlik uyida** joylashgan. Shuningdek, mamlakatda yuzga yaqin milliy maktablar bo'lib, ularda 22 milliy tilda dars olib boriladi. O'zbek va rus milliy teatrlaridan tashqari, MDHda yagona uyg'ur, koreys va nemis teatrlari ham ishlab turibdi. Ular Qozog'istondagi ijtimoiy barqarorlik va etnoslararo tinch-totuvlikning manbai bo'lib xizmat qilmoqda.



MULOHAZA YURITING

Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari uchun iqtisodiy sohada qanday umumiy muammolar bo'lgan? Fikringizni raqamlarda izohlang.

1991-yil 16-dekabrda Qozog'iston o'z mustaqilligini e'lon qildi. Shu yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida **Nursulton Nazarboyev** Qozog'istonning birinchi prezidenti etib saylandi. 1993-yil Qozog'istonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda eng katta vakolatlar prezidentga berildi. Hukumat iqtisodiy islohotlarni boshlab yubordi.

2015-yili bo'lib o'tgan navbatdan tashqari prezidentlik saylovida N. Nazarboyev g'alaba qozondi. Ammo u 2019-yil martda iste'foga chiqqanligini e'lon qildi. Qozog'iston Respublikasi prezidenti lavozimini **Qosim-Jomart Toqayev** egalladi. Biroq N. Nazarboyev lavozimidan ketgandan keyin ham davlat ishlariga aralashish, davlat amaldorlari bilan majlislar o'tkazishda davom etdi. Shu yili iyunda o'tkazilgan prezidentlik saylovida Q. J. Toqayev g'alaba qozongandan so'ng kuchli norozilik namoyishlari boshlanib ketdi. 2022-yil yanvarda bo'lib o'tgan yirik namoyishda yuzlab odamlar jabrlandi. Faqat

Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) qo'shinlarining aralashuvi holatni tinchlantirish imkonini berdi. Q. J. Toqayev 2029-yili bo'ladigan prezidentlikka saylovda o'z nomzodini qo'ymasligini bildirdi.

Q. J. Toqayev parlamentda so'zlagan nutqida namoyishlarning sababi jamiyatda to'planib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarda ekanligini ta'kidladi. Bugun Qozog'iston tinch rivojlanish yo'lini davom ettirmoqda.



Siyosiy islohotlarni davom ettirish maqsadida 2022-yili “Yangi Qozog‘iston” konsepsiyasi e'lon qilindi, partiya va saylov tizimi liberallashti, prezident vakolatlari muddati qisqartirildi.

Markaziy Osiyo davlatlari



MULOHAZA YURITING

Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston uchun Orol dengizining qurishi qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi?

TURKMANISTON

1991-yil 26-oktyabrda referendum o'tkazilib, unda qatnashganlarning aksariyati Turkmaniston mustaqilligi uchun ovoz berdi. 1991-yil dekabrda mamlakat MDHga a'zo bo'ldi. 1999-yildan Xalq Majlisi qaroriga ko'ra, **Saparmurod Niyozov** umrbod davlat boshlig'i bo'ldi. S. Niyozov 2006-yili vafot etdi. Turkmaniston Prezidenti etib **Gurbanguli Berdimuhamedov** saylandi.

Mustaqillik yillarida Turkmaniston iqtisodi chuqur inqirozda edi. 1998-yili YIM hajmi 1991-yilga nisbatan ikki barobar kamayib ketdi. Mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi yuz berdi, aholining yashash darajasi keskin yomonlashdi. Faqat 2000-yillarning boshlariga kelibgina Turkmaniston inqirozdan chiqib oldi va jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan biriga aylandi. Tabiiy boyliklar, birinchi o'rinda, tabiiy gazning juda katta zaxirasi ko'plab mamlakatlar va transmilliy korporatsiyalarni o'ziga jalb qildi. Ammo shu davrda jahonda uglevodorodga talabning pasayishi bilan Turkmaniston iqtisodiyotining o'sish sur'ati susaydi.

2022-yili bo'lib o'tgan navbatdan tashqari prezidentlik saylovida G. Berdimuhamedovning o'g'li **Serdar Berdimuhamedov** Turkmaniston prezidenti etib saylandi. G. Berdimuhamedov parlamentning yuqori palatasi — **Xalq Maslahatining raisi** lavozimini saqlab qoldi.

TOJIKISTON

1991-yil 9-sentyabr kuni Tojikiston o'z mustaqilligini e'lon qildi. Mustaqillikdan keyin mamlakatning turli mintaqalaridagi mahalliy elitalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Bu kurash 1992-yildan 1997-yilgacha davom etgan fuqarolar urushiga olib keldi. Urushda taxminan 150 ming kishi halok bo'ldi, mamlakat juda katta iqtisodiy zarar ko'rdi.

1994-yili Tojikiston Konstitutsiyasi qabul qilindi va shu kuni o'tkazilgan prezidentiik saylovida **Emomali Rahmonov** g'olib chiqib, Tojikiston prezidenti etib saylandi.

Mamlakatda tinchlik o'rnatilgandan so'ng Rossiya, Xitoy, Eron bilan hamkorlikda iqtisodiyotni tiklashga kirishildi. Tojikiston tog'li o'lka bo'lganligi uchun gidroenergetika imkoniyatlari katta.

Tojikiston 2000-yil Yevroosiyo Iqtisodiy Hamkorligini ta'sis qilish to'g'risidagi shartnomani imzoladi. U Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga qo'shildi. Rossiya, Xitoy va Eron bilan hamkorlikda bir necha yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish boshlandi.

Natijada Tojikistonda iqtisodiy o'sish boshlanib, ayniqsa, so'nggi yillarda yuqori natijalar ko'rsatmoqda. Bunday iqtisodiy ko'rsatkich oltin eksportining o'sishi va infratuzilmaga davlat mablag'larining sarflanishi evaziga yuz bermoqda. Shuningdek, mehnat migrantlarining pul jo'natmalari va mamlakatda maoshning oshishi ham kambag'allikning qisqarishi va iqtisodiyotning o'sishida ma'lum rol o'ynamoqda.

QIRG'IZISTON

1991-yil 31-avgustda Qirg'iziston o'z mustaqilligini e'lon qildi. Shundan so'ng demokratik jarayonlar yanada chuqurlashib bordi, prezidentlik saylovida **Asqar Akayev** g'olib chiqdi. U mamlakatda demokratik islohotlar o'tkazdi. Ammo SSSR tarqalgandan keyingi iqtisodiy holat og'irlashib, 1990-yillari qashshoqlar soni jami aholining yarmidan oshib ketdi. Faqat 1996-yilga kelib, iqtisodiy o'sish boshlandi. A. Akayev hokimiyatda turgan 15 yil ichida ahvol yetarli darajada yaxshilandi. 2005-yilgi "**Lolalar inqilobi**" natijasida hokimiyatga kelgan **Kurmanbek Bakiyev** kuch ishlatar tizimlarga tayanib, jamiyatda shaxsiy hukmronligini mustahkamlashga, muxolifatni butunlay tugatishga harakat qildi. Ammo 2010-yili "**Atirgullar inqilobi**" deb atalgan ommaviy harakat K. Bakiyev hokimiyatini ag'dardi. Mamlakatda tartibni saqlash uchun **Roza Otunbayeva** boshchiligida muvaqqat hukumat tashkil qilindi.

2011-yil oktyabrda bo'lib o'tgan saylovda Qirg'iziston sotsial-demokratik partiyasi yetakchisi **Almazbek Atambayev** prezident etib saylandi.

2000-yillardan iqtisodiy o'sish boshlanib, asosiy sanoat korxonalari xususiylashtirildi, yerga xususiy mulkchilik joriy qilindi. Oltin va simob qazib olish keskin oshirildi. Qirg'iziston oltin qazib chiqarishda MDHda Rossiya va O'zbekistondan keyin uchinchi o'ringa chiqdi. Qirg'izistonda iqtisodning o'sishi jamiyatning ham barqarorlashuviga olib keldi. 2017-yil oktyabrda o'tkazilgan saylov natijasiga ko'ra, hukmron sotsial-demokratik partiya vakili **Sooronboy Jeenbekov** g'alaba qozondi.

2021-yil saylovda g'alaba qozongan **Sadir Japarov** konstitutsiyaviy referendum orqali o'z prezidentlik vakolatlarini kengaytirdi, parlamentning ta'sirini kamaytirdi, Xalq Qurultoyini tashkil qildi. Bu ishlar Qirg'izistonda keng miqyosdagi islohotlarni amalga oshirish imkonini berdi. Natijada iqtisodiy o'sish boshlandi, infratuzilma modernizatsiya qilindi. Erishilgan yutuqlar keyingi rivojlanish uchun poydevor yaratdi, mamlakat rahbariyati esa Qirg'izistonni dunyoning eng rivojlangan 30 mamlakati qatoriga olib chiqish rejasini qo'ydi. Iqtisodiy sohadagi katta yutuqlardan biri yirik Qumtor oltin konining davlat ixtiyoriga qaytarilishi bo'ldi. Buning hisobiga aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi rivojlantirildi, pensiyalar va ish haqi oshirildi, odamlarning yashash darajasi yaxshilanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlik ham jadal rivojlanmoqda.

O'ZBEKISTON — MARKAZIY OSIYO MUNOSABATLARI

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat strategiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo identligini shakllantirish g'oyasini va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining sammitlarini muntazam o'tkazish hamda mintqa mamlakatlarining integratsiyalashuvini yanada jadallashtirish takliflarini ilgari surdi. Natijada bugun Markaziy Osiyo mamlakatlari yagona xalqaro subyekt sifatida shakllanish yo'lidan borib, o'zaro aloqalar jadal rivojlanmoqda.

O'zbekiston mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash bilan bog'liq masalalarda muhim ahamiyatga ega mamlakat, chunki zamonaviy dunyoda Markaziy Osiyo global xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbekiston va xalqaro mintaqaviy tashkilot — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi munosabatlari tubdan o'zgardi. 2017-yilning oktyabr oyida Sochi shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan savdo-iqdisodiyot, sarmoya, transport, turizm, ilm-fan, ta'lim va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini, MDHga a'zo mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, yangi, aniq loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini qayd etdi.

2020-yilda O'zbekiston MDH tashkilotiga raislik qildi. Bu davrda Hamdo'stlikni mintaqaviy davlatlararo tashkilot sifatida yanada mustahkamlash va rivojlantirish, uning xalqaro maydondagi nufuzini hamda ko'p tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini hal qilishdagi rolini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.



YODDA TUTINGI

O'zbekiston tashabbusi bilan va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligida quyidagi maxsus rezolyutsiyalar qabul qilindi:

- 2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqaror va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash”;
- 2018-yil 12-dekabrda “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik”;
- 2018-yil 19-dekabrda “Markaziy Osiyo barqaror turizm va barkamol rivojlanish”;
- 2021-yil 18-mayda “Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish to'g'risida”.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mustaqillik yillarida Qozog'iston iqtisodiyoti, asosan, qaysi sohalar hisobiga rivojlandi?
2. G. Berdimuhamedov prezident etib saylangandan so'ng Turkmanistonning ichki siyosatida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. Tojikistonda fuqarolar urushi qanday oqibatlarga olib keldi?



YEVROPA ITTIFOQI
YEVROPA
DAVLATLARINING
HAMKORLIGIGA
ASOSLANGAN YEVROPA
ITTIFOQI 27 TA DAVLATN
BIRLASHTIRADI.

III
BOB



XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA AQSH VA G'ARBIY YEVROPA MAMLUKATLARI



BREKSIT
2020-YIL 31-YANVARDA
BUYUK BRITANIYA
YEVROPA ITTIFOQI
TARKIBIDAN CHIQQI.



8-MAVZU

G'ARB MAMLAKATLARIDA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARINING JADALLASHUVI

YEVROPA ITTIFOQI VA UNDAGI INTEGRATSIYA JARAYONLARI

YI — bu 27 ta Yevropa davlatining hamkorligiga asoslangan ittifoq. YI hudud jihatidan Yevropa qit'asining katta qismini egallaydi. Bugun YI aholisi 448 milliondan ortiq kishini yoki Yer yuzi aholisining 6% ga yaqinini tashkil qiladi.

YI Yevropa qit'asidan uzoqda joylashgan to'qqizta mintaqani ham qamrab olgan. Bu dengizorti hududlariga quyidagilar kiradi: Fransiya qarashli Fransuz Gvineyasi, Gvadelupa, Martiniki, Mayotta, Reyunon va Sen Marten, Portugaliya qarashli Azor orollari va Madeyra hamda Ispaniyaga qarashli Kanar orollari.

YI shiori "**Xilma-xillik birligi**" bo'lib, unda YIning turli qadriyatlari mujassamlashgan. Ylga kiruvchi har bir davlat o'z madaniyati, tili va an'analariga ega bo'lsa-da, ularning barchasi YI a'zolari rioya qilishi lozim bo'lgan umumiy qadriyatlarni qabul qiladi.

Yldagi integratsiya jarayonlari — bu murakkab va ko'p qirrali jarayon, u Ylga a'zo davlatlar o'rtasida turli sohalarda hamkorlik va birlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Iqtisodiy birlik sifatida faoliyat boshlagan YI umumiy valyuta, odamlar va tovarlarning erkin harakati, shuningdek, bir qator umumiy boshqaruv institutlariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot darajasiga yetdi. Bugun tashqi siyosat va mudofaa, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, umumiy huquqiy bazani shakllantirish kabi masalalar boshqaruvning umumiy institutlari tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.



ESLAB KO'RING!

Ikkinchi jahon urushi Yevropa davlatlari uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

YI mamlakatlari hamda unga a'zo bo'lish uchun murojaat etgan davlatlarni internetdan aniqlang va daftaringizga jadval ko'rinishida yozing.

A'zo mamlakatlar	Rasmiy nomzodlar	YI a'zolidan chiqqan davlat	YI tarkibiga qo'shilmagan davlatlar
------------------	------------------	-----------------------------	-------------------------------------



Yevroparlament

1990-yillardan boshlab Yevropa integratsiyasining rivojlanishi ikki yo'nalish bo'yicha bordi. **Birinchi-dan**, yangi a'zolari qabul qilish yo'nalishi bo'lib, 1996-yili a'zolar soni 15 taga yetdi. 2002-yili **Kopenhagen (Daniya)**da bo'lib o'tgan uchrashuvda Yevroittifoqqa yana **o'nta yangi a'zo** — Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya taklif qilindi. Albatta, yangi taklif qilingan davlatlar uchun o'tish davri ko'zda tutilgan bo'lib, bu davr mobaynida ular o'z qonunchiligini, moliyaviy va iqtisodiy tizimini yagona Yevropa talablariga moslashtirishi lozim edi. Ularga o'zlarining ichki muammolarini hal qilish uchun Yevroittifoq byudjetidan 1 milliard yevro subsidiya ajratildi. Ammo majlis kun tartibidagi yana bir muhim masala — **Turkiyaning Ylga qabul qilinishi** masalasi hal qilinmadi.



BU QIZIQ!

YI — odamlar, tovarlar, xizmatlar va pullar erkin harakatlanishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng yirik yagona bozor hududi. Har kuni 3,5 milliondan ortiq odam qo'shimcha hujjatsiz, vaqt sarflamasdan ishlash, o'qish yoki oilasi va do'stlari bilan uchrashish uchun YI mamlakatlari ichki chegaralarini kesib o'tadi.

Ikkinchidan, integratsiyaning chuqurlashuvi Yevropa mamlakatlarida o'zaro siyosiy munosabatlar sohasini ham qamrab olish yo'lidan bordi. Yevropa parlamentining maqomi oshdi, Yevroparlamentga to'g'ridan to'g'ri saylovlar o'tkaziladigan bo'ldi. **1993-yili** yagona Yevropa fuqaroligini ta'minlagan **Maastrixt shartnomasi** kuchga kirdi. Ylga kiruvchi mamlakatlar fuqarolari hech qanday vizasiz Ittifoqning istalgan mamlakatida xohlagan muddatigacha yashashi va mahalliy saylovlarda ishtirok etishi mumkin bo'ldi. Qonunchilikni birxillashtirish huquqiy normalarning yagona Yevropa tizimi shakllanishiga olib keldi. Kелиshilgan yagona tashqi va mudofaa siyosati olib borildi. 2002-yili Yevropada (Buyuk Britaniyadan tashqari) yagona valyuta — **yevro** joriy qilinishi YI davlatlarini yanada yaqinlashtirdi.

Endi Yevropa Ittifoqiga amalda konfederatsiya tipidagi yagona davlat tuzilmasi sifatida qarash mumkin bo'ldi. Yevroatlantika mamlakatlarining keyingi integratsiyasi G'arbiy Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlarining yanada yaqinlashuvi yo'lidan bordi.

Ayni paytda Ylda iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan Germaniya va Fransiyaning siyosiy bosimidan ham norozilik kuchayib bordi. Bu norozilikning yorqin namoyishi Buyuk Britaniyada 2016-yil iyunda o'tkazilgan referendum bo'lib, unda ishtirok etgan aholining yarmidan ko'pi mamlakatning Yldan chiqishi uchun ovoz berdi. 2020-yil 31-yanvar kuni Buyuk Britaniyaning Ylga a'zoligi to'xtatildi.



MULOHAZA YURITING

Yl a'zolari rioya qilinishi lozim bo'lgan bir xil qadriyatlarni qabul qilishi bu davlatlarning o'ziga xos madaniyati, tili va an'alarining yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkinmi?

shu urushini agressiya deb baholab, bu urushni xalqaro miqyosda qoralab kelmoqda va Rossiyaga qarshi keng miqyosli sanksiyalar e'lon qildi. Bu sanksiyalar Rossiyani iqtisodiy izolyatsiyalashga va agressiya uchun uning moliyaviy imkoniyatlarini cheklashga qaratildi.

Bu davrda Yl Markaziy Osiyo (MO) davlatlari bilan yaqinlashuv siyosatini faollashtirdi. Xususan, 2022-yil Qozog'istonning Ostona shahrida, 2023-yili Qirg'izistonning Cho'ponota shahrida Yl — MO formati doirasida oliy darajadagi uchrashuvlar bo'lib o'tdi. 2023-yil oktyabrda Lyuksemburgda bo'lib o'tgan Yl va MO davlatlari tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvida 2024-yili birinchi sammitni Samarqand shahrida o'tkazishga kelishib olindi. Ammo turli sabablarga ko'ra, sammit 2025-yilga ko'chirildi. Shu yili aprelda Samarqandda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan sammitda ikki mintaqa — Yl va MO o'rtasidagi munosabatlarni strategik hamkorlik darajasiga ko'tarish to'g'risida kelishib olindi.

Shuningdek, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko'paytirish, innovatsiyalar,



BU QIZIQ!

*Yevro 1979-yildan 1998-yilgacha Yevropa valyuta tizimida qo'llanilgan Yevropa valyuta birligi (ing. ECU — **European Currency Unit**, shuningdek, O'rta asrlardagi fransuz tangalari — ekyu (fr. **écu**) o'rnini egalladi.*

Koronavirus pandemiyasi butun dunyoda bo'lgani singari Ylda ham katta insoniy yo'qotishlarga va iqtisodiy tushkunlikka olib keldi. Aholini ommaviy emlash orqali virus tarqalishining oldini olishga qaratilgan tadbirlardan tashqari, Yl sog'liqni saqlash milliy tizimlarini qo'llab-quvvatlash orqali ham "COVID-19" pandemiyasini yengib o'tishga erishdi.

2022-yil fevralda Rossiya va Ukraina o'rtasida keng miqyosli urush boshlanishi bilan Yl Ukraina va uning xalqini qo'llab-quvvatlashni boshladi. Xususan, gumanitar va favqulodda yordam, moliyaviy va tezkor qo'llab-quvvatlash, shuningdek, harbiy yordam ko'rsatishni bugungi kunda ham davom ettirib kelmoqda. Yl Rossiyaning Ukrainaga qar-



YODDA TUTING!

Shengen zonasi — 2025-yildan ichki chegaralarda vizalar va bojxona nazoratini bekor qilgan 29 ta davlatdan iborat hudud, ya'ni bu davlatlar o'rtasidagi chegarani kesib o'tishda pasport taqdim etilmaydi.

2012-yilda Yevropa Ittifoqi **tinchlik bo'yicha Nobel mukofotiga** sazovor bo'ldi.

Yl shtab-kvartirasi Bryussel (Belgiya) shahrida joylashgan.

2002-yili Yevropada (Buyuk Britaniyadan tashqari) yagona valyuta — **yevro** joriy qilindi.




MULOHAZA YURITING

Ylning Markaziy Osiyoga qiziqishini nimalar bilan izohlash mumkin?

"Yashil energetika", tog'-kon, qishloq xo'jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo'shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniyat, turizm, fan, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish lozimligi ta'kidlandi.

YI VA O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Sammit doirasida bo'lib o'tgan konstruktiv va samarali uchrashuvlar ikki mintaqa manfaatlarini yo'lda sheriklik va amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lgan siyosiy iroda va qat'iyatni namoyon etdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, umumiy siyosiy iroda tufayli Markaziy Osiyodagi chuqur transformatsiya jarayonlari barqaror va ortga qaytmas tus oldi. Ishonch va yaxshi qo'shnichilik mustahkamlanmoqda, keng ko'lamlilik hamkorlik va kooperatsiya aloqalari kengaymoqda.

Bugungi kunda mintaqada yirik investitsiya va infratuzilma loyihalari birgalikda amalga oshirilmoqda, ularni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiya fondlari va kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Mintaqa ichidagi savdo ko'paymoqda, chegaraoldi savdo zonalari tashkil etilmoqda. Bularning barchasi mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. So'nggi yetti yilda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi bir necha barobar o'sib, 54 milliard yevroni tashkil etdi. Samarali hamkorlik platformalari ishga tushirildi. Toshkent shahrida Yevropa investitsiya banki ofisini ochish to'g'risida bitim imzolanib, bu YI mamlakatlaridan Markaziy Osiyoga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimini rag'batlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.



ATAMALAR IZOHI

Kapital — bu qo'shimcha qiymat olishda foydalaniladigan moddiy, intellektual va moliyaviy vositalar yig'indisi.

Sanksiya — bir nechta maqsadni, xususan: aybdorni jazolashni, jamoat tartibini saqlash va mavjud qoida, uning buzilganligiga qaramasdan, o'z kuchini saqlab qolishini rasman ta'kidlashni ko'zda tutadi.

Subsidiya — davlat yoki boshqa biron-bir muassasa tomonidan boshqa davlat, muassasa, alohida shaxsga ko'rsatiladigan moliyaviy yoki moddiy yordam.

Restrukturizatsiya — bu qarz yoki kreditni to'lash shartlarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Quyidagi reja asosida Yevrointegratsiya tarixidagi asosiy bosqichlarni o'rganib chiqing:

- a) 1951-yil — Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi tuzish to'g'risidagi Parij shartnomasining imzolanishi;
- b) 1957-yil — Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH)ni va Atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati (Yevratom)ni tashkil etish to'g'risidagi Rim shartnomasi imzolanishi;
- d) 1978-yil — Yevropa valyuta tizimining yaratilishi;
- e) 1985-yil — Shengen shartnomasining imzolanishi;
- f) 1992-yil — Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga asoslangan Yevropa Ittifoqini tashkil etish to'g'risidagi Maastrixt shartnomasining imzolanishi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1990-yillari Yevropa integratsiyasi qanday yo'nalishlar bo'yicha davom ettirildi?
2. Buyuk Britaniyaning Yldan chiqishiga qanday omillar sabab bo'ldi?



9-MAVZU

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

IQTISODIY RIVOJLANISH



ESLAB KO'RING!


AQSH tarixidagi "Uotergeyt ishi" qaysi prezident faoliyati bilan bog'liq?

Bu davrda iqtisodiy konyunktura yaxshilanib, ishsizlik darajasi va inflyatsiyaning pasayishiga olib keldi. B. Klinton prezidentligining ikkinchi muddatida uning ma'muriyati ijtimoiy sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Federal xarajatlarning asosiy qismi inson resurslarini rivojlantirishga sarflandi. AQSHni ijtimoiy davlatga aylantirish boshlandi. Bu siyosat "**Klintonning yangi iqtisodiy falsafasi**" ("**Clintonomics**") nomini oldi.

XXI asr boshiga kelib, AQSH iqtisodiyoti texnik taraqqiyotning asosiy manbayiga aylandi. Dunyo bo'yicha yangi texnologiyalarni yaratishga sarflanayotgan barcha xarajatlarning 1/3 qismi AQSH ulushiga to'g'ri kelardi. Dunyo ishlab chiqarishida yetakchi pozitsiyani ta'minlab turgan makrotexnologiyalarning ham yarmi AQSHga tegishli edi. AQSH bu davr o'z muammolarini muvaffaqiyatli hal qilib, XXI asrga yangi iqtisodiy o'sish bilan kirib keldi. Biroq 2007–2008-yillari AQSHning moliya sektorida boshlangan inqiroz 2009-yilga kelib, dunyo miqyosidagi global retsessiyaga aylanib ketdi. 2009-yili dunyo bo'ylab

1990-yillar boshida AQSH iqtisodiyotida qisqa muddatli retsessiya kuzatildi. O'sish sur'atining pasayishi xo'jalikning hamma jabhasini qamrab oldi. Biroq 1992-yil bahoridan yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati yana jadallasha boshladi.

Bill Klinton prezidentligining dastlabki uch yili AQSHning iqtisodiy rivojlanishi uchun muvaffaqiyatli keldi.



Amerika Qo'shma Shtatlari

YIM ulushi Ikkinchi jahon urushidan beri birinchi marta salbiy ko'rsatkichga tushib ketdi. Ishsizlikning misli ko'rilmagan darajada oshishi mehnat bozorini kuzatishning butun tarixi davomida eng yuqori nuqtaga yetdi va 2009-yili dunyoda ishsizlar soni 200 millionga yaqin kishini tashkil qildi. Miqyosi va oqibatlari bo'yicha bu inqirozni faqat 1930-yillardagi **Buyuk depressiya** bilan tenglashtirish mumkin. AQSH iqtisodiyoti 2014-yilga kelib ham to'liq tiklana olmadi. **Jozef Bayden** prezidentlik qilgan 2021–2024-yillar "COVID-19"dan keyingi jadal iqtisodiy o'sish davriga to'g'ri keldi. Bu davrda J. Bayden amalga oshirgan islohotlar iqtisodga davlat aralashuvining kuchayishi bilan xarakterlanib, u investitsiyalarning ortishi, ish o'rinlarining ko'payishi, aholi daromadining oshishi kabi ijobiy natijalarga olib keldi.



YODDA TUTING!

B. Klinton davrida AQSHni ijtimoiy davlatga aylantirish siyosati "yangi iqtisodiy falsafa" nomini oldi.

2007–2008-yillari AQSHning moliya sektorida boshlangan inqiroz 2009-yilga kelib, dunyo miqyosidagi global retsessiyaga aylanib ketdi.

SIYOSIY RIVOJLANISH

1980-yillar – 1990-yillarning boshlari neokonservativizm g'oyasining tantanasi davri bo'ldi. Bu yillari AQSH ichki taraqqiyotda ham, xalqaro maydonda ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Shunga qaramasdan, 1992-yilgi saylovda respublikachi **Jorj Bush** kutilmaganda yosh demokrat B. Klintonga yutqazib qo'ydi. Biroq demokratlar ham o'z g'alabasini mustahkamlay olmadi. 1994-yilgi oraliq saylovlarda demokratlar qaqshatqich mag'lubiyatga uchradi. Har ikkala palatada ko'pchilik o'rinlarni ham, ko'plab shtatlarda gubernatorlik lavozimlarini ham respublikachilar egalladi. Respublikachilar partiyasining obro'si va ta'sirini tiklash uchun qulay sharoit paydo bo'ldi. Ammo demokratlarning ichki va tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlari 1996-yilgi saylovda B. Klintonning g'alabasini ikkinchi marta ta'minladi. B. Klinton ma'muriyati ijtimoiy sohani o'z siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qildi.

2002-yilgi saylovda respublikachilar vakili kichik Jorj Bush yana saylandi. Uning ikkinchi muddat prezidentlik davrida AQSH moliyaviy inqirozni boshdan kechirdi. Natijada 2008-yili bo'lib o'tgan saylovda demokratik partiyadan yagona nomzod **Barak Obama** AQSHning 44-prezidenti etib saylandi.

B. Obama prezidentligining ikkinchi muddatida Iroq va Suriyadagi vaziyatning og'irlashuvi, Yevropa mamlakatlari va AQSHning o'zida ham terroristik xavfning kuchayishi kabi bir qator muammolar prezident va uning ma'muriyati obro'sini tushirib yubordi. Natijada 2016-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida demokratlar partiyasidan nomzod **Hillari Klinton** yutqazib qo'ydi. AQSHning navbatdagi prezidenti etib respublikachilar partiyasidan nomzod **Donald Tramp** saylandi.



TAHLIL QILING

AQSH o'z manfaatlarini himoya qilish uchun dunyoning turli mintaqalarida faol tashqi siyosat yurguzib keladi. XX asrning 90-yillari – XXI asrning birinchi choragida AQSH harbiy kuchlari kiritilgan mamlakatlarni xaritadan aniqlang.



BU QIZIQI

1789-yildan boshlab hozirgi kunga qadar AQSHda prezidentlik lavozimida 47 nafar siyosatchi faoliyat olib borgan. Ular orasida 2009–2017-yillar oralig'ida prezidentlik faoliyatini yuritgan Barak Obama yagona qora tanli insondir.

2017–2020-yillari AQSH prezidenti bo'lgan D. Tramp ichki siyosatda Amerikaning buyukligini tiklash, tashqi siyosatda esa boshqa davlatlar ishlariga aralashmaslikni e'lon qildi, migratsiya siyosati qayta ko'rib chiqildi, ish o'rinlari ko'paytirildi, tashqi siyosatda AQSH manfaatlari ustuvor deb qaraldi.

2020-yil noyabrda bo'lib o'tgan saylovda Demokratik partiya vakili Jozef Bayden g'alaba qozondi. Prezidentlikning dastlabki kunlarida J. Bayden bir qator farmonlarni imzoladi, D. Trampning JSST-dan va Iqlim bo'yicha Parij kelishuvidan chiqish to'g'risida, Meksika bilan chegarada devor qurish haqidagi farmonlarini bekor qildi. Bir qator musulmon mamlakatlari va Afrika davlatlari fuqarolariga AQSHga kirish uchun ruxsat berdi. J. Bayden 2024-yilgi saylovda dastlab prezidentlikka nomzod sifatida ishtirok etgan bo'lsa-da, ilk debatlardagi muvaffaqiyatsizlikdan so'ng iyul oyida saylovda ishtirok etishdan voz kechishga majbur bo'ldi. Noyabrda bo'lib o'tgan saylovlarda D. Tramp g'alaba qozondi.

TASHQI SIYOSAT

1990-yillari AQSH tashqi siyosatining asosiy prinsiplari o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Yuqori darajada rivojlangan sanoat mamlakati bo'lgan AQSH sayyoraning turli mintaqalarida o'zining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun nafaqat harbiy vositalarga ega edi, balki sanoat, savdo, moliyaviy, ilmiy-texnik, madaniy va boshqa vositalar ham uning jahon siyosatida nufuzi yuqori bo'lishida juda katta ahamiyat kasb etdi. AQSH hozir ham xalqaro maydonda shu vositalarning barchasidan unumli foydalanmoqda.

B. Obama prezidentligining birinchi davrida dunyoda zo'ravonlikka, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, AQSHning dunyodagi yetakchilik pozitsiyasini tiklash hukumat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilindi. Unga dunyoni yadro qurolidan xalos qilish, xalqlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish yo'lida qilgan harakatlari uchun 2009-yili tinchlik yo'nalishida Nobel mukofoti berildi. Ammo ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash Afg'onistonda to'liq tugallanmay turib, Yaqin Sharqda keskinlikning yangi o'chog'i paydo bo'ldi. Iroqda Saddam Husayn rejimi ag'darilgandan so'ng Suriyadagi Bashar Asad rejimiga qarshi kurashda AQSH hukumati "ISHID" ko'rinishidagi yangi terroristik guruhning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada AQSHning dunyodagi yetakchi davlat sifatidagi obro'siga putur yetdi.

D. Tramp ma'muriyatiga bir qator tashqi siyosiy muammolar meros qoldi. Ular, avvalo, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, Yaqin Sharq va Afg'onistondagi ahvol bilan bog'liq. Shuningdek, Xitoy



MULOHAZA YURITING

AQSHning 1999-yili Yugoslaviya, 1998- va 2003-yillari Iroq, 2011-yili Liviya va 2013-yili Suriyadagi siyosatiga qanday baho bergan bo'lar edingiz?

va Rossiya bilan munosabatlarda ham taranglik mavjud bo'lib, ular ham D. Trampdan diplomatik faollikni talab qildi.

2017-yil noyabrda D. Tramp Xitoyga qilgan rasmiy tashrifi davomida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning iliqlashuviga, juda katta miqdordagi savdo va investitsiya kelishuvlariga erishdi.

J. Bayden hukumati esa tashqi siyosatda **Pauell doktrinasiga** amal qilishini bildirdi. Unga ko'ra, AQSH: aniq milliy manfaatga; AQSHning o'zida va tashqarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga; real harbiy va iqtisodiy yordam ko'rsatadigan ittifoqchilarga ega bo'lmasdan faol harbiy harakatlarga qo'shilmasligi lozim.

Shundan kelib chiqib, 2021-yil 31-avgustda AQSH qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqdi. 2022-yili keng miqyosli Rossiya — Ukraina urushi boshlanishi bilan qat'iy ravishda Kiyev hukumatini qo'llab-quvvatladi. J. Bayden davrida AQSH Ukrainaga 66,5 milliard dollardan ko'proq harbiy yordam ko'rsatdi.

D. Tramp hokimiyatga kelishi bilan AQSH tashqi siyosatida keskin burilish yuz berdi. 2025-yil martda Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida AQSH — Rossiya va AQSH — Ukraina muzokaralari boshlanib, urushni to'xtatish uchun harakatlar qilindi.

15-may kuni Tramp, Zelenskiy va Putin delegatsiyalarining shu masala yuzasidan Istanbuldagi uchrashuvi ijobiy yakun topmadi. Tramp siyosatining yana bir yo'nalishi AQSH tarixidagi eng yirik deportatsiya dasturining amalga oshirilishi bilan bog'liq. Qisqa muddatda AQSHdan minglab nolegal migrantlar chiqarib yuborildi. Tramp hukumati aprel oyining boshlaridan importga 100% dan oshiq boj to'lovlarini kiritishi xalqaro savdo sohasida Kanada, Meksika, YI va boshqa davlatlarning noroziligini keltirib chiqardi, Xitoy bilan esa "savdo urushi"ga olib keldi. May oyida Jenevada bo'lib o'tgan muzokaralardan so'ng AQSH va Xitoy delegatsiyalari o'zaro tariflarni 90 kunga kamaytirishga kelishib oldi. Kelishuv doirasida Vashington Xitoy tovarlariga boj to'lovlarini 145% dan 30% ga, Pekin esa Amerika tovarlariga boj to'lovlarini 125% dan 10% ga pasaytirdi.

Tashqi siyosatda AQSH amalga oshirgan eng bahsli jarayon uning Eronga qarshi harakatlari bo'ldi. 2025-yil 13-iyun kuni Isroil Eronning yadroviy dasturi bilan bog'liq bir qator obyektlarini bombardimon qilishni boshladi. Isroilning bu harakatlari jahon jamoatchiligi tomonidan qoralandi. Eron ham javob sifatida Isroil hududini bombardimon qildi, ikki tomondan ham ko'plab tinch aholi vakillari halok bo'ldi. 22-iyun kuni mojaroga AQSH aralashib, Eronning Fordo va Natanze hududlaridagi uranni boyitish yerosti zavodlarini bombardimon qildi. AQSHning Eron hududini bombardimon qilishi barcha xalqaro normalarga xilof bo'lib, Rossiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni, O'mon kabi davlatlar



YODDA TUTING!

2001-yil 11-sentyabrda AQSHda terrorchilar tomonidan egallab olingan yo'lovchi samolyotlar Nyu Yorkdagi Jahon savdo markazi va Vashingtondagi Mudofaa vazirligi binolariga borib urildi. 3000 dan ortiq odam halok bo'ldi. Bu fojia AQSH hukmron doiralari siyosatini ko'p jihatdan o'zgartirdi.



TAHLIL QILING

1. 2007–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining butun dunyoga ta'siri haqida gapirib bering.
2. Respublikachilar va demokratlar partiyalari o'rtasidagi farq nimadan iboratligini aniqlang.
3. AQSH tashqi siyosatining asosiy prinsiplari nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.

tomonidan keskin qoralandi. O'zbekiston hukumati chuqur xavotir bildirib, muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil mayda AQSHga qilgan ilk rasmiy tashrifi chog'ida AQSH Prezidenti D. Tramp bilan o'tkazgan muzokaralari ikki tomonlama hamkorlik masalalariga bag'ishlandi. Sh. Mirziyoyev 2023-yil BMTning 78-sessiyasida qatnashish uchun AQSHga qilgan tashrifi davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining "C5+1" formatidagi birinchi sammitida ishtirok etdi va AQSH prezidenti Jozef Bayden bilan uchrasuvda davlatlararo va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalarini ko'rib chiqdilar.



ATAMALAR IZOHI

Retsessiya — bu iqtisodiyotda ishlab chiqarishning nisbatan mo'tadil, unchalik xavfli bo'lmagan pasayishini yoki iqtisodiy o'sish sur'atining sekinlashuvini anglatadi.

Iqtisodiy konyunktura — bu iqtisodiyotning pulning harakati, foiz stavkalari, valyuta kursi, ish haqi, shuningdek, ishlab chiqarish va iste'molning dinamikasi bilan xarakterlanuvchi holati, faollik darajasini bildiradi.

Makrotexnologiya — bu belgilangan parametrlar bo'yicha ma'lum mahsulot turini yaratish borasidagi barcha texnologik jarayonlar (ilmiy-texnik izlanishlar, konstruktorlik ishlari, ishlab chiqarishni tayyorlash, ishlab chiqarish, sotish va loyihani servis qo'llab-quvvatlash) majmuyi.

Pauell doktrinasi — "sovuq urush" tugashi munosabati bilan AQSH armiyasi shtab boshliqlari birlashgan qo'mitasi raisi general Pauell taklif qilgan harbiy doktrina.

JSST — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti.



MULOHAZA YURITING

Sizningcha, siyosiy arboblardan qaysi biri AQSHning Ikkinchi jahon urushidan keyingi tarixida eng muhim rol o'ynagan? Fikringizni asoslang.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Klintonning yangi iqtisodiy falsafasi" ("Clintonomics") AQSHda qaysi sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan edi?
2. B. Obama prezidentligining ikkinchi muddatida yuzaga kelgan qanday muammolar prezidentning obro'sini tushirib yubordi?
3. AQSH dunyoda o'zining hayotiy manfaatlarini himoya qilish uchun qanday vositalardan foydalanadi?

10-MAVZU

GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI



GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI 1990-YILLARDA

1980-yillar oxirida Germaniyaning ikki qismini birlashtirish bo'yicha muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlandi. 1990-yil 3-oktyabr kuni yagona Germaniya davlati tashkil topganligi e'lon qilindi.



Germaniya Federativ Respublikasi



ESLAB KO'RING!

Germaniya davlati qachon va nima sababdan ikki qismga bo'linib ketgan edi?

1990-yil Germaniya uchun alohida muhim yil bo'ldi.

Ikki Germaniyaning birlashishi GDRdagi iqtisodiy qo'loqlikni bartaraf qilish vazifasini keskin qo'ydi. GDRda bozor mexanizmlarini joriy qilish, asosan, GFR tomonidan moliyalashtirildi. 1994-yili bo'lib o'tgan saylovda xristian-demokratlar bilan liberallar koalitsiyasining pozitsiyasi yanada mustahkamlandi. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi (GSDP) yetakchi muxolifatchi partiya bo'lib qolaverdi. "Yashillar" partiyasi ham ancha katta kuchga aylandi.

1990-yillarning birinchi yarmida iqtisodiy taraqqiyot sur'ati ilgorigidek yuqori bo'lmasa-da, GFR dunyoning iqtisodiy yetakchi davlatlardan biri edi. Mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosat olib borildi. Fuqarolar o'zlarini yetarli darajada himoyalangan his qildilar. Ammo shu yillari ishsizlik darajasi juda yuqori bo'lib, bu Germaniya tarixida misli ko'rilmagan ko'rsatkichga yetdi.

Shunday sharoitda 1998-yilgi parlament saylovida GSDP g'olib chiqdi. **Gerxard Shryoder** hukumati iqtisodda va ijtimoiy sohada chuqur islohotlarni boshla-



BU QIZIQI

Germaniyada taksi avtomobillarining 80% i "Mercedes-Benz". Avtostradalarning 70% ida tezlik cheklanmagan. Dunyodagi eng katta hayvonot bog'i Berlinda joylashgan — Zoologischer Garten. Germaniyada har 1000 nafar aholiga 687 ta avtomobil to'g'ri keladi.

di: korxonalar uchun eng qulay sharoitlar yaratish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va natijada ishsizlikni kamaytirish islohotlarning maqsadi qilib belgilandi. Moliya tizimini qayta qurish, pensiya, tibbiy xizmat va ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilish boshlandi.

GERMANIYA XXI ASRDA

XXI asr boshlariga kelib, Germaniya ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotda sezilarli natijalarga erishdi. U Yevropada eng kuchli iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lib, YIM hajmi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egalladi.

2005-yil bir qator hududlarda bo'lib o'tgan saylovlarda hukmron partiya mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng kansler G. Shryoder navbatdan tashqari parlament saylovi o'tkazilishini e'lon qildi. 2005-yil sentyabrda bo'lib o'tgan saylovda birorta partiya mutlaq ustunlikka erisha olmadi.

Noyabrda bo'lib o'tgan bundestag (parlament) yig'ilishida **Angela Merkel** Germaniya Federativ Respublikasi kansleri etib saylandi. U birinchi ayol kansler, shuningdek, butun GFR tarixidagi eng yosh federal kansler bo'ldi. A. Merkel federativ tizimni isloh qilish, byurokreatiyaga qarshi kurashish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, energetika, byudjet, moliya va oila, mehnat bozori sohalaridagi siyosat, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish to'g'risidagi dasturini e'lon qildi.

Biroq 2007–2009-yillardagi inqiroz boshqalar qatori Germaniya iqtisodiga ham katta zarar yetkazdi. Faqat 2014-yilga kelibgina Germaniyaning iqtisodiy o'sish sur'ati inqirozdan oldingi ko'rsatkichga yetib oldi. 2014-yil Ukrainada yuz bergan hokimiyat almashinuvi ortidan Rossiyaning Qrimni qo'shib olishiga qarshi qat'iy pozitsiyani egalladi va boshqa Yevropa mamlakatlari qatori Rossiyaga qarshi sanksiyalar e'lon qildi.

2015-yil oxiriga kelib, A. Merkelning obro'si biroz pasaydi. Bunga Suriyadan va urush harakatlari davom etayotgan boshqa mamlakatlardan kelayotgan qochoqlar muammosi sabab bo'ldi. Bu



MULOHAZA YURITING

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan chuqur islohotlar mamlakatning yuksalishiga ta'sir ko'rsatadimi?

jarayonlar A. Merkel va u boshchilik qilayotgan Germaniya XDI (Xristian-demokratik ittifoqi) partiyasi obro'sining pasayishiga olib keldi. 2017-yil sentyabrda bo'lib o'tgan parlament saylovida A. Merkel boshchiligidagi koalitsiya 33% ovoz oldi. A. Merkel kansler lavozimini saqlab qoldi.

2021-yili bo'lib o'tgan parlament saylovida eng ko'p ovoz olgan Germaniya sotsial-demokratik partiyasi vakili **Olaf Shols** kansler lavozimini egalladi. O. Shols kanslerligi davri Rossiya — Ukraina urushiga to'g'ri keldi. Germaniya



BU QIZIQI

Nemis maktablarida eng yaxshi baho — 1, eng yomoni — 6. Germaniyada 300 xil non mavjud. Nemislarning 45% i sport bilan shug'ullanadi. Germaniyada Gitler familiyasi taqiqlangan.

Ukrainaga katta yordam ko'rsatib kelmoqda. Ammo urush boshlanishi bilan Germaniya iqtisodida bir qator muammolar paydo bo'ldi. Ular Rossiyaga qarshi sanksiyalar, "**Shimoliy oqim**" va "**Shimoliy oqim-2**" gaz o'tkazgich quvurlarining portlatilishi va buning oqibatida uglevodorod tanqisligi kabilar bilan bog'liq bo'ldi. Bu davrda choksiz quvurlar ishlab chiqaruvchi ikkita "Vallourec" zavodi, shinalar ishlab chiqaruvchi "Michelin" zavodlari, shuningdek, faqat 2023-yilning o'zini hisoblaganda kimyo sanoatiga tegishli bo'lgan 360 ta zavod yopildi. Avtomobil ishlab chiqaruvchi "Volkswagen" kompaniyasi ham bir qator zavodlarining yopilishini e'lon qildi. So'nggi yillarda Germaniya iqtisodiyoti retsessiya holatini boshdan kechirmoqda.

2025-yil fevralda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari parlament saylovida **Fridrix Mers** boshchiligidagi XDI va XSI (Xristian-sotsial ittifoqi) partiyalari bloki ko'p ovoz olib, g'olib chiqdi. Ammo bu hukumatni shakllantirish uchun yetarli emasdi. Shu sababli koalitsion hukumat tuzildi.

Germaniya O'zbekistonning Yldagi eng muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil Germaniya Federativ Respublikasiga tashrifi davomida kansler Angela Merkel bilan o'tkazgan muzokaralari yakunida iqtisodiyot, savdo, moliya, ta'lim, ilm-fan va innovatsiya sohalari bo'yicha hukumatlararo va idoralararo 9 ta hujjat imzolandi. Sh. Mirziyoyevning 2023-yil maydagi tashrifi doirasida esa hukumatlararo yana 16 ta hujjatga imzo chekildi. Ikki o'rtadagi ko'p tomonlama aloqalar jadal rivojlanmoqda.



ATAMALAR IZOHI

Kansler — bugungi kunda Germaniya va Avstriyada hukumat rahbari.


"Yashillar" partiyasi — atrof-muhitni muhofaza qilish va patsifistlar, shuningdek, atom energiyasidan foydalanishga qarshi harakat tarafdorlaridan tuzilgan partiya. Partiyaning asosiy maqsadi — ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishni uyg'unlashtirishdan iborat.

"Shimoliy oqim" — Rossiya va Germaniya o'rtasidagi magistral gaz quvurining Boltiq dengizi tubidan o'tgan va portlatish (diversiya)dan keyin ishlamay qolgan qismi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Germaniya birlashgandan keyin qanday ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga keldi?
2. G.Shryoder iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda qanday keskin islohotlarni amalga oshirdi?
3. A. Merkel davri Germaniya tarixida qanday iz qoldirdi?
4. O. Shols davrida Germaniya iqtisodida qanday muammolar paydo bo'ldi?
5. XXI asrning boshlarida Germaniyada immigratsiya muammosi keskinlashdi. Mamlakatga yuz minglab muhojirlar keldi. Immigrantlarni qabul qilish va joylashtirish katta moliyaviy xarajatlarni talab qildi. Agar siz Germaniya fuqarosi bo'lganingizda bu muammoga qanday munosabatda bo'lar edingiz?



11-MAVZU

BUYUK BRITANIYA

BUYUK BRITANIYA XX ASR OXIRIDA



ESLAB KO'RING!

Buyuk Britaniyada M. Tetcher davrida qanday o'zgarishlar amalga oshirilgan edi?

1990-yillarning birinchi yarmida Buyuk Britaniya iqtisodiyoti uzoq muddatli retsessiya davrini boshdan kechirdi. Inflyatsiya juda yuqorilab ketdi. Hukumat shaxtalarni modernizatsiya qilish, temiryo'l transporti va pochta xizmatini xususiy lashtirishga urinishi aholining qarshiligiga uchradi. Soliq tizimini isloh qilish harakati ham, 1990-yillarning ikkinchi yarmidan iqtisodiy o'sishning boshlanishi ham konservatorlar partiyasining obro'sini ko'tarmadi. J. Meyjor "tetcherizm"dan qat'iy uzoqlashib, o'zining mustaqil kursini ishlab chiqa olmadi. Shunday holatda Leyboristlar partiyasi 1997-yilgi parlament saylovlarida g'olib chiqdi. Partiya yetakchisi yosh **Entoni Bler** hukumat boshlig'i bo'ldi.

E. Bler kabineti faoliyatining asosiy yo'nalishi konstitutsion islohot bo'lib, Shotlandiya va Uelsga avtonomiya, Angliya mintaqalariga ko'proq mus-

1990-yili Buyuk Britaniya bosh vaziri etib saylangan **Jon Meyjor** siyosati M. Tetcher davridagi neokonservatizm kursini davom ettirishga, ayni paytda "tetcherizm"ning avtoritar boshqaruvga og'ish hollaridan va boshqa qoldiqlaridan asta-sekin voz kechishga qaratilgan edi. Ammo uning ko'plab va'dalari amalga oshmasdan qolib ketdi.



Buyuk Britaniya

taqillik berishni, saylov haqidagi qonunni isloh qilishni, yuqori palatani qayta tashkil etish hamda uning saylanishiga erishish va boshqa tadbirlarni ko'zda tutardi. Ammo bu islohotlarni amalga oshirish ancha og'ir kechdi. Faqat 1999-yilga kelib, dastlabki yutuqlarga erishildi. Shotlandiya va Uels milliy assambleyalariga saylovlar o'tkazildi. E. Bler hukumati tashqi siyosatdagi barcha masalalarda AQSHning eng yaqin hamkori bo'ldi.



BU QIZIQ!

Buyuk Britaniyada navbatda turuvchilik kasbi bor. Boshqa odam uchun navbatda turib bergan odamga 20 funt sterling haq to'lanadi. Londonda eng kam ish haqi o'rtacha soatiga 9 funtni tashkil qiladi.

BUYUK BRITANIYA XXI ASR BOSHLARIDA



O'YLAB KO'RING

Ijtimoiy soha, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlashni rivojlantirish, ishsizlikka barham berish uchun mamlakatda qanday sharoit mavjud bo'lishi lozim?

2001-yili bo'lib o'tgan parlament saylovida "yangi leyboristlar" yana g'alaba qozondi. XXI asr boshlarida Buyuk Britaniya G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlari singari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Mamlakatda favqulodda qulay holat vujudga keldi. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi yuqori, ishsizlik va inflyatsiya esa so'ngi o'n yillik ichida eng past bo'ldi. "Yangi leyboristlar" siyosatining ustuvor yo'nalishini ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan investitsiyani oshirish, umumiy, o'rta va oliy ta'limni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, ishsizlikka qarshi kurashish, sog'liqni saqlash sohasini yaxshilash kabilar tashkil qildi.

E. Bler hukumati ishsizlikni ancha qisqartirishga erishdi. Ammo sog'liqni saqlash sohasida hukumat "daromadli" shifoxonalarga xususiy investitsiyalar kiritishga ruxsat berdi, 100 ga yaqin shifoxona, gospital va boshqa tibbiyot markazlarini jismoniy shaxslarga sotish to'g'risida e'lon qildi. Sog'liqni saqlash, davlat xizmati, pensiyalar va umumiy ta'limga davlat xarajatlari qisqartirildi.

TASHQI SIYOSAT

Tashqi siyosatda Buyuk Britaniya 2003-yili Iroqqa qarshi koalitsiyada AQSHning asosiy ittifoqchisiga aylandi. Ammo ko'pchilik inglizlar bu urushga qarshi edi. E. Bler siyosatidan norozi bo'lgan tashqi ishlar vaziri **Robin Kuk** iste'foga chiqdi. Shunga qaramasdan, 2005-yili bo'lib o'tgan parlament saylovlarida kichik farq bilan leyborist E. Bler uchinchi muddatga bosh vazir etib saylandi.

2005-yil Londonda to'rtta terroristik akt amalga oshirildi, o'nlab kishilar halok bo'ldi. Javobgarlikni "Al-Qoida" terroristik tashkiloti o'z zimmasiga oldi. 2006-yilgi Isroil — Livan urushi yakunlangandan so'ng Isroilning yonini olgan Britaniya bosh vaziri E. Blerning muddatidan oldin iste'foga chiqishini



BU QIZIQ!

*London metrosi dunyodagi dastlabki metro hisoblanadi. Buyuk Britaniyaning tarixida eng uzoq hukmdor bo'lgan shaxs **Qirolicha Yelizaveta II** (1952–2022) bo'lib, u 70 yil davomida taxtda o'tirgan.*



MULOHAZA YURITING

Buyuk Britaniyaning 2003-yili Iroqqa qarshi urushdagi ishtirokiga ko'pchilik inglizlar qarshi chiqishi-ning sabablarini tushuntirib bering.

ekologik uy-joy qurish, hokimiyatning ochiqqligini va xalq oldida javobgarligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsion tadbirlar majmuyini amalga oshirish, xalqaro institutlarni isloh qilish kabi tashabbuslar bilan chiqdi va ular jamoatchilik tomonidan ijobiy qabul qilindi.

2008-yili boshlangan jahon moliyaviy inqirozi sharoitida G. Brauning bank tizimini xonavayron bo'lishdan saqlab qolishga, biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qat'iy harakatlari uning reytingini oshirdi. Shunga qaramasdan, 2010-yili bo'lib o'tgan parlament saylovida konservatorlar partiyasi g'alaba qozondi. Konservatorlar yetakchisi **Devid Kameron** Buyuk Britaniya bosh vaziri lavozimini egaladi. D. Kameron hukumatining davlat xarajatlarini tejash uchun qilgan bir qator harakatlari natijasida YIMga nisbatan byudjet tanqisligi qisqardi. Bu davrdagi iqtisodiy qiyinchiliklar davlatning butunligiga ham raxna sola boshladi. 2014-yil sentyabrda Shotlandiyada Buyuk Britaniyadan ajralib chiqish masalasida umumxalq referendumini o'tkazilib, unda 45% aholi mustaqillik uchun ovoz berdi.

2015-yili bo'lib o'tgan parlament saylovida konservatorlar partiyasi yana g'alaba qozondi. Saylovoldi kampaniyasi davrida bosh vazir D. Kameron agar konservatorlar g'alaba qozonsa, Buyuk Britaniyaning Yevroittifoqdan chiqishi masalasini ko'tarishga va ushbu masala bo'yicha referendum o'tkazishga va'da berdi. 2016-yilgi referendumda ishtirok etgan Buyuk Britaniya aholisining 50% dan oshig'i mamlakatning Yevropa Ittifoqidan chiqishi uchun ovoz berdi. Shundan so'ng bosh vazir D. Kameron iste'foga chiqdi. Buyuk Britaniya bosh vaziri lavozimini **Tereza Mey** egaladi.

T. Mey taklif qilgan **Buyuk Britaniyaning Yildan chiqishi (Breksit) shartlari** parlament quyi palatasida uch marta muhokama qilindi. Ammo parlament va hukumat o'rtasida kelishuvga erishilmadi va 2019-yil mayda T. Mey iste'foga chiqishini e'lon qildi. Iyul oyida konservatorlar yetakchisi **Boris Jonson** bosh vazir lavozimini egaladi. B. Jonsonning bosh vazirlik davri, asosan, pandemiyaga to'g'ri keldi. 2022-yili matbuotda B. Jonson pandemiyadagi taqiq qoidalarini buzib, hukumat a'zolari bilan

kechki ziyofat uyushtirganlikda ayblanib bosh vazir va konservatorlar partiyasi yetakchisi lavozimlaridan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

2022-yil oktyabrda Buyuk Britaniya qiroli Karl III **Rishi Sunakni** bosh vazir etib tayinladi. 2024-yilgi parlament saylovida esa Buyuk Britaniyaning bosh vaziri lavozimini Leyboristlar partiyasi yetakchisi **Kir Starmer** egaladi. U ham Rossiyaga qarshi sanksiyalarni kuchaytirish, Ukrainaga yordamni davom ettirish tarafdori. Ammo AQSHning yangi prezidenti D. Tramp olib borayotgan siyosat, xususan, Ukraina va Rossiya o'rtasidagi muzokaralarga Buyuk Britaniyani jalb qilmayotgani, AQSHga olib kirilayotgan Buyuk Britaniya tovarlariga bojning oshirilishi kabilar hukumatni noqulay ahvolga solib qo'ymoqda.



YODDA TUTING!

Buyuk Britaniya 2003-yili Iroqqa qarshi koalitsiyada ishtirok etdi.

2014-yil sentyabrda Shotlandiyada Buyuk Britaniyadan ajralib chiqish masalasida umumxalq referendumini o'tkazildi.

Buyuk Britaniya rasman 2020-yili YI a'zolidan chiqqan.

XX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya mustamlaka imperiyasi to'liq tugatildi. Ammo Buyuk Britaniya uncha osonlik bilan bo'lmasa-da, jahonda o'zining siyosiy va iqtisodiy mavqeyini saqlab kelmoqda. 2016-yil Yevropa Ittifoqidan chiqish uchun ovoz bergan ko'pchilik inglizlar ham buni mamlakat mustaqilligini qadrlashlari bilan izohladi. Nima bo'lganda ham, Buyuk Britaniya XXI asrda ham jahon hamjamiyatining muhim a'zolaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan, Buyuk Britaniya bilan o'zaro tenglikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga intilib kelmoqda. Shu maqsadda 2019-yil 31-oktyabrda O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi. Bitim keng qamrovli hujjat bo'lib, u amaldagi huquqiy asosni saqlash va tomonlar o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, sanoat, transport, qishloq xo'jaligi, energetika, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy, shuningdek, boshqa sohalardagi munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan.



ATAMALAR IZOHI

Proteksionizm — ichki bozorni ma'lum cheklovlar (import va eksport boj to'lovlari, subsidiyalar va boshqa tadbirlar) orqali chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan siyosat.

Breksit — (inglizcha **Brexit** — **Britain** (Britaniya) + **exit** (chiqish)); Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqiga a'zoligining to'xtatilishi, a'zolikdan chiqishi.

Taktika — bu ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan usul va vositalar yig'indisi.

Harbiy poligon — harbiy mashg'ulotlar yoki qurol va harbiy texnikani sinovdan o'tkazish uchun mo'ljallangan obyekt.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1990-yillar oxiridagi konservatorlar partiyasining mag'lubiyati sabablari nimada?
2. E. Bler kabineti faoliyatining asosiy yo'nalishi nimalardan iborat bo'ldi?
3. D. Kameron kabinetining iste'foga chiqishining sabablari nimada edi?
4. So'nggi davrda Buyuk Britaniyada hukumatning tez almashishi qanday sabablar bilan bog'liq?



TAHLIL QILING

Inglizlarning hozirgi kundalik hayoti, turmush tarzi to'g'risida ma'lumot yig'ing va ularning xarakterini ifodalovchi esse tayyorlang.



12-MAVZU

FRANSIYA

FRANSIYA XX ASR OXIRLARIDA

Fransiya sotsialistik partiyasi (FSP) yetakchisi Fransua Mitteran davrida iqtisodiy o'sish sur'ati juda past bo'ldi. 1993-yili ishlab chiqarish hajmi qisqardi. Ishsizlik mislsiz darajaga yetdi. Sotsialistlarning obro'si tushib ketdi. Sharqiy Yevropada kommunistik rejimlarning qulashi, SSSR va Yugoslaviyaning tarqalib ketishi, Rossiya hukumati tomonidan kommunistik g'oyaning rasman qoralanishi butun sotsialistik qadriyatlar tizimini obro'sizlantirdi.

1993-yili Milliy majlisga bo'lib o'tgan saylovda o'ng kuchlar parlamentda mutlaq ko'p o'ringa ega bo'ldi. So'l kuchlar bunday mag'lubiyatdan so'ng uzoq vaqt tanazzuldan chiqa olmadi. 1995-yilgi prezidentlik saylovida **Jak Shirak** g'olib chiqdi va ishsizlikka qarshi kurashish, jamiyatning boylar va qashshoqlarga bo'linishini bartaraf qilishni asosiy vazifa deb e'lon qildi. Tashqi siyosatda uning asosiy faoliyati Fransiya Yevropa Ittifoqining "yetakchisi" va butun dunyo uchun "erk mayog'i" rolini qaytarishga qaratildi. Yangi hukumat davlat byudjeti kamomadini kamaytirish, bandlikni ta'minlash rejasini e'lon qildi. 1996-yildan YIMning o'sish sur'ati, kapital kiritish va shaxsiy iste'mol hajmi oshdi.



Fransiya Respublikasi

POSTINDUSTRIAL JAMIYAT

1990-yillari Fransiyada postindustrial jamiyatning shakllanish jarayoni davom etdi. Ilmiy-texnik inqilobning shiddat bilan rivojlanishi Fransiyaning qiyofasini o'zgartirdi. Parij va boshqa yirik shaharlarda osmono'par binolar paydo bo'ldi. Butun mamlakatni avtomobil yo'llari va soatiga 250–300 km tezlik bilan yuradigan temiryo'llar tarmog'i qamrab oldi. XX asrning eng buyuk texnik yutuqlaridan biri — Angliya bilan hamkorlikda qurilgan La-Mansh bo'g'ozi ostidan o'tgan temiryo'l tunneli (Yevrotunnel) 1994-yil mayda tantanali ravishda ochildi.

Boshqa rivojlangan mamlakatlardagi singari Fransiyada ham elektronika, informatika va ular bilan bog'liq sanoat sohalari jadal taraqqiy etdi. Industrial jamiyatning ramzi bo'lgan sanoat sohalari — metallurgiya, ko'mir qazib chiqarish kabilar asta-sekin inqirozga yuz tutdi.



BU QIZIQ!

Yevrotunnel qurish g'oyasi 1802-yili taklif etilgan. Tunnel 1987–1994-yillarda qurildi. Uning qurilishida 13 ming ishchi va injener qatnashdi. Uzunligi — 50450 m. Endi Parijdan Londongacha 2 soat-u 15 daqiqada yetib borsa bo'ladi.

FRANSIYA XXI ASRDA

XX–XXI asrlar chegarasida Fransiya barcha muhim ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoriga kirdi. Ammo 2007–2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi Fransiya iqtisodiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2007-yili Fransiya prezidenti etib saylangan **Nikola Sarkozi** o'ng konservativ “Xalq harakati uchun ittifoq” partiyasining yetakchisi edi.

2012-yilgi saylovda Fransiya prezidenti lavozimiga saylangan FSP lideri **Fransua Olland** Fransiyaning Yldagi rolini yanada oshirish, Yevropa siyosatida yetakchi davlatlardan biri sifatidagi o'rnini saqlab qolish uchun harakat qildi. Ammo shu davrda Suriya va boshqa urush harakatlari bo'layotgan Sharq mamlakatlaridan kelayotgan migrantlar oqimi Fransiyadagi ijtimoiy holatni keskinlashedi. 2015-yil noyabrda Parijda sodir etilgan terroristik akt oqibatida yuzdan ortiq kishi halok bo'ldi, uch yuzdan ko'p odam yaralandi. Hukumat tomonidan barcha ehtiyot choralari ko'rilishiga qaramasdan, terroristik aktlar yana takrorlandi.

F. Olland Fransiya tarixidagi eng nufuzsiz prezident bo'lib qoldi. U 2017-yili bo'lib o'tgan prezidentlik sayloviga o'z nomzodini qo'ymadi va bu saylovda “Olg'a!” harakatining vakili **Emmanuel Makron** g'alaba qozondi. Ayni paytda bu saylov Fransiyada ham Germaniyadagi singari multikulturalizm siyosatining barbod bo'lganligini ko'rsatdi. Migrantlar sonining ko'payishi, terrorism xavfining kuchayishi sharoitida o'ng Milliy front partiyasining obro'si ortib bordi. Milliy front vakili **Marin Le Pen** ilk bor prezidentlik saylovida ikkinchi turga chiqib, qariyb 34% ovoz oldi.

E. Makron Germaniya bilan hamkorlikda YIni mustahkamlash, ayniqsa, Buyuk Britaniya uni tark etgandan so'ng tashkilotning obro'sini saqlab qolish tarafdori. U Rossiyaga qarshi sanksiyalarni kuchaytirish, Ukrainaga yordamni ko'paytirish masalalarida Yevropada yetakchilik qilishga urinmoqda. Hozirgi kunga kelib, fransuz jamiyatining muammolaridan biri immigrantlar masalasi bo'lib qolmoqda. Bugun immigrantlar va ularning avlodlari Fransiya aholisining 20,9% ga yaqinini tashkil



BU QIZIQ!

Nyu Yorkdagi Ozodlik haykalini fransuz haykaltaroshi Ogyust Bartoldi Parijda 9 yil davomida yaratgan. 1886-yili Fransiyaning ushbu sovg'asi AQSH prezidenti Grover Klivlend tomonidan rasman ochilgan.

qiladi, yaqin kelajakda bu ko'rsatkich 25% dan ortishi kutilmoqda. Mamlakatda 2200 tadan ortiq masjid faoliyat yuritadi. Fransiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, migratsiya bu ishchi kuchi, kvota va qonunlar masalasigina emas, balki chuqur ijtimoiy muammodir. Bu muammoning yechimi yaxshi o'ylangan migratsiya siyosati va immigrantlarni fransuz jamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalash bilan bog'liq murakkab jarayondir.

Mahalliy va immigrant aholi o'rtasidagi etnik va sivilizatsiyaviy farq, multikulturalizm siyosatining amalda barbod bo'lganligi bugungi fransuz jamiyatining eng dolzarb muammosi hisoblanadi. Ammo ushbu va mamlakatdagi boshqa ko'plab muammolarga qaramasdan, Fransiya hozirgi kunda ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan dunyoning yetakchi davlatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston — Fransiya munosabatlari har ikki tomon manfaatlariga xizmat qiladi. 2025-yil martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Fransiya tashrif buyurdi. Parij shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani qabul qildilar.



ATAMALAR IZOHI

Immigrant — bir davlatdan boshqasiga vaqtincha yoki doimiy yashash uchun ko'chuvchi shaxs.

Multikulturalizm — bu bitta mamlakatda va butun dunyoda madaniyatlar xilma-xilligini saqlab qolishga yo'naltirilgan siyosat hamda bu siyosatni asoslovchi nazariya va mafkura.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fransiyada postindustrial jamiyatning shakllanishi nimalarda namoyon bo'ldi?
2. 2010-yillar boshlarida qanday sabablar Fransiyada ijtimoiy holatni keskinlashtirdi?
3. Fransiyada immigrantlar muammosi jamiyatning strukturasi qanday o'zgarishlarga olib kelishi mumkin?
4. Fransiyada yuritilgan multikulturalizm siyosati o'zini oqladimi? Fikringizni izohlang.



TAHLIL QILING

Ommaviy axborot vositalari va internet ma'lumotlaridan foydalangan holda Fransiyaning hozirgi holatini tasvirlab bering.



13-MAVZU

ITALIYA

ITALIYA 1990-YILLARDA



ESLAB KO'RINGI

Yevropa iqtisodiy hamkorligini tuzish to'g'risida Rim shartnomasi qachon imzolangan edi?

Jamiyatning ijtimoiy strukturasi ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Jadal rivojlanayotgan xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar soni juda tez o'sib bordi.

Siyosiy hayotda beqarorlik va hukumatning tez-tez almashishi Italiyaning o'ziga xos an'anasiga aylandi. Italiyada davlat institutlarining chuqur inqirozi mafiya tizimlarining faoliyati bilan ham bog'liq edi. Hokimiyatning yuqori organlarida misli ko'rilmagan korrupsiya Italiya siyosiy mexanizmining o'ziga xos tomonlari bo'lib qoldi. Saylov bu yerda proporsional tizim bo'yicha o'tkazilardi. 1993-yilgi referendumda Italiya aholisi bunday saylov tizimidan voz kechish uchun ovoz berdi.



O'YLAB KO'RING

1990-yillar boshida Italiyada asosiy siyosiy partiyalar o'z obro'sini yo'qotishining sababi nimada?

XX asr 90-yillariga kelib, Italiyada postindustrial jamiyatning asoslari shakllandi. Keng miqyosda sanoat ishlab chiqarishining texnik bazasi va texnologiyasini yangilash jarayoni — ishlab chiqarishda kompyuter boshqaruv tizimini qo'llash, robotlardan keng foydalanish joriy qilindi. Eng asosiysi, bu jarayonning oldingi safida kichik xususiy korxonalar bordi.



Italiya



MULOHAZA YURITING

“Mafiya” va “korrupsiya” so‘zlari-ning ma’nosini tushuntiring. Nima uchun bu salbiy hodisalar Italiya-ning siyosiy va iqtisodiy hayotida keng tarqaldi? Davlat ularga qarshi qanday kurashadi?

1990-yillar boshlarida ichki siyosiy jarayonlarga an’anaviy partiyalarning ta’siri kamaydi. 1991-yili Italiya kommunistik partiyasi tarqalib ketdi. 1992-yil fevralda mamlakatda **“Halol qo‘llar”** kampaniyasi boshlanib, hokimiyatning yuqori qatlami va asosiy partiyalar rahbariyatida ommaviy korrupsiya holatlari aniqlandi. Pora olish bilan bog‘liq yangi siyosiy janjal avj oldi. Yirik tadbirkorlar, Xristian-demokratlar partiyasi (XDP) va Italiya sotsialistik partiyasi (ISP) yetakchilari, deputatlar va senatorlar, bir necha vazirlar tergovga tortildi. Italiya prezidenti **Francesko Kossiga** iste’foga chiqdi. Jami 20

ming kishi tergov ro‘yxatiga kiritildi. 1992-yil fevraldan boshlab ikki yil ichida poraxo‘rlikda ayblanib uch mingga yaqin kishi, jumladan, sobiq bosh vazirlar, parlament deputatlari, vazirlar qamoqqa olindi. Hokimiyatning oliy rahbariyati bilan mafiya o‘rtasidagi aloqani ochib tashlagan sud jarayoni butun jamiyatni hayratga soldi. 1994-yil martda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlari Qarshilik harakati to‘lqinida shakllangan tizimning qulaganligini namoyish qildi. Yangi, hali tanilmagan guruhlar: **“Olg‘a, Italiya!”**, **“Shimol ligasi”**, **“Milliy alyans”** — neofashistlar va o‘ng natsionalistlar birlashmasi oldingi maydonga chiqdi.

Hukumatni **“Shimol ligasi”** va **“Milliy alyans”** koalitsiyasi asosida **Silvio Berlusconi** shakllantirdi. Hukumat 1994-yil oxirigacha tura oldi, xolos. Korrupsiyaga qarshi kurash e‘lon qilgan S. Berlusconi o‘zi soliq qoidalarini buzganlikda ayblandi va iste’foga chiqdi. Italiyaning yangi hukumati partiyasizlardan tashkil qilindi.

1996-yildan hokimiyatda **Romano Prodi** boshchiligidagi so‘l markazchilar koalitsiyasi turdi. Biroq ijtimoiy ta‘minot tizimini o‘zgartirishga urinish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha koalitsiyada kelishmovchiliklar yuz berdi. Ayni paytda bir qator mafiya guruhlari boshliqlarining qamalishi jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Romano Prodi 1998-yili iste’foga chiqdi.

So‘l demokrat **Massimo D’Alema** bosh vazir lavozimini egalladi va shu paytgacha yuqori darajada saqlanib kelayotgan ishsizlikni qisqartirishni taklif qildi. 2000-yilgi mahalliy saylovlarda barcha shimoliy viloyatlarda o‘ng kuchlar g‘olib chiqdi. Ijtimoiy fikrga **“Halol qo‘llar”** operatsiyasi katta ta’sir ko‘rsatdi, katolik cherkov ham o‘nglarni qo‘llab-quvvatladi. M. D’Alema iste’foga chiqdi.

XX asrning oxirida Italiyaning ijtimoiy hayoti sezilarli o‘zgarishlar va qarama-qarshiliklarga boy bo‘ldi. Urushdan keyingi **“Italiya iqtisodiy mo‘jizasi”** deb atalgan iqtisodiy o‘sish aholining hayot tarzida, qadriyatlar va madaniyatida tub burilishlar yasadi. Ayni paytda mamlakat siyosiy beqarorlik, terrorizm, korrupsiya kabi illatlarga duch kelib, bu ijtimoiy noroziliklar va hukumatga ishonchsizlikning kuchayishiga olib keldi. Urushdan keyingi ellik yil ichida Italiyada 60 ta hukumat almashdi. Ommaviy madaniyatning ta’sirida ijtimoiy fikr o‘zgardi, dam olish va iste’molning yangi shakllari paydo bo‘ldi. Italiya industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tdi va bu xizmat ko‘rsatish va axborot texnologiyalari sohasining ustuvorligi bilan xarakterlandi. Mamlakat iqtisodiyoti moslashuvchan va raqobatbardosh bo‘ldi, ammo ayni paytda ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik kabi yangi muammolar kelib chiqdi.



TAHLIL QILING

Xaritadan foydalanib Italiya qaysi davlatlar bilan chegaradosh ekanligini daftaringizga yozing.

ITALIYA XXI ASRDA

Zamonaviy Italiya — yuqori darajada rivojlangan industrial mamlakat. U XXI asrning birinchi choragida taraqqiyotida sezilarli natijalarga erishdi. Inflyatsiya ancha pasaydi, ishsizlik kamaydi, yangi korxonalar soni tez o'sdi. Puxta o'ylangan yoshlar siyosati olib borilmoqda. Mamlakatda minglab kichik va o'rta biznes korxonalari yaratilgan bo'lib, ularning asosiy qismini yoshlarga qarashli firmalar tashkil qiladi. Ayni paytda Italiya yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan ortda qolmoqda. So'nggi o'n yil ichida Italiyada YIM o'sishi o'z beqarorligi bilan ajralib turdi. Bu faqatgina 2007–2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi bilan bog'liq bo'lmasdan, Italiya iqtisodining o'ziga xos tuzilishiga ham aloqador. YIM kichik bo'lsa-da, doimiy o'sish xarakteriga ega. Ammo davlatning qarzi ham juda katta, hozir u YIMga nisbatan 130% ni tashkil qiladi.

2014-yil fevraldan Italiya hukumatini boshqargan **Matteo Renzi** soliqlarni pasaytirish evaziga kamxarj italiyaliklarning daromadini keskin oshirish maqsadini e'lon qildi. U 2015-yildan ta'lim tizimini isloh qilishni ham boshladi.

2022-yil oktyabrda bo'lib o'tgan saylovlarda Yevropa Konservatorlari va reformistlari partiyasi vakili **Jorja Meloni** Italiya Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi etib saylandi. U Italiya tarixida shu lavozimni egallagan birinchi ayol bo'ldi. Rossiya — Ukraina urushi boshlanishi bilan J. Meloni Rossiyaga qarshi qat'iy pozitsiyani egalladi va Ukrainaga yordam ko'rsatib kelmoqda. Ayni paytda Italiya iqtisodida katta muammolar paydo bo'ldi. Masalan, YIMning yillik o'sishi 2022-yili 4,66% bo'lgan, 2024-yili esa bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 0,7% ni tashkil qildi. 2025-yili YIM o'sishi yanada pasayishi kutilmoqda.

Ayni paytda Italiya dunyoning yetakchi mamlakatlariga nisbatan texnologik qoloqlikni bartaraf etishga, o'z iqtisodining raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarini, iqtisodning noan'anaviy sohalari — bank faoliyati, turizm, sport va sog'liqni saqlash industriyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston bilan Italiya o'rtasidagi aloqalar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan. 2023-yil noyabrda Shavkat Mirziyoyevning Italiya Respublikasiga tashrifi davomida Italiya Prezidenti **Serjo Mattarella** va Bosh vaziri **Jorja Meloni** bilan samarali muzokaralar o'tkazildi. Ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida qo'shma deklaratsiya qabul qilindi.




ATAMALAR IZOHI

Neofashizm — bu 1920–1940-yillardagi fashistik tashkilotlarning g'oyaviy-siyosiy davomchisi bo'lgan o'ng radikal oqim.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Halol qo'llar" kampaniyasi Italiyada qanday natijalarga olib keldi?
2. XXI asr boshlarida Italiya iqtisodiy rivojlanishda qanday yutuqlarga erishdi?
3. Yangi asrda Italiyada qanday muammolar saqlanib qolmoqda?



“IROQ ERKINLIGI” OPERATSIYASI

2003-YIL 20-MART
SANASIDA AQSH O'Z
ITTIFOQCHILARI BILAN
SADDAM HUSAYN
REJIMINI AG'DARISH
MAQSADIDA IROQQA
BOSTIRIB KIRDI.

IV BOB



XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA OSIYO, AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI



RUANDADAGI GENOTSID

1994-YILDA RUANDADAGI
ETNIK GENOTSID
NATIJASIDA 500 MINGDAN
ORTIQ TUTSI XALQI
VAKILLARI VAFOT ETDI.



14-MAVZU

OSIYO, AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI SIYOSIY, IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI

MODERNIZATSIYANING MURAKKAB YO'LI

2025-yil iyun oyiga kelib, Yer yuzi aholisi soni 8,2 milliard kishidan ortib ketdi. Bu aholining 75% i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari-da yashaydi. Ammo xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha jahon YIMning taxminan 40% i ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlar aholisining 3/4 qismini kambag'allar, mehnatga layoqatli aholining 1/3 qismini esa ishsizlar tashkil qiladi. Hatto barqaror yuqori o'sish sur'atlarini namoyish qilayotgan Xitoy, Hindiston, Misr, Jazoir, Filippin kabi mamlakatlarda ham daromadning aholi jon boshiga miqdori rivojlangan mamlakatlardan ancha ortda qolmoqda. Hamma mamlakatlar ham YIMning aholi jon boshiga o'sishini ta'minlay olmadi. XX asr oxirida aholi jon boshiga daromadning o'sishi Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan 43 ta Afrika mamlakatining faqat 8 tasida, 16 ta arab mamlakatining faqat 2 tasida kuzatilgan, xolos.

Shuningdek, XX asr oxiriga kelib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida **modernizatsiya** muammolari chuqurlashib bordi. Bunda "sovuq urush"ning yakunlanganligi ham ma'lum rol o'ynadi. SSSRdan yordam olib turgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi mamlakatlar u tarqalib ketgandan so'ng og'ir sharoitga tushib qoldi. Biroq ittifoq tarkibidagi turkiy tilli respublikalar mustaqillikka erishdi. Til, madaniyat va tarixiy rishtalarga ega bo'lgan davlatlar endi xalqaro munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida harakat qila boshladi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti **Turgut O'zal** tashabbusi bilan Anqara shahrida Turkiy tilli davlatlarning birinchi samiti bo'lib o'tdi, unda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston,



ESLAB KO'RING!

"Afrika yili"da jahon tarixida nechta yangi Afrika davlati paydo bo'ldi?



YODDA TUTING!



Turkiy Davlatlar Tashkilotining asosiy maqsadi — qardosh davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va ko'p qirrali aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, energetika, turizm, transport, madaniy-gumanitar sohalarda o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat.

Turkmaniston, Turkiya, O'zbekiston davlatlari ishtirok etdi. Sammitda ishtirokchilar siyosiy va iqtisodiy birlik o'rnatilishini e'lon qilishdi.

2018-yil sentyabrda Cho'ponota shahrida o'tkazilgan sammitda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning faxriy mehmon sifatidagi ishtiroki bu borada tarixiy qadam bo'ldi. 2019-yilda O'zbekiston Naxichevan bitimini ratifikatsiya qilib, o'sha yili oktyabrda tuzilmaga rasmiy qo'shildi.



BU QIZIQ!

Bugungi kunda Turkiy Davlatlar Tashkilotiga a'zo mamlakatlar muhim inson kapitaliga ega. Ushbu davlatlar aholisi taxminan 150 millionni tashkil qiladi. Shu bilan birga, Turkiy Davlatlar Tashkiloti iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Turkiy Davlatlar Tashkilotiga a'zo mamlakatlar yillik o'sish sur'ati o'rtacha 6–9% ni tashkil etmoqda va Osiyo yalpi ichki mahsulotining 5,5% iga teng.



MULOHAZA YURITING

- SSSR parchalangandan keyin turkiy tilli davlatlar qanday imkoniyat va muammolarga duch kelgan edi?
- Nima uchun turkiy tilli davlatlarning birlashuvi hozirgi global muhitda muhim hisoblanadi?

IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ushbu va boshqa muammolarning sabablari turlicha bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko'pchilik, ayniqsa, Afrika mamlakatlari mustaqillikka erishgan davrda rivojlanish darajasining pastligi;
- aksariyat hollarda harbiy mojarolarga olib kelgan geosiyosiy omillar;
- mustaqillikka erishilgandan so'ng tanlangan taraqqiyot modeli;
- siyosiy tizimning barqaror emasligi (masalan, 1990-yildan beri Afrika mamlakatlarida 27 ta davlat to'ntarishi amalga oshirilgan bo'lib, shulardan 17 tasi 2020-yildan so'ng yuz berdi);
- rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining jahon bozoridagi konyunkturaga bog'liqligi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy qoloqligining ko'plab boshqa sabablari qatorida birinchi o'rinda Osiyo va Afrika mamlakatlarida XX asr oxirida kuzatilgan "**demografik portlash**"ni aytish mumkin. Tibbiyotning yutuqlari o'rtacha umr ko'rishning ikki barobarga o'sishini, bolalar o'limining pasayishini, ilgari yuz minglab kishilarning o'limiga sabab bo'lgan ko'plab yuqumli kasalliklarning bartaraf etilishini ta'minladi. Resurslar cheklangan holda aholining shiddat bilan o'sishi bu mamlakatlardagi ko'plab yechilmayotgan muammolarning manbayiga aylandi. Masalan, so'nggi yetmish yilda Afrika aholisi olti barobardan ko'proqqa o'sdi. Ya'ni Afrika aholisi 1955-yili 252 million kishi bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, 1,54 milliard kishini tashkil qildi. Bunday holatda mamlakat YIMining hozirgi o'sish darajasi uning aholi jon boshiga o'sishini ham ta'minlamaydi. Ko'plab Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida nisbatan yuqori iqtisodiy o'sish ortidan aholi yashash darajasining ham keskin yuksalishi yuz bermadi. YIMning o'sishi ushbu mamlakatlardagi modernizatsiya jara-yonlariga katta ijobiy ta'sir ko'rsatmadi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha **uchta guruhga** ajratish mumkin. **Birinchi guruhga** nisbatan past rivoj-

langan mamlakatlar: Tropik Afrika, Kambodja, Laos, Myanma, Nepal, Bangladesh, Afg'oniston; Lotin Amerikasida — Gaiti, Gonduras, Nikaragua va Boliviya kiradi. Ular uchun juda past o'sish sur'ati va hatto salbiy natijalar xarakterli jihat bo'lib, iqtisodiyot strukturasi agrar sohaning ustuvorligi, YIMning 2/3 qismini shu soha tashkil qilishi, uning samaradorlik darajasi pastligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari aksariyat hollarda o'z aholisi ehtiyojlarini ta'minlashga ham yetmaydi. Sanoat va transport sohalari yaxshi rivojlanmagan. Ularda yashash darajasi, ayniqsa, jahon bozorida qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxiga o'ta bog'liq. Keskin demografik holat ishsizlik darajasining yuqoriligiga olib keladi. 60% dan 90% gacha aholini yersiz, ya'ni yashash vositalaridan mutlaqo mahrum bo'lgan kambag'allar tashkil qiladi. Ularning ko'pchiligi rivojlangan mamlakatlarda mehnat qilishga intiladi.

Ikkinchi guruhga iqtisodiy o'sish darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlar: Misr, Jazoir, Tunis, Filippin, Kolumbiya, Peru va boshqalar kiradi. Ular nisbatan barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirgan, ularda qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda, sanoat, ichki va tashqi savdo ham yaxshi rivojlangan. Milliy burjuaziya mustahkam pozitsiyani egallagan. Bu mamlakatlarning iqtisodiyotida, ayniqsa, moliya sohasida davlat muhim rol o'ynaydi. Ammo ularning iqtisodiyoti texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada ortda qolmoqda.

Bu guruh davlatlari orasida Janubi-g'arbiy Osiyoning neft qazib chiqaruvchi mamlakatlari: Kuvayt, Bahrayn, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqalar ajralib turadi. Dastlab ularning ham ijtimoiy va iqtisodiy tizimi ancha qoloq edi. Ammo yirik neft va gaz zaxiralari topilgandan so'ng, 1980-yillarga kelib, ular iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga erishdi. Ular aholi daromadining darajasi bo'yicha dunyoda eng ilg'or mamlakatlar qatoriga kiradi. To'g'ri, agar XXI asr boshlariga kelib ham bu mamlakatlar iqtisodiyoti, asosan, xomashyo (neft va gaz)ga bog'liq bo'lgan bo'lsa, endi Arabiston yarimoroli mamlakatlarida bu muammo ham yangi texnologiyalarni rivojlantirish hisobiga yengib o'tilmoqda.

Uchinchi guruhni yangi industrial mamlakatlar deb ataluvchi: Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Gonkong, Malayziya, Tailand, Indoneziya, Filippin tashkil qiladi. Ular avvalboshdan kapitalistik rivojlanish yo'lini tanladi. Bu mamlakatlarda iqtisodiyotga xususiy, jumladan, chet el kapitalini jalb qilish, davlat va jamoat sektorini qisqartirish, iqtisodiyot va mehnat bozorini liberallashtirish sari yo'l tutildi. Ularda industrilashtirish qishloq xo'jaligi hisobiga amalga oshirildi. Bu mamlakatlarning iqtisodiy yutuqlariga qishloq xo'jaligidagi fermerlik tizimi ham katta hissa qo'shdi. Sanoat va ilmtalab ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi ularga jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlash, transmilliy korporatsiyalarni o'z bozoriga jalb qilish imkonini berdi. Mehnatsevarlik, barkamollikka intilish va qat'iy tartib kabi xitoy-konfutsiy sivilizatsiyasi an'analari bu mamlakatlarda jadal iqtisodiy o'sishning asosini tashkil qildi. Kapitalistik rivojlanish yo'li bu mamlakatlarda jamiyat ijtimoiy qatlamlashuvining o'sishiga olib kelgan bo'lsa-da, aholi yashash darajasi va daromadi, shuningdek, savodxonlik va ma'lumot darajasining sezilarli darajada o'sishi bu jarayonning ijtimoiy muhitga salbiy ta'sirini pasaytirdi.

Bu guruh mamlakatlari qatoriga Lotin Amerikasidagi Chili, Argentina, Urugvayni ham kiritish mumkin. Ular mavjud qiyinchiliklarni modernizatsiya orqali yengib o'tib, jadal o'sish sur'atlarini namoyish qilmoqda.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining rivojlanish istiqbollari murakkab va xilma-xil, ijobiy va salbiy tendensiyalar uyg'unlashib ketgan. Bu mintaqalardagi ko'plab mamlakatlar so'nggi o'n yilda sezilarli iqtisodiy o'sish va rivojlanishga erishdi. Ammo barqaror rivojlanish yo'lga tushib olish uchun ular kambag'allik va qashshoqlik, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik, iqlim o'zgarishi, siyosiy beqarorlik va korrupsiya kabi qator muammolarni yengib o'tishlari lozim bo'ladi.

Lotin Amerikasida bunday jiddiy ijtimoiy muammolarning mavjudligi (boylar va kambag'allar ta-baqalashuviga, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va h.k.), siyosiy beqarorlik, rivojlangan mamlakatlardan ortda qolish bu mamlakatlar oldida ulkan vazifalar turganligidan dalolat beradi. Ayrim davlatlar (masalan, Gaiti) hamon xalqaro yordamga muhtojligicha qolmoqda. Ayni paytda mintaqa davlatlari orasida Braziliya, Meksika, Argentina, Chili yirik iqtisodiyotga ega bo'lib, ular global miq-yosda muhim istiqbollarga ega. Ularni adolatli ravishda **yangi industrial mamlakatlar** qatoriga qo'shishmoqda.

Tropik Afrika mamlakatlarida modernizatsiya uchun sharoit o'ta noqulay edi. Mintaqaning tabiiy resurslari juda cheklangan. Deyarli barcha yirik konlar (oltin, olmos, platina va h.k.) Janubiy Afrika Respublikasi hududida joylashgan. Modernizatsiya arafasida ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlar mustamlakachilik munosabatlari darajasida, jamiyat strukturasi urug'-jamoachilik munosabatlari saqlanib qolgan. Mehnat resursi ancha ko'p, ammo juda yosh va ko'pchiligi eng oddiy kvalifikatsiyaga ham ega emas. Ichki siyosiy jarayonlar ham beqaror, etnik va diniy mojarolar va hatto fuqarolar urushlari ham doimiy hol bo'lib qolgan.



ATAMALAR IZOHI

Modernizatsiya (frans. *moderne* — eng yangi, zamonaviy) — jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy, axloqiy va boshqa asoslarini eng zamonaviy talablarga javob beradigan yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash, takomillashtirish orqali uzluksiz yangilash jarayonidir.

Paritet (lot. *paritas* — tenglik) — xarid qilish qobiliyati pariteti — bu turli mamlakatlar valyutalarining o'zaro nisbati bo'lib, ularning ma'lum tovar yoki xizmatga nisbatan sotib olish qobiliyatini hisobga oladi. Boshqacha aytganda, bu turli mamlakatlarda bir xil sonli valyutaga bir turdagi tovar va xizmatlarni sotib olish demakdir.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari modernizatsiyalash jarayonida qanday muammolarga duch kelmoqda?
2. Janubiy Osiyo mamlakatlari rivojlanishidagi o'ziga xos tomonlar nimalardan iborat?
3. Lotin Amerikasi mamlakatlari XX asr oxirlarida o'z oldida turgan qanday muammolarni hal qilish yo'llarini topa olmadi?



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Konseptual jadval asosida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari o'ziga xosliklarini tahlil eting.

15-MAVZU

XITOIY XALQ RESPUBLIKASI



XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING SIYOSIY RIVOJLANISHI

Jahon sotsialistik tizimi va SSSR tarqalib ketgandan so'ng Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) eng yirik sotsialistik davlat sifatida saqlanib qoldi. Bu yerda "Xitoyga xos" sotsializm qurish davom ettirildi. Hokimiyatni yagona Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) egallab turibdi.

XX asrning 80-yillarida islohotlar boshlanishiga qaramasdan, siyosiy sohada XKP sotsializm yo'lini qat'iy davom ettirdi. Ziyolilar, talabalar, ishchilar demokratik o'zgarishlarni, ko'ppartiyaviylikni talab qilib chiqa boshladi. 1989-yil Pekinning markaziy Tyananmen maydonidagi **talabalar namoyishi** g'ayriinqilobiy isyon deb baholandi va namoyishchilarga qarshi armiya qo'llanilib, 5 mingga yaqin odam halok bo'ldi. Minglab kishilar qamoqqa olinib, faollar otishga hukm qilindi.

1992-yili XKPning XIV syezdida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi bozor iqtisodiyotiga asoslangan sotsializm qurish sifatida belgilandi. 1997-yili Xitoy islohotlarining "otasi" **Den Syaopin** vafot etdi. Uning o'limi islohotlar kursida o'zgarishlarga olib kelmadi. XKPning yangi yetakchisi **Szyan Szemin** Xitoy jamiyatining barcha qatlamlariga qaratilgan kelishuvchanlik siyosatini olib bordi.

2003-yili XKPni **Xu Szintao** boshqardi. Uning davrida mamlakat konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish kursi qonunlashtirildi. Ijtimoiy ta'minot rejimini tashkil qilish, shaxsiy mulkni himoya qilish, inson huquqlarini kafolatlash va hurmat qilish to'g'risida o'zgartirishlar qabul qilindi, ayni paytda sotsializm g'oyasi asosiy qadriyat bo'lib qolaverdi.

2012-yili XKP bosh kotibi etib saylangan **Si Szinpin** 2013-yili Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Raisi lavozimini ham egalladi. U sotsializm g'oyalariga sodiqlik va Xitoy hayotida Kommunistik partiyaning yetakchilik rolini ta'kidladi. Si Szinpin partiya va davlat hayotida o'z mavqeyini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. 2018-yili asosiy qonunga Si Szinpin g'oyalari kiritildi, ungacha konstitutsiyada faqat **Mao Sze-**



ESLAB KO'RING!

Xitoyda "Buyuk milliy inqilob" qanday natijalar bilan yakunlandi?



O'YLAB KO'RING

Nima uchun Xitoyda 2016-yilgacha "bitta oila — bitta farzand" qoidasi amal qilgan? Javobingizni asoslang.



BU QIZIQ!

Xitoyda 60 yoshdan oshgan qarindoshlardan xabar olish majburiy-ligi qonun bilan belgilangan.

AQSHda butun XX asr davomida ishlatilgan sementga qaraganda Xitoydagi qurilishlarda atigi 3 yil ichida (2011-yildan 2013-yilgacha) ko'proq sement ishlatildi.

Xitoy internetga qaramlikni kasal-lik sifatida rasman tan olgan dunyo-dagi birinchi davlat hisoblanadi.

dun va Den Syaopin nomlari bor edi. Shuningdek, XXR Raisi lavozimini egallashga qo'yilgan 5 yildan ikki mud-datlik cheklov olib tashlandi.

Si Szinpin boshchiligidagi XKP va XXR rahbarlarini "Xitoy orzusi"ni amalga oshirish g'oyasi birlashtirib turibdi. "Xitoy orzusi" deganda eng umumiy ma'noda "xitoy millatini tiklash" yo'lida ikki qadam — XKPning yuz yilligi (2021-yil)da "o'rtacha farovonlik" darajasiga eri-shish, XXRning yuz yilligi (2049-yil)da esa jahonning ri-vojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olish tushuniladi.

IQTISODIY ISLOHOTLAR

1989-yili Tyananmen maydonidagi talabalar namoyishi shafqatsizlarcha bostirilgan-

dan so'ng Xitoyga qarshi ma'lum sanksiyalar e'lon qilinishiga qaramasdan, mamlakatda islohot-lar davom ettirildi. Ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Mao Szedun davridagi bir qator tadbirlardan voz kechishga to'g'ri keldi. Avvalo, jamoa xo'jaliklari tugatildi. Dehqonlar hosilning bir qismini erkin bozorda sotish imkoniyatiga ega bo'ldi, shaharlar va qishloqlarda kichik mahalliy korxonalarini tuzish rag'batlantirildi. "**Boy bo'lish — bu juda yaxshi**", — deya ta'kidladi Den Syaopin. U tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida Xitoyning qirg'oq bo'yidagi to'rtta viloyatini **maxsus iqtisodiy zona** deb e'lon qildi. Bu iqtisodiy zonalarda chet el investorlari uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Islohotlar tezda o'zining natijasini berdi. Iqtisodiy o'sish sur'ati yiliga 19–20% ni tashkil qildi. Ammo bunday jadal o'sish bir qator muammolarni ham keltirib chiqardi, inflyatsiya kuchaydi. 80-yil-lar oxiriga kelib, o'sish sur'ati 9–10% ga tushdi va hukumat tomonidan bu optimal sur'at sifatida qabul qilindi.

1997-yili XKP "**Davlat sektorini modernizatsiya qilish dasturi**"ni qabul qildi. Zarar keltirib ishlaydigan davlat banklari va korxonalaridan voz kechishga qaror qilindi. Islohotlarning muvaf-faqiyatli amalga oshirilishi natijasida XX asrning oxirgi yigirma yilida XXRning YIMi olti barobardan ko'proqqa o'sdi. XXR rahbariyati XXI asrning dastlabki yigirma yilidan ham o'ta samarali foydalan-di. Bu davr iqtisodiy, harbiy, tashqi siyosiy qudratni oshirish va jahonda sifat jihatidan yangi o'rinni egallash uchun "**strategik imkoniyatlar bosqichi**" sifatida qaraldi.

2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi davrida ham Xitoy iqtisodining o'sish sur'ati yuqoriligicha qol-di. 2010-yili YIM hajmi bo'yicha Yaponiyani quvib o'tib, jahonda yetakchi o'rinlarga ko'tarildi. Shu o'rinni Xitoy 2025-yilda ham saqlab qolmoqda. Ammo YIMning aholi jon boshiga taqsimoti bo'yicha Xitoy rivojlangan mamlakatlardan hali ancha ortda qolmoqda.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Xitoyda o'tkazilgan bozor islohotlarining asosiy yo'nalishlari va mazmuni haqida gapirib be-ring. Xitoyda bozor islohotlari muvaffaqiyatli amalga oshirishining sababi nimada?

IJTIMOY MUAMMOLAR

Iqtisodiy o'sishning muntazam yuqoriligiga qaramasdan, XXI asr boshlariga kelib, Xitoy bir qator jiddiy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarga duch keldi: boylar bilan kambag'allar daromadi o'rtasidagi farq keskin oshdi. Xitoyning eng dolzarb muammolari qatoriga aholining tez keksayib borishi va ishlab chiqarishning ekologiyaga yetkazayotgan zararini kiritish mumkin. Xitoyda uzoq yillar olib borilgan **"bitta oila — bitta farzand"** siyosati natijasida mamlakatda yoshlar soni keksa avlod soniga nisbatan kamayib ketdi. XXI asr boshlarida sanoatlash-tirish, urbanizatsiya va xalqaro savdo ta'siri ostida energiya sarfi yuqori bo'lgan og'ir sanoat keng miqyosda jadal rivojlandi. Oqibatda zaharli gazlar Xitoy shaharlarida juda og'ir ekologik sharoitni vujudga keltirdi. Qishloqlarda esa suvning ifloslanishi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu aholi sog'lig'idan tashqari milliy iqtisodiyotga ham katta zarar yetkazmoqda. Xitoy hukumati yaqin kelajakda ekologik holatni yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqqan. Ularda ekologik sof muhitni yaratish XXI asrning asosiy vazifasi sifatida qaraladi.



Xitoy Xalq Respublikasi

XXI asrda Xitoy duch kelgan muammolardan biri Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni (SHUAR) bilan bog'liq. **Shinjon** — bu Xitoyning shimoli-g'arbida joylashgan, dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan juda ulkan hudud. Iqlimi, geografik o'ziga xosligi, Xitoyning boshqa hududlariga qaraganda iqtisodiy qo'liqligi, shuningdek, infratuzilmaning rivojlanmaganligi sababli Shinjon yashash uchun qulay hudud hisoblanmaydi. Aholi, asosan, uyg'urlardan iborat bo'lib, ular soni barqaror o'sib bormoqda.

Ammo SHUARda yashovchi etnik guruhlar o'rtasidagi muvozanat davlatning tituli millati — **xanlar** foydasiga ortib bormoqda. Ularning salmog'i 2020-yili 40% ga yaqinni tashkil qilgan. Mintaqaga xan aholisini jalb qilish orqali Xitoy hukumati ish o'rni yaratishdan tortib, rayon umumiy aholisining hukumatga moyilligini kuchaytirishgacha bo'lgan ko'plab muammolarni hal etishni rejalashtirgan.

Xitoy hukumati buning sababini kambag'allik bilan bog'liq deb hisoblaydi. **"Islohotlar va ochiqlik"** siyosati boshlanishi bilan Xitoy kambag'allikka qarshi samarali kurash olib bormoqda. Ammo SHUARda inson huquqlarining buzilishi hollari, jumladan, uyg'urlarning lagerlarda majburiy mehnatga jalb qilinishi xalqaro jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Xitoy hukumati 2018-yili shunday "majburiy" lagerlar mavjudligini tan oldi va ularni **"kasbga o'rgatish va ishga joylashtirish markazlari"** deb atab, mintaqada ekstremizmga qarshi kurash uchun zaruriy choralar sifatida qarashini bildirdi.



BU QIZIQ!

Xitoyda oliy o'quv yurtiga imtihon topshirish jarayonida yoki o'qish vaqtida firibgarlik uchun 7 yilgacha qamoq jazosi beriladi.

Xitoyda korxonalar rahbarlari va boshqa mas'ul shaxslar firibgarlik uchun o'lim jazosiga hukm qilinishi mumkin.

TASHQI SIYOSAT



YODDA TUTING!

Gonkong (xit. Syangan) 1997-yilgacha Britaniya hududi bo'lgan. Makao (Aomen) 1999-yilgacha Portugaliya hududi edi. Hozir Gonkong va Makao Xitoyning **“bir mamlakat, ikki tizim”** tamoyili amal qiluvchi maxsus ma'muriy hududlari hisoblanadi. Tayvan masalasi bahsli bo'lib, oxirigacha yechimini topgani yo'q.

Xalqaro munosabatlardagi so'nggi o'n yildan ortiq davrni Xitoy tashqi siyosatidagi yangicha talqin va ochiqlik sifatida qarash mumkin. 2013-yili XXR Raisi Si Zinpin ikkita tashabbus bilan chiqdi: **Ipak yo'li** va **Dengiz Ipak yo'li XXI asr iqtisodiy kamarini yaratish**. Dastlab xalqlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va ular o'rtasida aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan bu megaloyihalar muvaffaqiyatli boshlanib, borgan sari dunyoning ko'plab mamlakatlarini jalb qildi. Xitoy bugun o'zining xalqaro munosabatlardagi iqtisodiy va siyosiy rolini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

2023-yil dekabrda bo'lib o'tgan yig'ilishda Si Zinpin Xitoy tashqi siyosati asosiga qo'shish lozim bo'lgan **o'nta fundamental yo'nalishni** belgilab berdi. Ularda global

dunyo tartibida Xitoyning rolini oshirish, davlatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, **“Bir makon, bir yo'l”** tashabbusini rivojlantirish, shuningdek, xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha hamkorlikdagi siyosatni ishlab chiqish zarurligi haqida aytiladi.

2024-yil oktyabrda XXRning 75 yilligi nishonlandi. Unda ichki va tashqi siyosatning yangi marra-lari belgilab olindi. Ularni amalga oshirish uchun XXI asrda Xitoy yetarli imkoniyatlarga ega.

2025-yili Xitoy sanoatida sifat o'zgarishlari ro'y berishi davom etdi, u dunyoda texnologik rivojlangan davlat maqomini egallashga dadillik bilan intilmoqda. Ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar Xitoyning jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlamoqda va butun dunyoda biznes yuritish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xitoy yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishda peshqadam mamlakatga aylanib, texnologik yutuqlari bilan dunyoni hayratda qoldirishda davom etmoqda. 2025-yilda XXR innovatsiyalarni rivojlantirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishib, nafaqat **“jahon fabrikasi”**, balki **ilg'or texnologiyalar markaziga** aylanmoqda. Bunday transformatsiyaga sanoatni modernizatsiya qilish va eng yangi texnologiyalarni integratsiyalashga qaratilgan **“Made in China – 2025”** (“Xitoyda ishlab chiqarilgan – 2025”) davlat strategiyasi asos bo'ldi. Xitoydagi innovatsiyalarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: 1) ishlab chiqarishga sun'iy intellekt (AI — artificial intelligence) va avtomatlashtirishni faol joriy qilish, bu esa samaradorlikni oshiradi

va xarajatlarni kamaytiradi; 2) narsalarning industrial interneti (IIoT — Industrial Internet of Things)-ni rivojlantirish. Bunday texnologiyalar allaqachon Xitoyning inson aralashuvisiz boshqarilayotgan “aqli fabrikalari”da qo'llaniladi; 3) xorijdan yarimo'tkazgichlarni yetkazib berish bo'yicha sanksiyalar va cheklovlarga qaramay, Xitoy o'zining yarimo'tkazgichlarini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda, 2025-yildan esa jahon elektronika bozorida o'z o'rnini mustahkamlay boshladi; 4) yangi infratuzilmani yaratish: “aqli shaharlar”, avtonom transport va boshqalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan 5G va bulutli texnologiyalarni qo'llash.

2025-yilda AQSH va Xitoy o'rtasidagi savdo urushi avj oldi. XXRdan kelayotgan barcha tovarlarga boj to'lovlari joriy etildi. Bunga javoban, Xitoy AQSHdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari importiga boj joriy qildi. 10-apreldan boshlab Xitoy tovarlarini AQSHga olib kirish uchun boj to'lovlari oshirildi. Xitoy hukumati esa AQSHdan import qilinadigan mahsulotlarga boj joriy qildi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoy munosabatlari yangi davrga, sifat jihatdan yangi bosqichga qadam qo'yimoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 320 million AQSH dollariga yetdi. Bugungi kunda O'zbekistonda xitoy kapitali ishtirokida 84 ta korxonada faoliyat yuritmoqda, 4 milliard dollardan ortiq qiymatdagi 22 ta qo'shma loyiha amalga oshirilmoqda. 2024-yil yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoyga tashrifi davomida XXR Raisi Si Szinpin bilan muzokara o'tkazib, imzolagan hujjatlar ikki tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.



ATAMALAR IZOHI

Urbanizatsiya — shaharlar soni ko'payib, ularda davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti jamlanishi bilan bog'liq tarixiy jarayon.




MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida XXRda amalga oshirilgan siyosiy o'zgarishlardan qanday maqsadlar ko'zlangan edi?
2. Xitoyda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
3. XXI asrda Xitoyda Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni bilan bog'liq qanday muammolar vujudga keldi?
4. XXI asrda Xitoy tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Xitoyning XX asr oxiri — XXI asrning birinchi choragidagi tashqi siyosati haqida ma'ruza tayyorlang. Bu davlatning xalqaro munosabatlardagi o'rni nima bilan belgilanadi?



16-MAVZU

YAPONIYA VA KOREYA

YAPONIYA XX ASR OXIRIDA



ESLAB KO'RING!

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyaning tezda tiklanishiga nima yordam berdi va yapon "iqtisodiy mo'jizasi"ning sabablari nimada? G'arbiy Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Italiya) bilan solishtirganda ushbu hodisaning qanday umumiy belgilari va o'ziga xos tomonlarini qayd etish mumkin?

XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya urushdan keyingi tiklanishdan jahonning iqtisodiy yetakchi davlatlaridan biriga aylanishgacha bo'lgan keskin o'zgarishlar yo'lini bosib o'tdi. Ammo XX asr oxiri – XXI asr boshlarida mamlakat iqtisodiy turg'unlik, demografik tushkunlik va global siyosatda o'zining yangi o'rnini izlash kabi yangi muammolarga duch keldi.

XX asrning 80-yillari Yaponiya iqtisodiyotining eng rivojlangan davri bo'ldi. Bu davrda Yaponiya YIMning o'sish sur'ati bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallab turdi. Yuqori texnologik sohalar — elektronika, avtomobilsozlik, robototexnika bo'yicha peshqadam davlatga aylanib, "Toyota", "Nissan", "Sony", "Panasonic" kabi kompaniyalar jahonda yetakchilik qildi. Ammo ayni paytda moliyaviy vasvasa avjiga chiqib, ko'chmas mulk va aksiyalar bozoridagi chayqovchilik 1990-yillardagi iqtisodiy inqirozga olib keldi:

- ko'chmas mulk va aksiyalar narxi keskin tushib ketdi;
- "muammoli qarzlarning ko'pligi bank sohasining inqiroziga sabab bo'ldi;
- iqtisodiy o'sish sur'ati pasayib, bu davr "yo'qotilgan o'n yillik" deb ataldi.

1996-yili hokimiyatga kelgan Yaponiya Liberal-demokratik partiyasi (LDP) yetakchisi **Ryutaro Xasimoto** inqirozga qarshi chora sifatida o'zining "**olti islohot**" dasturini e'lon qildi. Unda: 1) soliq; 2) ta'lim; 3) ijtimoiy ta'minot; 4) iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish; 5) ma'muriy boshqaruvning markazlashuv darajasini pasaytirish; 6) sanoat kompaniyalariga yer uchastkalari ajratish bo'yicha islohotlar ko'zda tutildi.

Shuningdek, R. Xasimoto yangi diplomatiya namoyish qilib, tashqi siyosatda "yevroosiyochilik" konsepsiyasini tatbiq etishga urindi. U Yaponiyada bir qator terroristik aktlarni amalga oshirgan "**Aum Sinrikyo**" sektasi faoliyatiga chek qo'yishdagi qat'iy harakatlari bilan ham tanildi.

Bu davrda Yaponiyaning asosiy eksporti chetga kapital chiqarish bo'lib qoldi. Chet davlatlarda joylashtirilgan investitsiyalar miqdori 1 trillion dollardan ortib ketdi. Inqirozga qaramasdan, Yapo-



niya mehnat unumdorligi bo'yicha ham G'arbiy Yevropa mamlakatlari-dan o'tib, AQSHga tenglashib bordi. 1990-yillari butun dunyoda ishlab chiqarilgan videoappaturalarning 90% i, sanoat robotlarining 2/3 qismi Yaponiya hissasiga to'g'ri kelardi. Ammo tashqi bozorga bog'liqlik 1997–1998-yillardagi “Osiyo inqirozi” paytida Yaponiya uchun katta qiyinchiliklar tug'dirdi.

XX asr oxirida Yaponiya ichki siyosatida LDP yetakchilikni saqlab qoldi. 2000-yil Yaponiya bosh vaziri **Keydzo Obuti** vafot etgandan so'ng bu lavozimni **Yosiro Mori** egalladi.

Yaponiya

YAPONIYA XXI ASRDA

XXI asrning birinchi choragida Yaponiya barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakat bo'lib qolmoqda. Ichki siyosatda, asosan, LDPning yetakchiligi saqlanib qoldi. 2001-yili Yaponiya bosh vaziri lavozimini egallagan **Dzyunitiro Koidzumi** tizimli islohotlarni amalga oshirib, 2003-yildan Yaponiya iqtisodining muttasil o'sishini, bank-moliya sohasining tiklanishini, davlat qarzlarning kamayishini ta'minladi.

2006–2007-yillari Yaponiya bosh vaziri bo'lgan **Sindzo Abe** 2012–2020-yillari yana hukumatni boshqardi. 2012-yili u pul-kredit sohasini kengaytirish, inflyatsiyani 2% gacha pasaytirish; iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, byudjet xarajatlarini keskin oshirish va eksportni rag'batlantirish; iqtisodiyotda strukturaviy islohotni amalga oshirish, ayrim sohalarda raqobatni kuchaytirish ko'zda tutilgan islohotlarni boshladi.

“**Abenomika**” nomini olgan bu islohotlar natijasida ishsizlik darajasi pasaydi, eksport ko'paydi, ammo iqtisodiy o'sish sur'ati pastligicha qoldi. Shuningdek, davlat qarzi ko'payib, YIMga nisbatan 250% ga yetdi.

Yaponiya YIMi 2024-yilga kelib, faqat 0,6% ga o'sib, 4,0 trillion dollarni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Yaponiya AQSH, Xitoy, Germaniyadan so'ng to'rtinchi o'rinni egallab turibdi.

XXI asrga kelib, Yaponiya bir qator muammolarga duch keldi. Bu, avvalo, demografik muammo. Tug'ilish darajasining pastligi tufayli mamlakat aholisi kamayib, keksa yoshdagilar soni ortib bormoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda “**Ayollar uchun ish o'rinlari**” (“**Womenomics**”) dasturi ishlab chiqilgan bo'lsa-da, jamiyatda ayollar o'rni past, rahbarlik lavozimlarida ularning hissasi hali 5% ni tashkil qiladi, xolos.

Keyingi muammo — **ekologiya**. Yaponiya o'zining ekologik muammolarga e'tibori va tozaligi bilan shuhrat qozongan, ammo bugunga kelib, bir qator ekologik muammolar paydo bo'ldi. Ular qatorida havo va suvning ifloslanishi, okeanda plastik qoldiqlarning ko'payishi, tayfun va boshqa tabiiy halokatlarini keltirish mumkin.

Yaponiya XXI asrda ham iqtisodiy innovatsiya, demografiya va global raqobat muammolari bilan kurashib kelmoqda. "Abenomika" iqtisodning qayta tiklanishiga yordam berdi, biroq keksalik, ishchi kuchining kamayishi, ekologik muammolar va tabiiy ofatlar xavfining kuchayishi, Xitoy va Rossiya bilan munosabatlardagi sovuqlik kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Yaponiya O'zbekiston uchun muhim va yaqin sherik bo'lib, bu mamlakat bilan munosabatlar O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ikki tomonlama hamkorlik barcha sohalarida izchil rivojlanmoqda. 2002-yilda munosabatlarimiz strategik sheriklik xarakteriga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabrda Yaponiyaga qilgan rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risidagi Qo'shma bayonot imzolanishi ko'p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga zamin yaratdi. Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga **Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA)** va **Yaponiya tashqi savdoni rivojlantirish tashkiloti (JETRO)** salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekistonda Yaponiya sarmoyasi ishtirokidagi jami 33 ta kompaniya mavjud bo'lsa, shundan 8 tasi 100% Yaponiya kapitali asosida faoliyat yuritmoqda. Yaponiyaning 15 ta transmilliy kompaniyasi vakolatxonalarini yurtimizda akkreditatsiyadan o'tgan. Mazkur kompaniyalar neft-gaz, neft-kimyo va kimyo tarmog'i, mashinasozlik va mashina-texnika ehtiyot qismlari, energetika jihozlari ishlab chiqarish, transport-logistika xizmatlari ko'rsatish, savdo operatsiyalari, turizm sohasiga ixtisoslashgan.

KOREYA YARIMOROLI

Ikkinchi jahon urushi oxirida Koreya yarimoroli ikkiga bo'lindi. 1948-yili janubda Koreya Respublikasi, shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi tashkil topdi. Shundan so'ng Janubiy va Shimoliy Koreya o'rtasida boshlangan fuqarolar urushi uch yil davom etdi va 1953-yil 27-iyulda sulh bilan yakunlandi. 1991-yil 17-sentyabrda ikkala Koreya davlati ham BMTga a'zo bo'ldi.

SHIMOLIY KOREYA

Shimoliy Koreya SSSR va Xitoy yordamiga tayanib, sotsializm qurish yo'lidan bordi. Mamlakatda shaxsga sig'inish va totalitar diktatura o'rnatildi. 1994-yilgacha mamlakatni **Kim Ir Sen** boshqardi. Uning vafotidan so'ng hokimiyat o'g'li **Kim Chen Ir** qo'lga o'tdi. Sotsialistik tuzum inqirozga yuz tutgandan so'ng SSSR va boshqa davlatlar yordamidan ayrilgan Shimoliy Koreya juda og'ir iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. 2011-yili Kim Chen Ir vafot etdi. Hokimiyatga o'g'li **Kim Chen In** keldi.

Og'ir iqtisodiy qiyinchiliklarga, G'arb davlatlarining sanksiyalariga qaramasdan, Xitoy va Rossiya yordamiga tayangan Shimoliy Koreya yadro quroliga ega bo'lgan qudratli armiyani barpo qildi.

JANUBIY KOREYA

Koreya Respublikasi G'arb davlatlari yordamiga tayangan holda rivojlandi. 1992-yilgi saylovlarda "Adolat" liberal-demokratik partiyasi yetakchisi **Kim Yen Samning** g'alaba qozonishi Janubiy Koreyada harbiy doiralarning uzoq yillik boshqaruviga barham berdi. Sobiq prezidentlar poraxo'rlikda ayblanib, sud tomonidan uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi.

1997-yil oxirida Osiyoning boshqa ko'plab mamlakatlari qatorida Janubiy Koreya ham chuqur moliyaviy-iqtisodiy inqirozga uchradi. Jahon valyuta fondi va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari Janubiy Koreyaga 50 milliard dollardan ortiq kredit ajratdi. Natijada jadal iqtisodiy rivojlanishga erishgan Janubiy Koreya qarzlarini juda tez to'liq to'ladi.

XXI asrga kelib, Janubiy Koreya dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirdi. U jadal rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. YIM 1962-yilgi 2,3 milliard dollardan 2023-yili 1,7 trillion dollarga o'sdi (dunyoda 13-o'rin), shu davrda YIM aholi jon boshiga 87 dollardan 48600 dollarga ko'tarildi. Janubiy Koreya ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, iste'mol elektronikasi va xotira chiplari, kemalar, avtomobil, to'qimachilik dastgohlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan o'rin egalladi.


Shou biznes sanoati Janubiy Koreyaga nafaqat turizmni, balki musiqa, kino va boshqa sohalarni ham rivojlantirishga katta yordam

berdi, bularning bari ulkan daromad olib keldi. Chet mamlakatlarda koreys kosmetikasi va taomlari keng tarqaldi. Ko'plab xalqlar dasturxonida tokpokki, chikin, pibimpap, mandu, samgyopsal, kimbap, sunde, kimchi kabi turli koreys taomlari paydo bo'ldi.

Shuningdek, koreys seriallarida milliy mahsulotlar va zamonaviy qiyofaning namoyish etilishi tomo-shabinlarni o'ziga jalb qiladi. Xususan, bosh qahramonlarning ko'rkam imiji e'tiborni tortadi va odamlarni aynan o'sha aktyorlar kabi kiyinishga, ularga taqlid qilishga undaydi.

Janubiy Koreya XXI asrning birinchi choragida raqobat o'ta kuchli bo'lgan dunyoda o'z o'rnini, erishilgan marralarini saqlab qolish va yanada yangi yutuqlarga erishish uchun tinimsiz intilmoqda.

1992-yili O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatganidan buyon ikki tomonlama aloqalar rivojlandi. Ayniqsa, 2019-yilda Koreya Respublikasi va O'zbekiston munosabatlari alohida strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda Janubiy Koreya kapitali ishtirokida 726 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. To'g'ridan to'g'ri jalb etilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 7,5 milliard AQSH dollaridan oshdi. Ta'lim, fan va madaniyat yo'nalishlarida ham aloqalar rivojlangan. 2025-yilga kelib, respublikamizda Koreya yetakchi oliygohlarining 4 ta filiali muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Janubiy Koreyada 11 mingdan ortiq o'zbekistonlik talaba ta'lim olmoqda.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1990-yillari Yaponiya iqtisodiyotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
2. Sindzo Abe islohotlari qanday muammolarning yechimiga qaratildi?
3. Shimoliy Koreyaning iqtisodiy ahvoli to'g'risida nimalarni gapirib bera olasiz?
4. Nima uchun Janubiy Koreyani "Osiyo yo'lbarzlari"dan biri deb atashadi?



17-MAVZU

JANUBI-SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI



ESLAB KO'RINGI

Janubi-sharqiy Osiyoda qaysi davlatlar Yaponiya modeli asosida rivojlanish yo'lini tanlagan?

VYETNAM

1991-yili bo'lib o'tgan Vyetnam Kommunistik partiyasining VII syezdi islohotlar kursini e'lon qildi. Syezd erkin tadbirkorlikka ruxsat berdi, dehqonlar yerga uzoq muddat egalik qilish huquqini oldi.

Bozor islohotlari natijasida barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlandi, XX asrning so'nggi yillarida bu ko'rsatkich yiliga 9% ni tashkil qildi. Chet el kapitali muvaffaqiyatli o'zlashtirildi, investitsiyalarning o'sishi kuzatildi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Vyetnamda chet el firmalari ishtirokida bir qator loyihalar amalga oshirildi. Iqtisodiy yutuqlar aholining yashash darajasini oshirish imkonini berdi. Bu esa ko'p millatli davlatda barqarorlik garovi bo'lib qoldi.

Vyetnamning iqtisodiy yutuqlari ham sezilarli. Hozir Vyetnam oziq-ovqat eksporti bo'yicha Osiyo mamlakatlari ichida birinchi, sholi eksporti bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egallab turibdi.

Janubi-sharqiy Osiyo (JSHO) mamlakatlariga rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo'lgan Vyetnam, Kambodja, Laos, Myanma, Tailand, Malayziya, Brunej, Sharqiy Timor, Indoneziya, Filippin va Singapur kiradi. Bu mamlakatlarda yarim milliarddan ortiq aholi yashaydi. Taraqqiyotning sotsialistik yo'lini tanlagan Vyetnam, Kambodja, Laos 1990-yillarda juda og'ir ahvolda qoldi. Sotsialistik yo'nalishdagi hukmron partiyalar hokimiyatda qolgan bo'lsa-da, ular jiddiy islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi.



Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari

KAMBODJA

Kambodjada hokimiyatni Oliy Milliy Kengashga berish to'g'risida 1991-yili oktyabrda yakunlangan Parij konferensiyasida qaror qilindi. BMTning Kambodjadagi Muvaqqat ma'muriyati tuzildi va umumiy saylovlarga tayyorgarlikni amalga oshirdi.

1999-yili Kambodja ASEANning teng huquqli a'zosi bo'ldi. XXI asr boshlarida Kambodja og'ir iqtisodiy holatda bo'lib, xalqaro yordam hisobiga kun kechirardi. Mamlakatda "tirik tovar" savdosi keng avj olgan bo'lib, ota-onalar bolalarini arzimgan pulga sotardi. XXI asr boshlarida ayrim ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Sog'liqni saqlash va ta'limga ajratilgan xarajatlar ko'paytirildi, mamlakatda qashshoqlik darajasini pasaytirish tadbirlari amalga oshirildi.

LAOS

Laosda 1991-yili konstitutsiya qabul qilindi. Parlament — **Milliy Assambleyaning** qonunchilik faoliyati kuchaydi.

XXI asr boshiga kelib, Laosga chet el kapitali qaytmoqda, inflyatsiya pasaydi, milliy valyuta — **kipaning** qiymati oshmoqda. Mamlakatda 1991-yili qabul qilingan konstitutsiyaga binoan, bir partiyali tizim hukmron bo'lishiga qaramasdan, demokratiya elementlari asta-sekin paydo bo'lmoqda.

2021-yili bo'lib o'tgan parlament saylovida mustaqil nomzodlar ham ishtirok etdi. Mamlakatdagi yagona siyosiy partiya — Laos Xalq demokratik partiyasi Milliy majlisda ko'pchilik o'rinlarni saqlab qoldi.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Taraqqiyotning sotsialistik yo'lini tanlagan Vyetnam, Kambodja, Laosda XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o'tkazilgan islohotlar mamlakat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatdi? Javobingizni aniq misollar bilan asoslang.

SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARI

1980–1990-yillar Sharqiy Osiyo mamlakatlarining barchasida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'ati kuzatildi. Bu ularga 1990-yillarning boshidayoq zamonaviy dunyoda jiddiy ta'sirga ega bo'lgan "**Yangi industrial mamlakatlar**" deb ataluvchi guruh qatoridan joy olish imkonini berdi.

MALAYZIYA

Malayziya shiddatli iqtisodiy rivojlanish tufayli korrupsiya va mamlakat shimolida mutaassiblarining faollashuvi bilan bog'liq ichki siyosiy inqirozni yengib o'tdi. 1995-yil aprelda bo'lgan saylovlarda doktor **Mahathir bin Muhammad** boshchiligidagi Malayziya birlashgan milliy partiyasi (MBMP) ishonchli g'alabani qo'lga kiritdi. 2022-yil noyabrda bo'lib o'tgan saylovda **Anvar Ibrohim** rahbarligidagi Xalq adolati partiyasi g'alaba qozondi.

1990-yillari Malayziyaning iqtisodiy o'sish sur'ati yuqori bo'lib, XXI asr boshlarida mamlakat nafaqat xomashyo, balki ko'plab sanoat mahsulotlarini ham eksport qildi.

Malayziyada rivojlanish dasturi ishlab chiqilib, unga binoan, 2020-yilga kelib, Malayziya industrial rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi ko'zda tutilgan edi. 2023-yili 6% dan yuqori o'sishga erishgan Malayziya YIMning umumiy hajmi bo'yicha dunyoda 31-o'rinni egalladi. Iqtisodiyotning asosiy sektorlaridan biri turizm bo'lib, undan keladigan daromad YIMning 15% dan ortig'ini tashkil qilmoqda.

INDONEZIYA RESPUBLIKASI

Indoneziya Respublikasi Janubi-sharqiy Osiyo va Okeaniyada joylashgan bo'lib, 17 mingtadan ko'proq oroldan iborat mamlakat. Eng yirik orollari qatoriga Yava, Sumatra, Kalimantan, Sulawesi orollari kiradi.

1990-yillardagi "Osiyo inqirozi" davrida iqtisodiy o'sish sur'ati pasayib ketdi. Bu aholining ommaviy noroziligini keltirib chiqardi. Mamlakatni 32 yil muttasil boshqargan prezident **Suxarto** iste'foga chiqdi. Shundan so'ng keng siyosiy o'zgarishlar boshlanib, partiyaviy tizim va saylov qonunchiligi liberallashtirildi, o'nlab yangi partiyalar tuzildi va ular Xalq vakillari kengashidagi o'rinlar uchun kurash boshladi. Ayni paytda 1999-yili Sharqiy Timorda referendum o'tkazilib, orol aholisi mustaqillik uchun ovoz berdi. Sharqiy Timorning suveren davlatga aylanish jarayoni BMT nazorati ostida 2002-yili yakunlandi.

XXI asr avvalida Indoneziyada boshlangan demokratik jarayonlar yangi siyosiy tizimlar paydo bo'lishiga olib keldi. 2004-yildan Indoneziyada to'g'ridan to'g'ri prezidentlik saylovi o'tkazilib, shu yili general **Susilo Bambang Yudoyono**, 2014-yili **Joko Widodo** prezident etib saylandi. 2019-yili J. Widodo ikkinchi muddatga qayta saylandi. J. Widodo davrida mamlakat iqtisodi yiliga o'rtacha 4% dan o'sdi, aholining daromadi ko'payib, ishsizlik, inflyatsiya, kambag'allik darajasi esa keskin pasaydi. 2024-yili bo'lib o'tgan saylovda **Prabovo Subianto** g'alaba qozondi.

Indoneziya agrar-industrial mamlakat hisoblanadi. Milliy raqobatbardoshlik ko'rsatkichi bo'yicha 2024-yili jahonda 27-o'rinni egalladi. U iqtisodiy jihatdan eng istiqbolli rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

FILIPPIN RESPUBLIKASI

Filippin Respublikasi Janubi-sharqiy Osiyodagi orol davlat. 1946-yil 4-iyul kuni o'z mustaqilligini e'lon qilgan. Poytaxti — **Manila**, eng yirik shahri — **Keson Siti**. Mamlakatda mahalliy xalqlardan tashqari hindlar va malayzialiklarning katta guruhi yashaydi. Filippin 350 yildan ortiq Ispaniya, 50 yilga yaqin AQSH mustamlakasi bo'lgani uchun uning madaniyatida Sharq va G'arb madaniy unsurlari aralashib ketgan. Aholining 7% ga yaqini musulmonlar, shuningdek, xristianlik, buddaviylik, hinduizm, konfutsiylik dinlari ham keng tarqalgan.

Filippin XXI asr boshlarida ham jadal iqtisodiy o'sishni davom ettirib, elektron va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi eng yirik mamlakatlardan biriga aylandi. 2016-yil mayda bo'lib o'tgan saylovda **Rodrigo Roa Duterte** g'olib chiqib, Filippin prezidenti bo'ldi. Uning davrida narkotik savdosi bilan shug'ullanuvchilarga qarshi kampaniya boshlanib, narkotik savdosida gumon qilingan bir necha ming kishining sudsiz o'ldirilishi jamoatchilikning noroziligiga sabab bo'ldi. R. Duterte narkotik savdosiga qarshi kurash jarayonida insoniylikka qarshi jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinib, 2025-yili martda Xalqaro jinoyat sudi tomonidan qamoqqa olindi.

2022-yilgi saylovda Filippin federal partiyasi yetakchisi **Ferdinand Romualdes Markos** prezident etib saylandi. Filippin iqtisodi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. YIMning yillik o'sishi o'rtacha 5–6% ni tashkil qilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi va qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan, ananas yetishtirish bo'yicha dunyoda 3-o'rinda. Ishsizlik darajasi ancha yuqori — 10% dan ortiqni tashkil qiladi.

SINGAPUR RESPUBLIKASI

JSHO mintaqasida XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida jadal modernizatsiyalashni amalga oshirgan Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong taraqqiyotning yuksak sur'atlarini ta'minlab, **“Osiyo yo'lbarzlari”**, **“Yangi industrial davlatlar”** deb atala boshlandi. Ularda aholining yashash darajasi keskin yaxshilandi.

Bu mamlakatlarda sanoatning kemasozlik, avtomobilsozlik, neftni qayta ishlash sohalari va yengil sanoat buyumlari ishlab chiqarish rivojlangan. Yuqori texnologiyalar joriy qilish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan hisoblanadi.

JSHO mamlakatlari orasida juda kichik davlat — Singapurning (maydoni 735,7 kv.km) yutuqlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Davlat ta'lim sohasiga katta mablag' sarfladi, asosiy o'qish tili deb ingliz tili tanlandi, qisqa muddatda yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishga erishildi. 1990-yillar oxiriga kelib, ishsizlik 3% gacha kamaydi, YIMning real o'sishi yiliga 8% ni tashkil qildi. Qisqa vaqt ichida Singapur tibbiyot anjomlari, aloqa apparaturalari, aviauskunalar, kompyuterlar ishlab chiqarishda dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan raqobatni vujudga keltirdi, neftni qayta ishlash bo'yicha dunyoning uchinchi markaziga, ikkinchi port shahriga, Nyu York va Londondan keyin uchinchi moliya markaziga aylandi.

O'zbekiston va Singapur orasidagi masofa garchand yaqin bo'lmasa-da, ikki davlat o'rtasida so'nggi yillarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar, turizm va boshqa sohalaridagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

O'tgan davrda O'zbekiston va Singapur munosabatlari sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilib, o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi istiqbollari ochildi. O'zaro ishonch asosidagi do'stona munosabatlar bugun izchil mustahkamlangan holda, ikki tomonlama hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Davlatlar o'rtasida savdo ayirboshlash sur'ati doimiy ravishda o'sib, 2017-yildagi 92,6 million dollardan 2022-yil 143 million dollarga yetdi. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil yanvar oyida Singapurga tashrifi ikki davlat munosabatlarini mustahkamlash bilan birga, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada yuqori darajaga ko'tardi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Vyetnamda 1991-yili boshlangan iqtisodiy islohotlar qanday natijalarga olib keldi?
2. XXI asrda Kambodja va Laosda qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?
3. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari rivojlanishning qanday darajasida turibdi?
4. JSHO mintaqasidagi “yangi industrial davlatlar”da sanoatning qaysi sohalari rivojlangan?



18-MAVZU

HINDISTON RESPUBLIKASI

HINDISTON 1990-YILLARDA



ESLAB KO'RINGI

Mahatma Gandhi va Indira Gandhi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

Bu davrda Hindistonning iqtisodiy ahvoli yomonlashdi: jahon iqtisodiyotida yuz bergan tushkunlik sababli iqtisodiy o'sish deyarli to'xtadi, inflyatsiya kuchaydi, ishsizlik darajasi ortdi. Mamlakatda turli etnik va diniy guruhlar o'rtasida ziddiyat, umumiy tanglik holati kuchayib bordi. Shunday holatda 1991-yili tamil terrorchisi tomonidan Hindiston bosh vaziri **Radjiv Gandhi** o'ldirildi.

Hokimiyatga kelgan **Narasimha Rao** hukumati bozor islohotlarining yangi bosqichini boshladi. Davlat sektori qisqartirilib, yirik korxonalar xususiylashtirildi. Iqtisodga davlatning aralashuvi yanada kamaytirildi. Bir qator favqulodda tadbirlar ham amalga oshirildi. Xususan, **rupiya** devalvatsiya qilindi, soliq islohoti o'tkazildi, davlatning valyuta zaxirasi to'ldirildi.

Islohotlar natijasida Hindiston ko'plab yutuqlarga erishdi. Shu davrda YIM hajmi bir necha barobar oshdi. Ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'ati ta'minlandi, neft qazib olish ko'paytirildi. Qishloq xo'jaligi ham muvaffaqiyatli rivojlandi. 1992-yildan g'alla eksport qilish boshlandi.

ZAMONAVIY HINDISTON

1998-yil martda bo'lib o'tgan parlament saylovida **Lok Sabha (Xalq partiyasi)** g'alaba qozonib, uning yetakchisi **Atal Bihari Vajpayi** bosh vazir lavozimini egalladi.

Ko'plab tabiiy qiyinchiliklarga, jumladan, mamlakat g'arbidagi qurg'oqchilikka qaramasdan, A. B. Vajpayi hukumati o'zining bir qator rejasi, jumladan, Kashmirdagi musulmon separatizmini kuchsizlantirish tadbirlarini amalga oshirdi.

2000-yili mamlakat shimoli-g'arbida uchta yangi shtat tashkil qilindi. Hukumat mamlakatning bu mintaqasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi, shu maqsadda birinchi marta maxsus vazirlik ta'sis etildi.

A. B. Vajpayi hukumati ovoz berishning yanada erkinligini, saylovoldi moliyaviy vositalarini sarflashdagi oshkoralikni ta'minlash maqsadida bir qator saylov islohotlarini amalga oshirdi.

Iqtisodiy sohada A. B. Vajpayi kabineti xo'jalik faoliyatiga hukumatning bevosita aralashuvini qisqartirish choralarini ko'rdi. U ko'plab sohalarda davlat monopoliyasini bekor qildi, tadbirkorlar va firmalar faoliyati ustidan nazoratni kamaytirdi, soliqlarni pasaytirdi. Hukumat barqaror iqtiso-



Hindiston Respublikasi



MULOHAZA YURITING

Hindistonda 300 ga yaqin siyosiy partiya bor. Partiyalar sonining ko'pligini qanday izohlash mumkin?

diy o'sishni, Hindiston sanoatining raqobatbardoshligini, kompyuter texnologiyalari, transport va aloqa rivojlanishini ta'minladi. Ammo iqtisodiyotning yanada liberallasuvi, ayniqsa, yoshlar orasida ishsizlikning o'sishiga, qashshoqlik muammosining keskinlashuviga olib keldi. Natijada 2004-yil mayda bo'lib o'tgan saylovlarda Hindiston milliy kongressi (HMK) so'llar bilan hamkorlikda g'olib chiqdi.

Hukumatni **Manmohan Singh** boshqardi. Yangi hukumat mayda ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga, ishsizlikni kamaytirishga, aholining kamdaromad qismini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilashga, qashshoqlikni kamaytirishga, inson manfaatlarini yo'lida iqtisodiy islohotlar o'tkazishga va'da berdi.

Hindiston XXI asrda dunyoning iqtisodiy liderlaridan biriga aylanishga da'vo qilayotgan mamlakat. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi e'lon qilgan ma'lumotga ko'ra, Hindiston YIM hajmi (xarid qobiliyati pariteti) bo'yicha 2023-yili dunyoda Xitoy va AQSHdan so'ng uchinchi o'ringa chiqdi. Hindiston hozirdanoq barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan sektorni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo'lidan bormoqda.

Bugunga kelib, Hindiston ko'plab yuqori texnologiya tovarlarini eksport qiladi. Masalan, yuqori sifatli kompyuter dasturlarini sotishdan 2024-yili 150 milliard dollardan ortiq foyda olingan bo'lsa, 2029-yilga kelib, bu ko'rsatkich 190 milliard dollarni tashkil qilishi aytilmoqda. Hindiston kompyuter dasturlarini yaratish sohasidagi yuqori malakali kadrlar soni bo'yicha dunyoda AQSHdan so'ng ikkinchi, ilmiy-texnik xodimlar soni bo'yicha esa uchinchi o'rinda turadi.

Umuman, yuqori texnologiyalar sohasidagi yutuqlar katta. 2020-yili Hindiston ilmiy tekshirish va tajriba-konstruktorlik sohasi bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatoriga kirmagan edi. 2024-yilga kelib, "**Nature Index**" va "**Global innovatsion indeks**"lar bo'yicha yuqori o'rinlarga ko'tarildi. Bangalor, Dehli, Chennai, Mumbai shaharlari dunyoning eng yirik yuzta ilmiy-texnologik klasterlari qatoridan o'rin oldi. Hindistonda tashkilotlar sun'iy intellekt,



YODDA TUTING!

Hindiston yadro quroliga ega bo'lgan kosmik davlat hisoblanadi.



Mumbai — qashshoqlar va boylar shahri

avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2026-yili mamlakatning raqamli transformatsiya va IT sohasini modernizatsiyalashga ajratgan mablag'i 85 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi.

Hindistonning ichki va tashqi siyosati shakllanishiga, XXI asrda uning iqtisodiy yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan hal qiluvchi omil mamlakatning demokratik yo'l-dan rivojlanishi bo'ldi. Unda hokimiyatning rahbar organlarida jamiyatning turli qatlamlari vakillari ishtiroki uchun imkoniyat yaratildi.

Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ancha yuqori sur'ati aholi katta qismining yashash sharoitini yaxshilash imkonini berdi. Bu hind jamiyati va davlati erishgan eng katta yutuq hisoblanadi.

Hindiston Respublikasi dunyoning eng jadal rivojlanayotgan iqtisodiy markazlaridan biriga aylandi. Ammo, umumiy ma'noda, Hindiston rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirmaydi. Zotan, ilg'or texnologiyalar, rivojlangan sanoat ulkan agrar mamlakatning juda kichik qismini egalaydi. Shuningdek, keng miqyosdagi ijtimoiy muammolar ham mamlakatning muntazam rivojlanishiga to'siq bo'lib turibdi. Ulardan eng asosiysi — **demografik muammo**. 2025-yilga kelib, aholi soni 1 milliard 460 million kishidan oshib ketdi. Mamlakatda 230 million qashshoq mavjud, aholining 22% dan ortig'i savodsiz, xalqining yashash darajasi bo'yicha Xitoydan ancha ortda qolyapti.

Hindiston ko'p etnosli, ko'p tilli, aholisi eng tez ko'payayotgan mamlakat bo'lgani uchun etnik muammolar doimiy saqlanib qolmoqda. Ular, xususan, Panjobda sikhlar, Assamda bengallar, Janubiy Hindistonda tamillar, shimoli-g'arbda Kashmir muammosi kabilardan iborat. Qashshoqlikni bartaraf qilish, ishsizlik darajasini pasaytirish va aholi yashash darajasini oshirish ham hamon davlat va jamiyatning eng dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. Ushbu qiyinchiliklarga qaramasdan, Hindiston demokratik rivojlanish yo'lidan jadal ketmoqda. Bu mamlakatning yangi davr da'vatlariga munosib javob berishi uchun kuchli asos hisoblanadi.

HINDISTON RIVOJLANISHIGA TO'SIQ BO'LAYOTGAN IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMOLAR

Ekin yerlarining kamligi	Qashshoqlik	Demografik muammo	Savodsizlik	Etnik muammolar	Diniy muammolar	Ishsizlik	Aholi yashash darajasining pastligi
--------------------------	-------------	-------------------	-------------	-----------------	-----------------	-----------	-------------------------------------

Internetdan foydalangan holda ushbu muammolarni aks ettiruvchi raqamlar, faktlarni keltiring va jadvalni to'ldiring.

TASHQI SIYOSAT

Tashqi siyosatda Hindistonning bosh maqsadi dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylanish. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish asosida davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirish, yadro quroliga va zamonaviy texnikaga ega bo'lgan kuchli armiyani yaratish shu maqsadga qaratilgan edi. Hindiston yadro quroliga ega bo'lgan kosmik davlat hisoblanadi. U G20, JST, Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasi, Birlashgan Millatlar Hamdo'stligi, Qo'shilmaslik harakati, BRIKS, SHHT kabi xalqaro tashkilotlarning a'zosi, BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lish uchun tinimsiz harakat qilib kelmoqda.

Hindiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo muhim o'rin egallaydi. Hindiston – Markaziy Osiyo dialogi doirasida tashqi ishlar vazirlarining bir nechta uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ularda Hindistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligiga alohida urg'u berildi.

XXI asrda ham Hindiston tashqi siyosati an'anaviy yo'nalishda davom etib kelmoqda. Bu siyosatning asosini jamiyatda demokratik qadriyatlar ustuvor bo'lgan sharoitda mamlakatning tashqi xavfsizligini himoya qilish kursi tashkil qilib, bu kurs jamiyatning katta qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.



ATAMALAR IZOHI

Devalvatsiya – bu qat'iy xalqaro valyutaga nisbatan milliy valyutaning rasmiy kursini pasaytirish.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. *Narasimha Rao hukumati amalga oshirgan islohotlar natijasida Hindiston 1990-yillari qanday yutuqlarga erishdi?*
2. *A. B. Vajpayi hukumati qanday muhim tadbirlarni amalga oshirdi?*
3. *Hindiston XXI asrda qanday yutuqlarga erishishni maqsad qilib rivojlanmoqda?*
4. *XXI asrda hind jamiyati oldida qanday dolzarb muammolar turibdi?*



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Quyidagi muammoli masalalardan birini tanlang va internet hamda OAVdan foydalangan holda qisqa ma'ruza tayyorlang.


1. *Qaysi omillar Hindiston XXI asrda katta rivojlanish istiqbollari egaligini ko'rsatadi?*
2. *Sizningcha, Hindiston qaysi sohalarda butun dunyo tan oladigan muvaffaqiyatlarga erishi shi mumkin?*
3. *Yaqin o'n yillikda modernizatsiya yo'lida Hindistonni qanday muammolar kutmoqda?*
4. *XXI asrda Hindiston tashqi siyosatining asosiy vektorlari nimalardan iborat?*



19-MAVZU

TURKIYA RESPUBLIKASI

Turkiya sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan. Mamlakatga dengizda dam olish, qadimgi madaniyat yodgorliklari bilan tanishish uchun har yili 40 milliondan ortiq sayyoh keladi. Istanbul turistlarning eng sevimli shaharlaridan biri bo'lib, o'z tarixi davomida **uchta** — **Rim, Vizantiya va Usmoniyar imperiyalarining poytaxti** bo'lgan. Dunyoning yetti mo'jizasidan ikkitasi — Efesdagi Artemida ibodatxonasi va Galikarnasdagi mavzoley, shuningdek, YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan butunjahon madaniy yodgorliklaridan 20 ga yaqini Turkiya hududida joylashgan. Turkiya qirg'oqbo'yi hududi uzunligi 7 ming km dan ortiq bo'lib, to'rtta — **Qora, Marmar, Egey va O'rtayer dengizlari** bilan chegaralangan.



Turkiya Respublikasi



ESLAB KO'RINGI

Turkiya tarixida Mustafu Kamol Otaturk xizmatlari nimalaridan iborat?

Turkiyaning demokratik taraqqiyot yo'li juda murakkab. So'nggi yuz yillik tarixi davomida bir nechta davlat to'ntarishi bo'lib, hokimiyatni harbiylar egallagan. 1991-yili bo'lib o'tgan saylovda parlamentga uchta partiya: "Ona vatan" partiyasi (OVP), Sotsial-demokratik partiya (SDP) va "To'g'ri yo'l" partiyasi (TYP) vakillari kirdi. Bosh vazir lavozimini OVP vakili **Sulaymon Demirel** egalladi. 1993-yili Turkiya prezidenti **Turgut O'zol** to'satdan vafot etgandan so'ng uning o'rniga S. Demirel saylandi. Hukumatni esa TYP yetakchisi **Tansu Chiller** boshqardi.

1990-YILLARDA SIYOSIY RIVOJLANISH

1995-yil oxirida navbatdan tashqari parlament saylovi bo'lib o'tdi. Saylov jamiyatda islom dinining ta'siri o'sganligini ko'rsatdi. Shakllangan koalitsion hukumatni avval T. Chiller, keyin esa **Najmiddin Erbakan** boshqardi. N. Erbakan "siyosiy islom"ning asoschisi, Turkiyaning hozirgi prezidenti **Rejep Tayyip Erdog'anning** ustozhi hisoblanadi.

Mamlakatda islomiy guruhlarining pozitsiyasi kuchayishda davom etdi, ular mahalliy hokimiyat organlarida borgan sari ko'p o'rinlarni egalladi, buning ustiga, hukumatni ham ularning vakili boshqardi. Bundan norozi bo'lgan armiya rahbariyati prezident Sulaymon Demirelni bir necha bor ogohlantirdi. Shunda N. Erbakan bosh vazir lavozimidan ozod etilib, o'rniga OVP yetakchisi **Mesut Yilmaz** tayinlandi.

2000-yili **Ahmed Nejdet Sezar** Turkiyaning yangi prezidenti etib saylandi. 1999-yili bo'lib o'tgan parlament saylovida Demokratik so'l partiya (DSP) g'alaba qozonib, uning yetakchisi **Byulent Ejevit** Turkiya bosh vaziri lavozimini egalladi. Mamlakatda islomiy guruhlariga nisbatan qat'iy pozitsiya saqlanib turdi. Turkiya prokuraturasi "Nurchilar" tashkilotini konstitutsiyaga xilof deb topdi. Bu tashkilot va "Hizbulloh" partiyasining turk filiali faoliyati taqiqlandi. Armiya bosh shtabi boshlig'i agar islomiy guruhlar hokimiyatga kelsa, harbiylar konstitutsiyani himoya qilishga tayyorligi to'g'risida yana bir bor ogohlantirdi.

XXI ASRDA SIYOSIY RIVOJLANISH

2002-yilgi parlament saylovida **R. Erdog'an** asos solgan konservativ islom yo'nalishidagi "Adolat va taraqqiyot" partiyasi (ATP) g'alaba qozondi. 2003-yil martda parlament R. Erdog'anni bosh vazir lavozimiga tasdiqladi. 2007-yili o'ta millatchi "Ergenekon" yashirin tashkilotining faoliyati bilan bog'liq tergov va qamoqqa olishlar boshlandi. Turkiya sudi uch nafar iste'fodagi generalni davlat to'ntarishini amalga oshirishga urinishda aybdor deb topdi va 20 yildan qamoq jazosiga hukm qildi. Bu tashkilot qatnashchilari R. Erdog'an hukumatini ag'darib tashlashni maqsad qilib qo'ygan edi.

2012-yil sentyabrda "Adolat va taraqqiyot" partiyasi (ATP)ning syezdida Turkiya bosh vaziri R. Erdog'uning partiyasi barcha musulmonlar uchun namunaga aylangani haqida bayonot berdi. Syezdda R. Erdog'an bu hukmron konservativ islomiy partiyaning yetakchisi etib qayta saylandi.

2014-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida R. Erdog'an Turkiya Respublikasi prezidenti etib saylandi. Bu Turkiyada prezident bevosita xalq tomonidan saylangan birinchi saylov edi. Ilgari prezident parlament tomonidan saylangan. Referendumda aholi prezidentning xalq tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanishi uchun ovoz bergandan so'ng 2012-yili bu haqda qonun qabul qilingan edi.

Saylovdan so'ng bosh vazir lavozimini **Ahmet Dovuto'g'li** egalladi. Ammo keyingi yili bo'lib o'tgan parlament saylovida ATP hukmron partiya maqomidan mahrum bo'ldi. Buning sabablaridan biri Turkiyada demokratiya rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan S. Demirel paytidagi erkinlik holati salbiy tomonga o'zgarganligi bo'ldi.

2016-yili Turkiya harbiylari navbatdagi harbiy to'ntarishni amalga oshirishga urinib ko'rdi. Bir qator harbiy qismlar Anqara, Istanbul, Marmaris, Ko'nya va Malatya shaharlarida strategik muhim obyektlarni o'z nazoratiga olishga urindi. Istanbul shahridagi prezident qarorgohini F-16 samolyotlari bombardimon qildi. Ayni paytda isyonchilar Istanbul va mamlakat poytaxti Anqara shaharlaridagi xalqaro aeroportlarni o'z nazoratiga oldi. R. Erdog'an isyonchilar egallashga ulgurmagan telekanal orqali xalqqa murojaat qildi. Aholi prezidentni qo'llab shaharlarda namoyishga chiqdi. To'ntarishga urinish jahon jamoatchiligi tomonidan ham qoralandi.



Anqara shahri

Turkiya hukumati isyonni tashkil qilishda AQSHda yashayotgan muxolifatchi **Fatxulloh Gulenni** aybladi va AQSH hukumatidan uni Turkiyaga ekstraditsiya qilishni talab etdi. Isyon bostirildi va mamlakatda favqulodda holat e'lon qilinib, u 2018-yilgacha davom etdi. 2017-yili referendum o'tkazilib, prezident vakolatlari kuchaytirildi, bosh vazir lavozimi bekor qilindi. 2018-yilgi muddatidan oldin o'tkazilgan prezidentlik saylovida R. Erdog'an yana g'olib chiqdi.



BU QIZIQ!

Turkiyaning Istanbul shahri ikki qit'a — Yevropa va Osiyoda joylashgan dunyodagi yagona shahar.

IQTISODIY RIVOJLANISH

Turkiyada iqtisodiy islohotlar 1990-yillarda ham davom ettirildi. YIMning yillik o'sishi ancha yuqori bo'lib, 1990-yillar oxirida eksportning asosiy qismini sanoat tovarlari tashkil qildi. Yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi juda ko'plab xususiy korxonalar paydo bo'ldi. Turkiya jahon bozoriga raqobatbardosh

mahsulot yetkazib beruvchi yuqori darajada rivojlangan mamlakatga aylandi. XX asr oxiriga kelib, Turkiyaning asosiy sanoat tovarlari Yevropa mamlakatlarining shunday tovarlari bilan bemaolol raqobatlasha olardi.

XXI asrning birinchi choragi Turkiya iqtisodiy rivojlanishi uchun murakkab davr bo'ldi. R. Erdog'an moliya vazirining makroiqtisodiy siyosatini qo'llab-quvvatladi. Natijada 2002–2012-yillari YIMning real o'sishi 64% ni, aholi jon boshiga o'sishi esa 43% ni tashkil qildi. 2008-yili Turkiya Xalqaro valyuta fondi (XVF) bilan yangi qarz to'g'risidagi shartnomani rad etdi va 2013-yili XVF oldidagi barcha qarzlarni uzdi.

Turkiyadagi moliyaviy beqarorlikka bir necha muhim omillar sabab bo'ldi. Xususan, liraning qadrsizlanishi, Suriyadagi urush, migrantlar muammosi va g'arb davlatlari bilan munosabatlardagi qarama-qarshiliklar iqtisodiy ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2023-yil oxiridan boshlab hukumat inflyatsiyaga qarshi kurashishga va bozorlarga bo'lgan ishonchni tiklashga harakat qilmoqda. Markaziy bank foiz stavkalarini oshirish va xorijiy sarmoyani jalb qilish bo'yicha islohotlar olib bormoqda.

Turkiya O'zbekistonning strategik hamkorlaridan biri. O'zaro munosabatlar tarixi uzoq davrga borib taqaladi. O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasida savdo va investitsiya aloqalari jadal rivojlanib boryapti. 2017-yildan so'ng ikki tomonlama savdo hajmi 2,5 barobarga, qo'shma shirkatlar soni 5 karraga ortgan. Turkiyadan O'zbekistonga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa 70 barobarga ko'paygan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Turkiya prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan, 2024-yil 6-iyun kuni rasmiy tashrif bilan bu mamlakatda bo'lganini O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, turizm, transport, logistika, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish yo'lida o'ta muhim tarixiy voqea sifatida baholash mumkin.



ATAMALAR IZOHI

Ekstraditsiya — xalqaro huquqda jinoyat sodir qilgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki unga nisbatan chiqarilgan sud hukmini ijro etish uchun bir davlatdan ikkinchi davlatga berish.

Makroiqtisodiyot — bu mamlakat miqyosida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1990-yillar oxiri – 2000-yillardagi Turkiya siyosiy jarayonlarining o'ziga xos tomoni nimalardan iborat?
2. R. Erdog'anning islohotlari Turkiyaning rivojlanishida qanday o'rin tutgan?
3. Turkiyaning iqtisodiy rivojlanishiga qanday omillar sabab bo'lgan?



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

XXI asrning birinchi choragida Turkiyaning iqtisodiy rivojlanishi to'g'risida ma'ruza tayyorlang.



20-MAVZU

ERON ISLOM RESPUBLIKASI

ERON XX ASR OXIRLARIDA



ESLAB KO'RINGI

Eron tarixida "Oq inqilob" qanday natijalar bilan yakunlandi?

roli va o'rnini hamda shu siyosatning mohiyati va mazmunini o'zgartirdi, natijada butun Yaqin Sharqda keskin yangilanishlar yuz bermoqda.

Erondagi inqilob Misr, Tunis, Falastin, Livan, Suriya, Iroq, Yaman va musulmon dunyosining boshqa mamlakatlaridagi islomiy partiyalarni ruhlantirib yubordi. Ammo bu partiyalar har doim ham aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi va ulardan bir qismi o'z maqsadlariga erishish yo'lida zo'ravonlik va terrorni tanladi.

1990-yillar boshlarida Eronning iqtisodi ham barqarorlashib, YIMning jadal o'sishiga olib keldi. Islom radikalizmi ham biroz susaydi. Eron jahon sport va madaniyat maydoniga qaytdi. 1999-yili Eronning "Osmon bolalari" filmi "Oskar" mukofotiga tavsiya qilindi. Mamlakatda musiqa, televideniye, internet-kafelarga ruxsat berildi. Ayollar ham faol ijtimoiy hayotga qaytdi.

1997-yili islohotchilik qarashlarini qo'llab-quvvatlovchi **Muhammad Hotamiy** prezident etib saylandi. U Eronda demokratik va tolerant jamiyat qurishga qaratilgan islohotlarning boshlanganligini, shuningdek, G'arb mamlakatlari bilan munosabatda ijobiy o'zgarishlar bo'lishini e'lon qildi.

1979 -yilgi inqilob tarixda birinchi marta Eron Islom Respublikasida islomiy boshqaruvni umumdemokratik institutlar bilan birlashtirdi. Inqilobgacha AQSH, Isroil va umuman, G'arbning ittifoqchisi bo'lgan Eron inqilob tufayli ularning asosiy dushmanlaridan biriga aylandi. Inqilob Eronning jahon va mintaqa siyosatidagi



Eron Islom Respublikasi

ZAMONAVIY ERON

2001-yil 11-sentyabr kuni Nyu Yorkda amalga oshirilgan terroristik aktdan so'ng AQSH Eronni "**xalqaro terrorizmning sherigi**" deb atadi. Bu tamg'adan qutulish uchun Eron ancha ishlarni amalga oshirdi. "Hizbulloh" rahbarlari Erondan chiqarib yuborildi, Sudan, Liviya, Bosniyadagi eronlik diniy maslahatchilar chaqirib olindi. Ammo shunga qaramasdan, AQSH Eronni yashirin ravishda yadro quroli yaratish ustida ish olib borayotganlikda aybladi. 2002-yili prezident J. Bush Eronni "**yovuzlik tayanchi**" mamlakatlari qatoriga qo'shib, terrorizmni moliyalashtirishda aybladi. AQSH Eronni xalqaro izolyatsiya qilishga harakat qildi. Ammo bu harakat Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya tomonidan ma'qullanmadi hamda Eronga harbiy texnika yetkazib berayotgan va atom elektrostansiyasini qurayotgan Rossiyaning qarshiligiga uchradi.

2005-yili ultrakonservator **Mahmud Ahmadinejodning** prezidentlikka saylanishi Eronda islohotlarning borishini, mamlakatning jahon hamjamiyatiga qaytishini biroz susaytirdi. U o'zidan oldingi prezidentlarning bir qator liberal islohotlarini to'xtatib qo'ydi, tashqi siyosatda ham konservativ qarashlarga amal qildi. M. Ahmadinejod J. Bush ma'muriyatini keskin tanqid qildi, Eronning arab mamlakatlari va Rossiya bilan hamkorligini kuchaytirish tarafdori bo'ldi.

Eron 2009-yili Semnondagi kosmodromdan "Safir-2" raketasi yordamida o'zining "**Umid**" nomli sun'iy yo'ldoshini fazoga chiqarib, koinotni o'zlashtirayotgan davlatlar qatoridan o'rin egalladi.

2013-yil iyulda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida **Hasan Ruhoniyning** g'alaba qozonishi Eronda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlarni ifoda etdi. Eronning jahon hamjamiyatiga to'laqonli integratsiyalashuviga to'siq bo'lib turgan yadroviy dasturi ham o'n yildan oshiq davom etgan muzokaralardan so'ng, 2015-yil iyulda Eron bilan oltita davlat (AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) vakillari tomonidan imzolangan kelishuv orqali hal qilindi. Ammo 2018-yili AQSH shartnomadan chiqishi bilan u amalda o'z kuchini yo'qotdi.

2021-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida Eronning siyosiy va diniy arboblardan biri **Ibrohim Raisiy** g'alaba qozondi. Yangi prezident o'z nutqida hukumat Eronga qarshi sanksiyalarni bekor qilish uchun harakat qilishini, ammo boshqa davlatlarning Eronga ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'ymasligini e'lon qildi. I. Raisiy ultrakonservativ siyosiy qanotga mansub bo'lib, G'arb bilan munosabatda qat'iy bo'lish tarafdori edi. I. Raisiy 2024-yilda aviahalokat oqibatida halok bo'ldi.

2024-yil iyulda bo'lib o'tgan saylovda **Mas'ud Pazishkiyon** Eron prezidenti etib saylandi. M. Pazishkiyon islohotchi prezident Muhammad Hotamiy hukumatida sog'liqni saqlash vaziri bo'lib ishlagan. U AQSH bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, ayollar erkinligi tarafdori ekanligini bildirdi. U Rossiya bilan ham yaxshi munosabatlarni saqlab qolmoqda, 2024-yili Eron BRIKSga a'zo bo'ldi.

Eronda ta'lim va fan rivojlangan, urbanizatsiya darajasi 75% ga yaqinlashmoqda, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot hamda ta'lim tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Tehron universiteti dunyoning 400 ta eng



YODDA TUTINGI

1997-yili Eronda islohotchilik qarashlarini qo'llab quvvatlovchi **M. Hotamiy** prezident etib saylandi.

1999-yilda Eronning "**Osmon bolalari**" filmi "**Oskar**" mukofotiga nomzod etib ko'rsatilgan.

2002-yili prezident J. Bush Eronni "**yovuzlik tayanchi**" mamlakatlari qatoriga qo'shib, terrorizmni moliyalashtirishda aybladi.

yaxshi universiteti, Amirkabir Texnologiya universiteti va Sharif texnologiya universiteti 500 ta eng yaxshi universitet qatoriga kiradi. Qizlarning ta'lim olishi uchun ham keng imkoniyatlar mavjud. Agar 1978-yili maktabni bitiruvchi qizlarning faqat 2,9% igina oliy o'quv yurtiga kirgan bo'lsa, 2016-yili bu ko'rsatkich 65,5% ni tashkil qildi. Eron yoshlar mamlakati, aholisining yarmini 30 yoshdan kichik bo'lganlar tashkil qiladi. Eronning zamonaviy muammolari ichida eng dolzarblari ishsizlik va inflyatsiya darajasining yuqoriligi bo'lib kelmoqda. Yoshlar o'rtasida ishsizlik 2018-yili 30% ga yetdi.

Ayni paytda Eron bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, suv ta'minotidagi inqiroz iqtisodiyotning barcha sohalariga ta'sir qilmoqda. Hozir Eron mavjud suv zaxirasining 90% idan qishloq xo'jaligida foydalanadi. Bu boshqa sohalar, xususan, elektr energiyasi taqchilligini keltirib chiqardi. Mamlakat YIMi ham 2022-yilgi 554,8 milliard dollardan 2024-yili 403 milliard dollarga tushib ketdi. Aholining xarid qobiliyati bir yilda 28% ga pasaydi.

Islom inqilobi g'oyalari bugungi kungacha faqat Eronninggina emas, balki butun mintaqaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. So'nggi yillarda Eron aholisi hayotida va mamlakat siyosiy tizimida yuz bergan muhim o'zgarishlarga qaramasdan, ko'plab, xususan, iqtisodiy qiyinchiliklar, siyosiy va hatto diniy da'vatlar, so'z va yig'ilishlar erkinligi cheklanganligi kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Ayni paytda Eron mintaq va jahon siyosatida muhim o'rin egallab turibdi, uning mintaqaviy va xalqaro munosabatlarga ta'siri ham saqlanib qolmoqda.

Eron bilan Isroil o'rtasidagi harbiy-siyosiy qarama-qarshilik 1979-yilgi Eron inqilobidan so'ng boshlangan edi. Eronda hokimiyatga kelgan teokratik rejim Isroilni davlat sifatida tan olmadi, uni arablar yerlarini bosib olganlikda aybladi. Inqilobdan so'ng eronlik yahudiylarning yetakchilari qatl qilindi, yahudiylarning mulklarini musodara qilish boshlandi. 70% eronlik yahudiylar mamlakatni tark etdi. Shu davrdan amalda Eron va Isroil o'rtasidagi qarama-qarshilik boshlandi. Eron Isroilga qarshi kurashayotgan Livandagi "Hizbulloh" hamda G'azo sektoridagi "Hamis" tashkilotlarini qo'llab-quvvatladı. 1990-yillarda Eron bu tashkilotlarga yordamni yanada kuchaytirdi. Isroil 2006–2007-yillardan beri yaxshi qurollangan "Hizbulloh" va "Hamis" guruhlariga qarshi kurashib kelmoqda.

2025-yil iyunda Isroil va Eron o'rtasida harbiy to'qnashuv boshlandi. Eronning yadroviy dasturi, ballistik raketalar ishlab chiqarishi va yahudiy davlatiga qarshi turgan tashkilotlarni qo'llab-quvvatlashi tufayli Isroil uni o'zining mavjudligiga xavf deb qabul qildi. Eron AQSH bilan o'zining yadroviy dasturi to'g'risida muzokaralar olib borayotgan bir paytda Isroil qurolli kuchlari 2025-yil 13-iyun kuni Eron hududini bombardimon qilishni boshladi, fizik-yadrochi olimlardan 14 kishi, harbiy qo'mondonlik tarkibidan ko'plab kishilar o'ldirildi. Eron ham javob sifatida Isroil hududini bombardimon qildi. 22-iyun kuni mojaroga AQSH qo'shilib, samolyotdan bomba tashladi va Eronning yadroviy dasturiga kirgan uchta yerosti zavodini portlatib yubordi. 23-iyun kuni Eron Qatardagi AQSHning harbiy bazasiga havo hujumi uyushtirdi. 24-iyun kuni har ikki tomon ham urush harakatlarini to'xtatdi. Jahon jamoatchiligi va ko'plab yetakchi davlatlar rahbarlari Isroil va AQSHning harakatlarini xalqaro normalarni qo'pol ravishda buzish va bosqinchilik sifatida qoraladi.

Eron O'zbekistonning mustaqilligini 1991-yil noyabr oyida tan oldi. O'zbekiston Eron uchun mintaqadagi muhim, o'z so'ziga ega davlat sifatida tan olingan. 1993-yil oktyabr oyida Eron prezidenti **Ali Akbar Rafsanjoni** O'zbekistonga tashrif buyurdi.



BU QIZIQ!

*Erondagi **Dashti Lut cho'li** dunyodagi eng issiq hududlardan biri. Bu yerda 2005-yili havo harorati 70,7 darajaga ko'tarilgan.*

Eron teokratik davlat hisoblanadi.

Eron hududining deyarli yarmi cho'ldan iborat.

Ikki davlat o'rtasida bo'lgan tashriflar, imzolangan shartnomalar o'zaro aloqalarning huquqiy asosini yaratdi.

2023-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Eronga rasmiy tashrifi doirasida bo'lib o'tgan oliy darajadagi muzokaralar yakunida o'zaro hamkorlikning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan hukumatlararo va idoralararo hujjatlarning salmoqli to'plami imzolandi. Shuningdek, ikki tomonlama sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, mamlakatlar hududlari o'rtasida aloqalarni faollashtirish, ilm-fan, ta'lim, texnologiya va innovatsiyalar sohalarida sheriklikni kengaytirish, shu bilan birga, turizm, madaniy-gumanitar yo'nalishlardagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga harakat qilinmoqda.



ATAMALAR IZOHI

Tolerantlik — bu o'zgacha dunyoqarash, hayot tarzi, xulq-atvor, axloq va urf-odatlariga nisbatan sabr-bardoshli bo'lish.

Ultrakonservator — bu keskin konservativ qarashlarga ega bo'lgan mutaassib kishi.

Izolyatsiya — xalqaro hamjamiyatdan ajratib qo'yish, yakkalash.

Teokratiya (yun. *theos* — xudo va *kratiya*, hokimiyat) — davlat boshqaruv shakli, bunda davlat (odatda, monarxiya davlati) boshlig'i bir vaqtning o'zida diniy boshliq ham hisoblanadi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Prezident M. Hotamiy qanday demokratik o'zgarishlarni e'lon qildi?
2. 2001-yil 11-sentyabrdan so'ng Eron bilan AQSH o'rtasidagi munosabatlarda muammolarning kuchayishiga nimalar sabab bo'ldi?
3. M. Ahmadinejodning ultrakonservativ siyosati Eron jamiyatida qanday muammolarni keltirib chiqardi?
4. Zamonaviy Eronning yutuqlari va muammolari haqida so'zlab bering.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

1. Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida to'g'risida taqdimot tayyorlang.
2. Eron dunyodagi eng yirik neft ishlab chiqaruvchi davlatlardan biri hisoblanadi. O'zingizni jurnalist deb tasavvur eting. OAV ma'lumotlaridan foydalanib Eronning neft va gaz sanoati, bu sohadagi muammolar va istiqbollari to'g'risida gazetaga maqola tayyorlang.



21-MAVZU

POKISTON VA AFG'ONISTON

POKISTON



ESLAB KO'RING!

Pokiston tarixida 1977-yilda qanday voqea sodir bo'lgan?

1990-yillari Pokiston Islom Respublikasida qizg'in siyosiy jarayonlar va hokimiyatning yuqori pog'onasida korrupsiya bilan bog'liq mojarolar davom etdi. **Benazir Bhutto** hukumati iste'foga chiqarilgandan so'ng, 1990-yili o'tkazilgan saylovlarda g'olib chiqqan Musulmon ligasi partiyasining rahbari **Navoz Sharif** hokimiyatni boshqardi. Ammo 1993-yili prezident **G'ulom Is'hoqxon** yangi huku-

matni ham korrupsiya va qarindosh-urug'chilikda ayblab, iste'foga chiqardi. Shu yili bo'lib o'tgan saylovda g'olib chiqqan B. Bhutto yana bosh vazir lavozimini egalladi. Ammo 1996-yili prezident **Sardor Faruq Ahmadxon Leg'oriy** Milliy Assambleyani tarqatib yubordi va B. Bhutto hukumatini yana iste'foga jo'natdi. O'tkazilgan parlament saylovlarida Pokiston xalq partiyasi (PXP) qaqshatqich mag'lubiyatga uchradi.

1999-yil kuzda Pokistonda yana harbiy to'ntarish amalga oshirilib, hokimiyatga general **Parvez Musharraf** boshchiligidagi harbiy qo'mondonlik keldi. 2001-yil 11-sentyabrda Nyu Yorkda yuz bergan terroristik aktdan so'ng Pokiston terrorizmga qarshi AQSH boshchiligidagi tuzilgan koalitsiyaga qo'shildi. Biroq ko'plab pokistonliklar nazarida AQSH terroristlarga emas, musulmonlarga qarshi kurashga kirishdi. AQSH bilan yaqinlashish kursini tanlagan P. Musharrafga qarshi suiqasdlar uyushtirildi. U jinoyatlarda terrorchilarni aybladi va mamlakatni ulardan tozalashga va'da berdi. 2003–2005-yillari Pokiston armiyasi AQSH yordamida qo'shni Afg'oniston hududida harbiy operatsiyalar olib bordi. Islomiy guruhlar esa P. Musharrafni dushman deb e'lon qilib, uni ag'darib tashlashga va'da ber-



Lohur shahridagi masjid

di. Ko'pchilikning fikricha, P. Musharraf mamlakatda holatni barqarorlashtirishga erisha olmadi va iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. 2008-yilgi saylovlarda PXP hamraisi **Asif Ali Zardariy** prezident etib saylandi. 2013-yilgi parlament saylovlaridan so'ng Navoz Sharif bosh vazir lavozimini egalladi.

Pokiston rivojlanayotgan agrar-industrial mamlakat. U BRIKS davlatlari bilan bir qatorda, XXI asrda dunyoning eng yirik iqtisodiy tuzilmalaridan biriga aylanish imkoniyatiga ega bo'lgan o'n bitta mamlakat qatoriga kiradi.

Hozir aholining katta qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Eksport qilinadigan asosiy tovarlariga gazlamalar, charm mahsulotlar, sport buyumlari, kimyoviy moddalar va gilamlar kiradi. Sanoatning qayta ishlash, neft, tog'-kon sohalari rivojlanmoqda. SHHTning 2016-yili Toshkentda bo'lib o'tgan sammitida Pokistonni tashkilotga qabul qilish tartibi va muddati to'g'risidagi hujjat imzolandi. Pokiston 2017-yili SHHTga a'zo bo'ldi.

2018-yilgi saylovda g'alaba qozonib, Pokiston bosh vaziri bo'lgan **Imron Xon** iqtisodiy islohotlar va tashqi munosabatlarni yaxshilash kursini e'lon qildi. 2020–2021-yillari yuqori inflyatsiya va davlat qarzlarining ortishiga, shuningdek, "COVID-19" pandemiyasiga qarshi kurashdi. 2022-yili Imron Xon lavozimidan ozod qilindi va noqonuniy daromad orttirganlik hamda davlat sirini oshkor qilganlikda ayblanib, uning o'zi, rafiqasi va o'n nafar safdoshi uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi.

2017-yili korrupsiyada ayblanib, hokimiyatdan chetlatilgan Navoz Sharifning ukasi **Shahboz Sharif** bosh vazir etib saylandi. U iqtisodiy muammolar va ichki kelishmovchiliklarga qarshi kurashni davom ettirib, 2024-yili bo'lgan saylovdan so'ng yana bosh vazir lavozimini egalladi.

AFG'ONISTON

SSSR tarqalib ketganidan so'ng Afg'onistonda holat ancha og'irlashdi. 1992-yil aprelda Kobul shahriga mujohidlar otryadlari kirib keldi. Afg'oniston prezidenti **Muhammad Najibullo** qochishga ulgurmasi. Mujohidlar uni tutib olib, 1996-yili dorga osishdi.

Afg'onistonda hokimiyatni "Jihad kengashi" deb atalgan guruh o'z qo'liga oldi. Mamlakat nomi **Afg'oniston Islom Respublikasi** deb o'zgartirildi, barcha qonunlar bekor qilinib, shariat qoidalari joriy etildi. Ammo mujohidlar o'rtasida boshlangan kelishmovchilik yangi urush harakatlariga olib keldi, minglab kishilar halok bo'ldi, elchixonalar va xalqaro missiyalar Afg'onistonni tark etdi. 1994-yili mojaroga yangi siyosiy kuch — **tolibon harakati** qo'shildi. Ular yetakchisi **mulla Umar** Afg'onistonda fuqarolar urushini tugatib, islomiy tartib o'rnatishini e'lon qildi. Ular 1996-yil sentyabrda Kobulni egallab olib, mamlakatni "**Afg'oniston Islom amirligi**" deb e'lon qildi.


Tolibon Afg'onistonda qat'iy islomiy tartiblarni o'rnatishni boshladi. Ayni paytda bu yerda turli xil terrorchilar qo'nim topdi. Tolibon rejimi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan xalqaro terrorchi **Usoma bin Lodin** ham Afg'onistonga keldi. U terrorchilar tayyorlash uchun harbiy bazalar va lagerlar tizimini yaratdi. Tolibon rejimi Bin Lodinni xalqaro sudga topshirishdan bosh tortgandan so'ng BMT Xavfsizlik Kengashi (XK) Afg'onistonga qarshi iqtisodiy sanksiyalar e'lon qildi.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishdan umidini uzgan mulla Umar islomgacha bo'lgan barcha e'tiqod obyektlari, tarixiy yodgorliklarni yo'q qilishga buyruq berdi. V asrga oid ikkita noyob yodgorlik — Buddaning qoyaga o'yib ishlangan ulkan haykallari yo'q qilindi. Musulmon bo'lmagan aholining o'z kiyimiga sariq belgi taqib yurishi haqida qabul qilingan dekret jahon jamoatchiligining g'azabini keltirdi. BMT XK tolibon hukumatiga qarshi sanksiyalarni kuchaytirish to'g'risida yangi rezolyutsiya qabul qildi.



ESLAB KO'RING!

1979–1989-yillarda Afg'onistondagi urush to'g'risida nimalarni bilasiz?



Kobul shahri

2001-yil 11-sentyabrda Nyu Yorkda uyushtirilgan terroristik aktlar uchun javobgarlikni AQSH ma'muriyati "Al-Qoida" tashkiloti bilan Usoma bin Lodinga yukladi va terrorchilarning bazalarini bombardimon qildi. Tolibon qo'shinlariga qarshi kuchlarning muvaffaqiyatli hujumlaridan so'ng tolibon hukumati ag'darilib, mamlakatga xalqaro harbiy kuchlar joylashtirildi.

2002-yil iyunda bo'lib o'tgan Umumafg'on Loyya Jirg'asida **Hamid Karzay** Afg'oniston prezidenti vazifasini bajaruvchi etib saylandi. Afg'onistonga 5 milliard dollar xalqaro yordam ajratildi. Biroq mamlakat ichkarisida terrorchilik harakatlari davom etdi.

2003-yili Afg'onistonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Mamlakat "**Afg'oniston Islom Respublikasi**" nomini oldi. Yangi konstitutsiya mamlakatda prezidentlik boshqaruvini o'rnatdi, ikki palatali parlament, mustaqil sud tizimi tuzilishini ko'zda tutdi, shuningdek, fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini e'lon qildi. Konstitutsiya kichik millatlarning huquqlarini kafolatladi, barchaning, jumladan, erkak va ayollarning qonun oldida tengligini va e'tiqod erkinligini o'rnatdi. Konstitutsiya saylovlar va siyosiy partiyalar tuzish uchun yo'l ochib berdi. 2004-yil bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida Hamid Karzay rasman Afg'oniston prezidenti etib saylandi.

2014-yili bo'lib o'tgan prezidentlik saylovining ikkinchi turida **Ashraf G'ani Ahmadzoy** Afg'oniston prezidenti, **Abdulla** esa hukumat raisi lavozimlarini egalladi. Ammo bu davrda Afg'onistonda mustahkam tinchlik o'rnatilmadi. 2016–2017-yillari bir qator terroristik aktlar amalga oshirilib, oqibatida o'nlab kishilar halok bo'ldi, yuzlab odamlar jabrlandi. Afg'onistonning sobiq prezidenti Hamid Karzay bayonot berib, mamlakatdagi beqaror ahvolning sababi sifatida mintaqada AQSH olib borayotgan siyosatni ko'rsatdi va AQSH hukumatini o'z xatolarini tan olishga chaqirdi.

2021-yili prezidentlik lavozimini egallagan J. Bayden AQSH va NATO qo'shinlari Afg'onistondan so'zsiz olib chiqib ketilishini e'lon qildi. Shundan so'ng tolibon hujumga o'tdi va 15-avgustda Afg'oniston poytaxti Kobulni egallab, o'z hokimiyatini o'rnatdi. Tolibon hukumatining korrupsiyani yo'q qilish, tinchlik o'rnatish va tadbirkorlikni tiklash borasidagi bir qator tadbirlari aholi orasida ularga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirdi. Tolibon islom huquqi asosida tinchlik hukmron bo'lgan davlat yaratishni va'da qildi.

Afg'oniston hukumati qo'shni davlatlar, jumladan, O'zbekiston bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini o'rnatgan. O'zbekiston Afg'onistonga insonparvarlik yordami ko'rsatib kelmoqda. Termiz tumanida Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi faoliyat yuritmoqda. 2024-yili Termiz shahrida Markaziy Osiyoda birinchi "Termiz xalqaro savdo markazi" ochildi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasini 2025-yili 3 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Ammo tolibon hukumatining mamlakatda shariatga asoslangan islom amirligini shakllantirishga yo'naltirilgan islohotlari mamlakat ichkarisida va tashqi dunyoda noroziliklarni keltirib chiqardi. Afg'onistonda islom rasmiy din deb e'lon qilindi va barcha qonunlar islom axloqiga mos bo'lishi shartligi belgilab qo'yildi. Xususan, tolibon hukumati ayollar uchun qat'iy cheklovlar e'lon qildi, ularning 12 yoshdan so'ng ta'lim olishi, ko'plab sohalarda faoliyat yuritishi taqiqlandi, shuningdek, jamiyat hayotida qatnashishi cheklandi. Maktab dasturlari ham qayta ko'rib chiqilib, ular islom dini tamoyillariga moslashtirildi. Jamiyat hayotida shariat normalariga rioya qilish ustidan nazorat qiluvchi diniy politsiya tashkil etildi. Turli nazoratlar uyushtirilib, musiqa eshitiladigan joylar yopildi, shuningdek, o'yin-kulgining boshqa shakllari ham cheklandi. Tolibon fikriga ko'ra, islom dini tamoyillariga javob bermaydigan san'at va haykaltaroshlik namunalari hamda tarixiy matnlar yo'q qilindi yoki taqiqlandi.

Bunday islohotlar Afg'onistonda gumanitar inqirozning yanada chuqurlashuviga olib keldi. Shuningdek, ayollar va aholining boshqa qatlamlariga nisbatan tolibon tomonidan amalga oshirilayotgan zo'rvonliklar xalqaro huquqni himoya qiluvchi tashkilotlarning keskin tanqidiga uchramoqda.

Hozirgi kunda Afg'oniston va O'zbekiston hukumatlari o'rtasida turli darajadagi aloqalar o'rnatilgan bo'lib, bu aloqalar gumanitar muammolarni hal qilishga va mintaqada barqarorlikni saqlab turishga qaratilgan.



ATAMALAR IZOHI

Loyya Jirg'a — bu afg'on qabilalari tomonidan saylanadigan umumafg'on oqsoqollar kengashi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pokistonda P. Musharrafning qanday siyosati uning iste'fosiga sabab bo'ldi?
2. Pokistonda iqtisodiyotning qaysi sohalari yaxshi rivojlangan?
3. SSSR tarqalib ketgandan so'ng Afg'onistonda qanday siyosiy vaziyat vujudga keldi?
4. 2021-yili tolibonlarning hokimiyatga kelishi Afg'onistonda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
5. Zamonaviy Afg'onistonning asosiy muammolari nimalardan iborat?



22-MAVZU

SURIYA VA IROQ

SURIYA

1970-yili harbiy to'ntarish orqali hokimiyatga kelgan **Hofiz Asad** Suriyani 2000-yilgacha boshqardi. Shu davrda mamlakat katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Neft va gaz zaxiraları ishga tushirildi, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlandi, aholining soni ko'payib, yashash darajasi yaxshilandi. Ammo 1990-yillarda iqtisodiy turg'unlik boshlandi. Buning sabablari shu davrda yuz bergan sotsialistik rejimning inqirozidan tashqari, Suriyaning yangi tarixidagi eng dahshatli qurg'oqchilik bilan ham bog'liq edi.

2000-yili H. Asad vafot etdi va hokimiyatga H. Asadning o'g'li **Bashar Asad** keldi. B. Asad otasidan farqli ravishda, tashqi siyosatda "yumshoq" kurs olib bordi. Isroil bilan Jo'lon tepaliklari masalasida muzokaralarni tikladi. 30 yildan beri Livanda turgan Suriya qo'shinlarini u yerdan olib chiqdi va Saddam Husayn bilan yarashdi. Ichki siyosatda siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat berdi, korrupsiyaga qarshi juda keskin choralar qo'lladi.

Iqtisoddagi turg'unlikni Bashar Asad savdo va moliya sohasini liberallashtirish orqali yengib o'tishga urindi. Ammo bu faqat Damashq va Halab singari yirik shaharlarda iqtisodning jonlanishiga olib keldi. Qishloqlar va kichik shaharlarda esa ishsizlar soni ortib ketdi. Bundan tashqari, shu davrda qo'shni

davlatlardan kelgan qochoqlar ham Suriyaning katta muammosiga aylandi. Qurg'oqchilik va iqtisodiy inqirozga qochoqlar muammosi qo'shib, aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi.

XXI asr boshlarida arab mamlakatlarida boshlangan "Arab bahori" nomli inqilobiy jarayonlar Suriyani ham qamrab oldi. 2011-yili mamlakatning janubidagi Darayya shahrida juma namozidan so'ng boshlangan g'alayonlar



Suriya va Iroq

“Juma inqilobi” nomini oldi. Isyonchilar B. Asad rejimini ag'darish, demokratik islohotlar o'tkazishni talab qildilar. Mojaroda amaldagi prezident B. Asad tarafida Suriya arab armiyasi va unga qarshi bo'lgan Suriya “mo'tadil” muxolifatining Suriya ozodlik armiyasi, kurdlar otryadlari, shuningdek, turli xil terrorchi tashkilotlar — “Iroq va Shom islom davlati” (“ISHID”), “Jibhat an-Nusra” va shu kabilar ishtirok etdi.

2013-yili Iroq va qisman Suriya hududida terrorchi guruhlar “Iroq va Shom islom davlati” deb ataluvchi davlatni tuzdi. 2014-yili u “Umumjahon xalifaligi” deb e'lon qilindi. Bu hol AQSH va uning ittifoqchilarini harbiy intervensiyani amalga oshirishga undadi. Ular Suriyadagi islomiy guruhlar pozitsiyalarini bombardimon qildi. 2015-yildan xuddi shu harbiy operatsiyada Rossiya harbiy-kosmik kuchlari ham ishtirok etdi. Mojaroda Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Iroq, Livan, Isroil kabi davlatlarning ham manfaatlari namoyon bo'ldi. Suriya xalqaro kuchlarning to'qnashuv maydoniga aylandi.

2017-yili Suriyadagi holat keskin o'zgardi. Yilning asosiy yakuni “ISHID” guruhining tor-mor qilinishi bo'lib, bu Rossiyaga o'z harbiy operatsiyalarini to'xtatish imkonini berdi. Ammo faol jangovar harakatlarning to'xtatilishi tinchlik o'rnatilishiga olib kelmadi. Tashqi kuchlar ko'magiga tayangan Suriya muxolifat kuchlari agar B. Asad hokimiyatda qolsa, mamlakatni tiklashda ishtirok etmasligini bildirdi. Shu davrda Suriyaning shimolidagi kurdlar yashaydigan hududlarda Turkiya qo'shinlari faol harakatlar olib bordi. Ayni paytda AQSH qo'shinlari tomonidan Idlib provinsiyasida terroristik harakat yetakchisi **Abu Bakr al-Bag'dodiyning** o'ldirilganligi e'lon qilindi.

2011-yildan keyin o'tgan 13 yil davomida suriyaliklar fuqarolar urushi, “ISHID”ning yuksalishi va qu-lashi, Rossiya, AQSH va Turkiyaning harbiy operatsiyalarini boshdan kechirdi, mamlakat amalda uch qismga bo'linib ketdi.

2024-yil noyabrda qurolli “Hayyat Tahrir ash-Shom” guruhi 11 kun ichida Halab, Hamo, Hims va keyin Damashqni egalladi. Suriya prezidenti B. Asad oilasi bilan Rossiyaga qochib ketdi.

Suriyada hokimiyatni egallagan **Abu Muhammad al-Jo'loniy** suriyalik mahalliy aholiga tinchlik va xavfsizlikni va'da qildi. Shuningdek, qo'shni davlatlar va mintaqada ta'sirga ega bo'lgan qudratli davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishga intilmoqda.



BU QIZIQ!

Suriyada tibbiyot va ta'lim bepul. Davlat xizmatchilariga xususiy klinikalarda qilgan xarajatlari qoplanadi, mamlakatda savodxonlik darajasi yuqori. Erkaklar 60 yoshida pensiyaga chiqadi. Pensioner vafot etgan taqdirda, uning pullari xotini va farzandlariga to'lanadi.

IROQ

Saddam Husayn hokimiyatni mustahkamlab olib, BMTning Iroq harbiy dasturlarini to'xtatishga yo'naltirilgan urinishlariga qarshilik ko'rsatdi. U BMT inspektorlarini AQSH foydasiga jouslik qilishda aybladi va ularni mamlakatdan quvib chiqardi. Shundan so'ng, 1999–2000-yillari AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlar Iroq harbiy obyektlarini bombardimon qildi. 2003-yili AQSH va Buyuk Britaniya qo'shinlari Bag'dodga bostirib kirdi. S. Husayn hukumati quladi. Ammo Iroqda demokratiya va tinchlik o'rnatilmadi. AQSH va uning ittifoqchilari Iroqdagi vaziyatni jilovlay olmadi. Terroristik harakatlar avj oldi. Ko'plab begunoh odamlar qurbon bo'ldi. 2005-yili qabul qilingan konstitutsiyaga binoan, Iroq uning xalqini tashkil qiluvchi uchta etnos — sunniy arablar, shia arablar va kurdlar kelishuviga asoslangan parlamentar federativ respublika deb e'lon qilindi.

S. Husayn paytida hokimiyatda bo'lgan sunniylar endi muxolifatga o'tdi. Ammo 2010-yili bo'lib o'tgan parlament saylovda kutilmaganda muxolifatdagi sunniylar g'olib chiqdi. Biroq joylarda real hokimiyat turli qurolli guruhlar qo'lida qoldi.

Prezident B. Obama AQSHning Iroqqa nisbatan siyosati xato ekanligini tan oldi. Ko'pchilik mutaxassislar aynan Amerika siyosati Yaqin Sharqda vaziyatning keskinlashuviga, "ISHID" singari terroristik tashkilotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, deb hisoblamogda.

2023-yili **Gallup International** xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkazilgan so'rovda ishtirok etganlarning 60% i Iroqqa AQSH bostirib kimgandan keyin o'tgan 20 yil ichida yashash darajasi yomonlashganligini bildirdi. Shunga qaramasdan, Iroq qiyinchilik bilan bo'lsa-da, tinch va farovon hayot qurish yo'lidan bormogda.



YODDA TUTING!

"Mehr" insonparvarlik operatsiyasi

O'zbekiston Prezidenti topshirig'iga binoan, maxsus xizmatlar tomonidan "Mehr" nomli insonparvarlik operatsiyasi amalga oshirildi. Bu operatsiyaning maqsadi — Suriya, Iroq va Afg'onistonda urush bo'layotgan hududlardagi lagerlarda qiyin holatda qolgan o'zbekistonlik ayollar va bolalarni topish, ularga yordam berish va eng muhimi — **ularni Vatanga, tinchlik bag'riga qaytarish edi**. Shu paytgacha "Mehr-1"dan "Mehr-5"gacha bo'lgan beshta operatsiya o'tkazildi. Ular orqali 500 nafardan ortiq ayol va bolalar O'zbekistonga olib kelindi.

Xalqaro tashkilotlar bu tashabbusni yuqori baholadi. Chunki jahonda faqatgina oz sonli davlatlar o'z fuqarolarini urush ketayotgan joylardan qaytarish bilan bunday jiddiy shug'ullangan.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Suriya hamda Iroqda vayron etilgan qadimgi obidalar, shaharlar to'g'risida ma'lumot to'plang va taqdimot tayyorlang.




MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Suriyada siyosiy inqirozning kelib chiqishi va fuqarolar urushining boshlanishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
2. Suriyadagi urushda qaysi davlatlarning manfaatlari aks etgan?
3. Iroqning xalqaro kuchlar tomonidan bombardimon qilinishiga asosiy sabab nima edi?
4. Suriya va Iroqdagi ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni taqqoslang.

23-MAVZU

KO'RFAZ ARAB MAMLAKATLARI

Ko'rfaz arab mamlakatlariga Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Qatar, Kuvayt va O'mon kiradi.



SAUDIYA ARABISTONI

Saudiya Arabistoni Podshohligi Arabiston yarimorolining 80% hududini egallagan davlat. Unda 2025-yilga kelib, 38,8 milliondan ziyod aholi yashaydi, shundan 38% dan ortig'i chet elliklar. Saudiya Arabistoni Amerikaning "Aramco" kompaniyasi bilan neft qazib olish to'g'risida kelishuvga erishgandan so'ng boylukning timsoliga aylandi. Tezda Saudiya Arabistonida neft konlari ishga tushib, mamlakat qiyofasi o'zgarib ketdi.

Ammo XX asr oxirlarida mamlakatda beqarorlik belgilari paydo bo'lib, podshoh oilasi bir qator islohotlarni o'tkazdi. Xususan, 1990-yillari mamlakat tarixida birinchi konstitutsiya qabul qilindi, chet ellik investorlar uchun fond birjasi ochildi. **Podshoh Abdulloh** (Abdulloh bin Abdulaziz bin Abdurrahmon Ol Saud) davrida (2005–2015) 2005-yili mahalliy kengashlarga saylovlar o'tkazildi; podshohlik Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'ldi; 2007-yili korrupsiyaga qarshi qonunlar qabul qilindi, ammo ular samara bermadi. Shundan so'ng podshoh oila a'zolariga davlat xazinasidan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanish taqiqlandi (ular qariyb 22 ming kishi, shundan faqat 2 mingi mamlakat boyligini nazorat qilish huquqiga ega). Podshoh buyrug'iga ko'ra, chet ellarda ta'lim olishni istagan saudiyalik yoshlar uchun mablag' ajratildi. Podshohlikning o'zida ham podshoh Abdulloh nomidagi Fan va texnologiyalar universiteti ochilib, unda qizlarning ham ta'lim olishiga ruxsat berildi, malika **Nora al-Fayz** ayollar ishlari bo'yicha vazir o'rinbosari etib tayinlandi.

2015-yili podshoh Abdulloh vafot etgandan so'ng taxtga 80 yoshli **Salmon bin Abdulaziz Ol Saud** keldi. Hozir mamlakatni uning nomidan valiahd shahzoda **Muhammad bin Salmon Ol Saud** boshqarib kelmoqda. Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan, 50 ga yaqin davlatlar fuqarolari Saudiyaga vizasiz kirishi mumkin. Saudiyada musulmonlarning muqaddas shaharlari Makka va Madinadan boshqa diqqatga sazovor joylar ham anchagina. Ular qatoriga Jidda shahrini, 1999-yili ochilgan Milliy muzeyni, 2002-yili ishga tushgan Qirollik markazi (Burj al-Mamlaka) va boshqalarni kiritish mumkin. Saudiya mintaqaning XXI asrga mos ravishda qadam tashlayotgan yetakchi davlatiga aylandi.

O'zbekistonning Saudiya Arabistoni bilan munosabatlarini shartli ravishda ikki davrga ajratish mumkin: 90-yillardan 2017-yilgacha va 2017-yildan bugungi kungacha. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki 25 yilida erishilgan qator davlatlararo kelishuvlar O'zbekiston Respublikasining bu mamlakat bilan hozirgi o'zaro munosabatlarini faollashtirishga asos bo'lib xizmat qildi.

2017-yildan so'ng ikki tomonlama aloqalar, ayniqsa, iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanish yo'liga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil avgustda Saudiya Arabistoniga qilgan davlat tashrifi doirasida energetika va neft-kimyo sohasidagi sheriklikni kengaytirish ikki tomon uchun ham manfaatli ekanligini ta'kidladi. Bugungi kunda "ACWA Power" kompaniyasi bilan jami 2 milliard 600 million dollarlik yirik energetika loyihalari boshlangan. Kimyo tarmog'ida "SABIC" kompaniyasi bilan sheriklik istiqbolli ekanligi aytilmoqda.

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) 1971-yil 2-dekabrda Abu Dabi amirligining shayxi **Zoid bin Sulton Ol-Nahayon** tashabbusi bilan tashkil topgan. BAA yettita — Abu Dabi, Dubay, Sharja, Ajman, Umm ul-Qayvayn, Ras ul-Xayma va Al-Fujayra amirliklaridan iborat. Mamlakatdagi neft boyliklarining 95% i Abu Dabi, 5% i Dubayga tegishli. Faqat shu ikki amirlik mamlakat qonunchiligidagi muhim masalalar bo'yicha qararlarga veto qo'yish huquqiga ega. BAAning 85% aholisi migrantlardan iborat bo'lib, ular davlat boshqaruvidan boshqa barcha sohalarda ishlaydi. BAA fuqarolari, asosan, davlat boshqaruvi tashkilotlarida faoliyat yuritadi, boshqa ma'lum bir qismi o'z biznesiga ega.

Mamlakatda ta'lim (oliy ta'lim ham) bepul. Birinchi kursni faqat "a'lo" baholarga bitirgan talabaga universitet ma'muriyati dunyoning istalgan eng yaxshi universitetlarida o'qish huquqini beradi va xorijga borish-kelish, yashash hamda kontrakt pullarini to'lashni o'z zimmasiga oladi. Xorijga o'qishga ketgan talabaga har oyda 2000 AQSH dollari miqdorida stipendiya to'lab boriladi. BAAda barcha tibbiy xizmatlar va dori-darmon bepul. BAA fuqarosi chet elda davolansa, u davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlanadi.

BAAda turizm rivojlangan. Mamlakatning turistik poytaxti Dubay shahri hisoblanadi. 1999-yildan amirlikda baland binolar qurish avj oldi. Bu jarayon 39 qavatli **Dubay Xalqaro savdo markazini** qurishdan boshlandi. O'n yildan ortiq vaqt davomida balandligi 220 metr bo'lgan 39 ta bino qurildi. Hozir qurilayotgan dunyodagi eng baland — 122 qavatli "**Pentominium**" binosining balandligi 516 metr bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil martda BAAga amalga oshirgan tashrifi O'zbekiston — BAA munosabatlari rivojida yangi bosqichni boshlab beradi. O'zbekistondagi an'anaviy va muqobil energiya tarmoqlarini rivojlantirish uchun BAAning "Masdar" va "Mubadala Development Company" kompaniyalari 2019-yilda 10 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritgan.

Sh. Mirziyoyevning 2025-yil yanvarda BAAga tashrifi davomida ikki mamlakat o'rtasida Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi deklaratsiya imzolandi. Prezidentlar 2025–2027-yillarni O'zbekiston va BAA o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi davri deb e'lon qildi va 2030-yilga qadar o'zaro savdo hajmini 10 barobarga ko'paytirish asosiy vazifa etib belgilandi.

KUVAYT

1951-yili Kuvayt amiri "**Kuwait oil company**" kompaniyasi bilan neftdan tushadigan daromadni teng bo'lish to'g'risida kelishuv imzoladi. Bu birozdan so'ng mamlakatning keskin boyib ketishiga olib keldi. 1961-yilda Kuvayt to'liq mustaqillikka erishdi.

1990-yil 2-avgustda Iroq armiyasi Kuvaytga bostirib kirdi. Amir va uning oilasi mamlakatni tashlab qochib ketdi. Xalqaro koalitsiya tomonidan 1991-yili 28-fevralda Kuvayt ozod qilindi va harbiy harakatlar to'xtatildi. Iroq agressiyasi Kuvaytni mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasini to'liq qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. 1991-yil sentyabrda AQSH bilan harbiy hamkorlik to'g'risida 10 yil muddatga shartnoma tuzildi. 1992-yili shunday shartnomalar Angliya va Fransiya bilan ham imzolandi.

Agressiyaning iqtisodiy oqibatlari ham juda og'ir bo'ldi, S. Husayn mamlakatning asosiy boyligi bo'lgan neft konlarini yoqib yubordi. Ammo 1993-yilga kelib, neft eksportidan tushadigan daromad urushdan oldingi darajasidan oshib ketdi va 9,9 milliard dollarni tashkil qildi. Shundan so'ng iqtisodiy holat muttasil yaxshilanib bordi. 1990-yillarning oxiriga kelib, neft sotishdan olinadigan daromad 13,5 milliard dollarga yetdi. XXI asr boshiga kelib, Kuvayt faol kapital eksport qilayotgan davlatlardan biriga aylandi.

QATAR

Kuvaytdan janubda Qatar amirligi joylashgan. Qatar 1971-yil 3-sentyabrda mustaqillikka erishdi. Qatar aholi jon boshiga daromadi bo'yicha dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Qatar dunyoda beshinchi o'rinda bo'lib, 2023-yili YIM aholi jon boshiga 121124 AQSH dollariga yetdi. Mamlakatning asosiy boyligini neft tashkil qiladi. Ishlayotganlarning faqat 20% i Qatar fuqarolari, qolganlari boshqa mamlakatlar, asosan, Hindiston va Pokistondan kelganlar.

Qatar tabiiy gaz zaxirasi bo'yicha dunyoda uchinchi, uni eksport qilish bo'yicha oltinchi o'rinda turadi. Shuningdek, u neft va neft mahsulotlari eksporti bo'yicha ham oltinchi o'rinni egallaydi. Qatar hozirgi vaqtda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatda Turizm bo'yicha boshqarma tashkil qilingan.



BU QIZIQ!

Qatarda ichimlik suvi dengiz suvini chuchuklash-tirish orqali olinadi. Shuning uchun suvning narxi gazlangan ichimliklar va benzinga qaraganda qimmatroq. Qatarda 3 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi, ularning 99% i shahar aholisi, 90% i esa poytaxt Dohada yashaydi.

BAHRAYN

Bahrayn Qatarga yaqin joyda, 30 ta oroldan iborat arxipelagda joylashgan. Bahrayn ham 1971-yil avgustda mustaqillikka erishdi. Bu yerda dunyoda eng katta neftni qayta ishlash zavodlaridan biri joylashgan bo'lib, u neft quvuri orqali Saudiya Arabistonidan keladigan neftni qayta ishlaydi. Yangi qurilgan Salmon porti savdoning rivojlanishiga ko'maklashmoqda. Tashib keltiriladigan xomashyo hisobiga alyumin erituvchi yirik "Aluminium Bahrain" ("ALBA") zavodi faoliyat yuritadi.

Bahrayn mintaqadagi boshqa davlatlarga namuna bo'lishga intilmoqda. U Fors ko'rfazining moliyaviy va savdo markaziga aylandi. Chet elliklarga mamlakatda korxonalar tuzish va hatto yer sotib olishga ruxsat berilgan. Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun mamlakat hududining 5% idan foydalaniladi, xolos. Bahraynning eng katta boyligi — 360 kun quyoshli issiq havo bo'lishi va iliq dengiz, shuningdek, butun qirg'oq bo'ylab joylashgan juda katta qumloq plaj. Mamlakatda turizm rivojlanmoqda, yangi mehmonxonalar qurilyapti. Mamlakatning 33% aholisini chet elliklar tashkil qiladi.



O'YLAB KO'RING

Bahrayn va Fors ko'rfazining boshqa arab mamlakatlarida turizmga katta e'tibor berilishining sababi nimada?

O'MON

Arabiston yarimorolining eng janubiy qismida O'mon davlati joylashgan. 1996-yili **sulton Qo'abus** O'monning birinchi konstitutsiyasini imzoladi. Konstitutsiya vakillik va maslahat organi — O'mon Kengashi tuzilishini ko'zda tutdi va fuqarolarning asosiy huquqlarini e'lon qildi.

O'mon aholisining 50% ga yaqini ishchi-immigrantlar va ularning oila a'zolaridan iborat.

O'mon iqtisodiyoti asosini neft eksporti tashkil qiladi. Neft zaxiralarining kamayishi sababli O'mon hukumati 2016-yili iqtisodni diversifikatsiya qilish — gaz qazib chiqarishni ko'paytirish, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, baliqchilik va turizmni rivojlantirish rejasini qabul qildi.



ATAMALAR IZOHI

Arxipelag — bir-biridan unchalik uzoq bo'lmagan va odatda, bir butun deb hisoblanadigan orollar to'dasi.

Diversifikatsiya (lot. *diversificatio* — o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) — korxonalar (birlashmalar)ning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikatsiya yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

2020-yilda Bahrayn YIMida qishloq xo'jaligining ulushi 0,28% ni tashkil qilgan. Fors ko'rfazida joylashgan arab mamlakatlarida qishloq xo'jaligi sohasi deyarli rivojlanmaganligining sababi nimada? Javobingizni asoslang.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ko'rfaz arab mamlakatlari fuqarolarining ijtimoiy himoyasi qanday tashkil qilingan?
2. Yuqorida keltirilgan mamlakatlarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga qaysi omillar ta'sir qilgan?
3. O'monda qabul qilingan iqtisodni diversifikatsiya qilish rejasi asosida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Arab mamlakatlari aholisining katta qismini chet elliklar tashkil qilishini nima bilan izohlash mumkin?



24-MAVZU

FALASTIN VA ISROIL: IKKI XALQ UCHUN IKKI DAVLAT

FALASTINNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI

1947-yili BMT Xavfsizlik Kengashi Falastin bo'yicha rezolyutsiya qabul qildi. Unga binoan, 1948-yil 1-avgustdan Falastinda ikkita — yahudiylarning Isroil va arablarning Falastin davlatlarini tashkil qilish tavsiya etildi.

1948-yili Isroil va Falastin davlatlarini tuzish rejasini arab aholisi adolatsiz deb hisobladi va shu davrdan boshlab falastin xalqi o'z davlatini saqlab qolish uchun kurash boshladi. Bu kurash arab davlatlari va SSSR tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Falastinliklarning kurashiga boshchilik qilish uchun Falastinni ozod qilish tashkiloti (FOQT) tuzilib, unga uzoq yillar **Yosir Arofat** boshchilik qildi. Ammo faqat 1990-yillarga kelib, SSSR bilan Isroil o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilgach, keyin esa sotsialistik rejim barham topgandan so'ng Falastin muammosini hal qilish imkoni paydo bo'ldi.

1991-yili Madridda Yaqin Sharq bo'yicha xalqaro konferensiyada, keyin Norvegiya poytaxti Osloda Isroil bilan FOQT o'rtasida muzokaralar boshlandi. Natijada 1993-yili Isroil va FOQT bir-birini tan olganligi to'g'risida e'lon qilindi.



BU QIZIQ!

Falastinda ta'lim darajasi barcha arab davlatlari orasida eng yuqori. Aholining 90% dan ortig'i savodli, 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 33% i oliy o'quv yurtlarida tahsil oladi.



MULOHAZA YURITING

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, nima uchun Quddus Yer yuzidagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, bir vaqtning o'zida uchta — yahudiylik, xristianlik va islom dini vakillari uchun muqaddas joy hisoblanishi haqida qanday fikrlar mavjud?

ISROILNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHI

O‘z mustaqil taraqqiyotining bir necha o‘n yili ichida Isroil harbiy sanoat kompleksi nihoyatda rivojlangan mamlakatga aylandi. Harbiy sanoat kompleksining rivojlanishi metallsozlik, mashinasozlik, elektrotexnika, elektronika va olmosga ishlov berish singari boshqa turdosh sohalarning ham jadal taraqqiy etishiga olib keldi.

1990-yillardan Isroil iqtisodi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirdi. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, bu mamlakatda haqiqiy iqtisodiy yuksalish boshlandi. Isroil xo‘jaligi o‘z tuzilishiga ko‘ra, AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarinikiga yaqinlashdi va postindustrial modelga moslashdi.

Bunday muvaffaqiyatlarga erishishda ichki va tashqi holatlarning qulayligi yordam berdi. 1990-yillari sobiq SSSRdan 600 ming kishining Isroilga ko‘chib kelishi qurilish, sanoatning ayrim sohalorida jadal rivojlanishni ta‘minladi. Yuqori ma‘lumot darajasiga ega va moddiy imkoniyati yaxshi bo‘lgan yangi immigratlar Isroilning qiyofasini o‘zgartirib yubordi. Ammo Isroil tashkil topgandan beri uning bosh muammosi Falastin davlatini tuzish masalasi bo‘lib qoldi. 2000-yili AQSH prezidenti **Bill Klinton** vositachiligida Kemp Devid shahrida Falastin muammosini tartibga solish bo‘yicha muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Asosiy muammo Quddus shahrini Falastin va Isroil o‘rtasida bo‘lib olish bo‘lib, bu masalada tomonlar kelishuvga erishmadi va muzokaralar natijasiz yakunlandi. Shundan so‘ng Isroil bosh vaziri **Ehud Barak** iste‘foga chiqdi va 2001-yili bosh vazir etib **Ariel Sharon** saylandi.

2003-yili BMT, AQSH, Rossiya va YI vositachiligida Falastin muammosini hal qilish bo‘yicha yangi “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi, ammo tinchlik to‘liq o‘rnatilmagan sharoitda uning amalga oshishi mavhum bo‘lib qoldi.

2006-yili G‘azo sektorida o‘tkazilgan demokratik saylovda “ Hamas” harakati g‘alaba qozondi. “ Hamas” Isroilni va u bilan ilgari imzolangan shartnomalarni tan olmadi. 2006-yil yozda Isroil va “ Hamas” o‘rtasida janglar boshlanib ketdi. Livandagi “ Hizbulloh” shia islomiy partiyasi Isroilga qarshi ikkinchi frontni ochdi. Bu urush va uning oqibatida Falastinda “ Yo‘l xaritasi” ni amalga oshirishni to‘xtatish jahon jamoatchiligi tomonidan va Isroilning o‘zida ham tanqid qilindi. 2022-yil dekabrda bo‘lib o‘tgan saylovda “ Likud” bloki g‘alaba qozondi va Falastinga nisbatan qat‘iy yo‘nalish tarafdori bo‘lgan **Binyamin Netanyaxu** bosh vazir lavozimini egalladi. U 1996–1999, 2009–2021-yillari ham bosh vazir sifatida faoliyat yuritgan.

Bugungi kunda Isroil rivojlangan agrar-industrial mamlakat bo‘lib, iqtisodiyotda davlat sektorining roli kattaligiga qaramasdan, bozor munosabatlari ustuvor hisoblanadi. Ayni paytda ko‘plab omillar sababli mamlakat iqtisodiyoti tashqi moliyaviy manbalarga kuchli bog‘langan (AQSH har yili 3 milliard dollar miqdorida beminnat yordam ko‘rsatadi) va uning uchun yuqori militarizatsiya darajasi xarakterli.

Mamlakat texnologiya sektorini faol rivojlantirishga kirishdi. Bu harakat eksportning o‘shishiga va chet el investitsiyasining jalb qilinishiga olib keldi. Ayni paytda bir qator muammolar saqlanib qolyapti. Bularga davom etayotgan arab-isroil mojarosi va falastinliklar bilan mustahkam tinchlikning yo‘qligini, tashqi siyosiy holatning tangligini kiritish mumkin. Mamlakat ichkarisida ham diniy va siyosiy kelishmovchiliklar, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik bilan bog‘liq tanglik mavjud. Ayni paytda aholining turli guruhlari, ayniqsa, markaziy va chekka hududlar aholisining yashash darajasi o‘rtasida sezilarli farq saqlanib qolmoqda.

Falastinning G‘azo sektorida davom etayotgan urushga qaramasdan, 2025-yil 13-iyunda Isroil Eronga qarshi misli ko‘rilmagan harbiy operatsiyani boshladi va uning yadro obyektlari, harbiy bazalari va qo‘mondonlik tarkibini bombardimon qildi. Oqibatda Eron harbiy qo‘mondonligi rahbarlari va yadroviy tadqiqotlar bilan shug‘ullanayotgan olimlardan bir necha kishi hamda tinch aholi vakillari halok bo‘ldi. *Isroil bu harakatlarni Eronning o‘sib borayotgan yadroviy tahdidiga qarshi javob deb baholadi. Ammo*

Isroilning bu ishi javobsiz qolmadi. Eron harbiy kuchlari uchuvchisiz parvoz qiluvchi apparat (dron)lar hamda tovushdan tez uchuvchi zamonaviy raketalar bilan Isroilning harbiy va ilmiy obyektlarini bombardimon qildi, oqibatda bir qancha tinch aholi vakillari halok bo'ldi. "O'n ikki kunlik urush" mintaqada tanglikni yanada oshirib, katta urush xavfini kuchaytirdi.

XX ASR OXIRLARIDA FALASTIN VA ISROIL MUAMMOSI

1993-yili Vashingtonda Isroil va FOQT delegatsiyalari Falastin avtonomiyasini bosqichma-bosqich 5 yil ichida tuzish to'g'risidagi kelishuvni imzoladi. Birinchi bosqichni amalga oshirish G'azo sektori va Iordan daryosining G'arbiy sohilini FOQTning avtonom boshqaruviga berish to'g'risida bitim imzolanishi bilan boshlandi. Bu shartnoma Falastin tashkilotlarida norozilikni kuchaytirib yubordi va FOQTda bo'linish yuz berdi. " Hamas", "Jihad" va "Hizbulloh" kabi tashkilotlar faollashib ketdi. Ular turli yo'llar bilan kelishuvni buzishga harakat qildi. Shunga qaramasdan, muzokara jarayoni davom etdi.

1987-yili boshlangan Birinchi Falastin intifadasi natijasida FOQT bilan Isroil o'rtasida muzokaralar boshlanib, Oslo shahrida kelishuv imzolandi. Unga ko'ra, 1994-yili Yosir Arofat boshchiligida Falastin milliy ma'muriyati tashkil qilindi. Siyosiy markaz etib **Romalloh** shahri belgilandi. Bu xizmati uchun Y. Arofat va Isroil bosh vaziri **Is'hoq Rabin** 1994-yili Nobel tinchlik mukofotiga sazovor bo'lishdi. 1995-yili FOQT bilan Isroil o'rtasida muvaqqat bitim imzolandi. Bu Falastin avtonomiyasini tuzishning keyingi bosqichi bo'lib, Iordan daryosining g'arbiy sohilidagi ko'plab shahar va qishloqlar FOQT ixtiyoriga o'tkazildi. Falastin avtonomiyasida saylovlar bo'lib o'tdi va FOQT ixtiyoridagi hududlarni nazorat qilish uchun politsiya kuchlari tuzildi. Falastinliklarga qilingan yon bosishlardan Isroil jamiyatining bir qismi norozi bo'ldi. 1995-yili I. Rabin mutaassib yahudiy tomonidan o'ldirildi.

1996-yil yanvarda Y. Arofat boshchiligida Falastin qonunchilik kengashi saylandi. Falastin davlatini qurish jarayoni qiyinchilik bilan bo'lsa-da, davom etdi. G'arbiy sohildagi Hevron shahri ham Falastin ma'muriyati ixtiyoriga o'tdi. Shunga qaramasdan, "Islom jihodi", "Hizbulloh" va "Hamas" kabi tashkilotlar faoliyatini kuchaytirdi. "Hamas" guruhi 2005-yili Falastinga qarashli G'azo sektorida hokimiyatni egallab oldi. G'azo sektori Isroilning g'arbiy qismida, O'rtayer dengizi bo'yida joylashgan bo'lib, 1967-yilda Isroil tomonidan bosib olingan edi. 2005-yili ikki tomonlama kelishuvga binoan, isroilliklar bu hududdan chiqib ketdi.

2006-yili Y. Arofat vafot etdi. Uning o'rniga **Mahmud Abbos** Falastin avtonomiyasining raisi etib saylandi. 2012-yili Falastin kuzatuvchi davlat maqomida BMT faoliyatida qatnashish huquqini oldi. M. Abbosning BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqi Isroil vakillari tomonidan norozilik bilan qarshi olindi. Shunga qaramasdan, 2017-yilga kelib, Falastin davlatini 140 ga yaqin davlat tan oldi.

2023-yili Falastinning G'azo sektoridagi "Hamas" va boshqa qurolli guruhlar Isroilga qarshi urush boshladi. Urush davomida 2025-yil martgacha minglab falastinliklar va isroilliklar halok bo'ldi. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar, ko'plab davlatlar Isroil hukumatini tinch aholini qirg'in qilishda ayblamoqda.



TAHLIL QILING

Internetdan foydalanib G'azo sektori muammosini o'rganing.



Shu o'rinda biz urushda jabrlangan falastinlik bolalar va ayollarni O'zbekiston shifoxonalari-da beg'araz davolashga tayyorligimizni bildiramiz.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
Arab-islom sammitidagi nutqidan,
2024-yil noyabr.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil noyabr oyida Falastin muammosiga bag'ishlangan navbatdan tashqari Arab-islom sammitida ishtirok etib, tinchlikka eltuvchi bir nechta xayrli tashabbusni ilgari surdi. Jumladan, Prezidentimiz Falastin — Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yo'li bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy harakatlarni to'liq qo'llab-quvvatlab, urushda jabrlangan bir guruh falastinlik bolalar va ayollarni O'zbekiston shifoxonalari-da beg'araz davolashga tayyor ekanini ta'kidladi.

Ushbu xayrli tashabbus ortidan O'zbekiston tomonidan Toshkent — Misr — Toshkent yo'nalishida maxsus yo'lovchi charter reys amalga oshirildi. Mamlakatga urush hududlarida aziyat chekkan 100 nafar falastinlik bolalar va ayollar olib kelindi. O'zbekistonga kelgan bemor bolalar va ayollar hamda ularga hamrohlik qiluvchilar endilikda davlat tomonidan to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi va sog'lomlashtirish shaharlariga joylashtiriladi. Ularning hayotga to'laqonli moslashuvini ta'minlashga ko'mak berilmoqda.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizing fikringizcha, Falastin — Isroil mojarosining tinch yo'l bilan hal bo'lishi uchun qanday shart-sharoitlar kerak?
2. Falastin — Isroil mojarosi faqat bu ikki xalq o'rtasidagi ziddiyatmi yoki global siyosiy kuchlarning kurash maydonimi? Fikringizni asoslang.
3. Falastin hududida savodxonlik darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erishilmasligining sabablari nimada deb o'ylaysiz?



25-MAVZU

LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI

LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI XX ASR OXIRIDA



ESLAB KO'RINGI

XX asrda Lotin Amerikasi uchun umumiy bo'lgan modernizatsiyaning qanday variantlari mavjud edi?

davlat va bir qancha qaram hududlardan iborat. Mintaqa aholisi 2025-yil boshiga kelib, 665 million kishidan oshdi.

XX asr oxiriga kelib, mintaqada rivojlantirishning neoliberal modeli oldingi o'ringa chiqdi. Bu model **Augusto Pinochet** davrida **Chilida** muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Chili bugun ham barqaror rivojlanayotgan mamlakat bo'lib, mintaqada yetakchi o'rinni egallaydi. Ammo, umuman, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun neoliberal islohotlarning natijalari ziddiyatli bo'ldi. Islohotlarning birinchi bosqichi iqtisodiy o'sishga turtki bo'lib, modernizatsiyaga ko'maklashgan bo'lsa, keyinchalik bu islohotlar ba'zan retsesiyaga, xo'jalikning chuqur tushkunligiga olib keldi.

Mintaqada birinchi bo'lib neoliberal islohotlar yo'lga kirgan **Meksikada** 1994-yil

Lotin Amerikasi nomi hudud aholisining o'zagi lotin tili bo'lgan ispan, portugal va fransuz tillarida so'zlashishi sababli kelib chiqqan. Lotin Amerikasi mintaqasi 20 million kv.km hududni egallaydi va 33 ta mustaqil



Lotin Amerikasi mamlakatlari

dekabrda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshlandi. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashdi va kapitalning ommaviy ravishda Meksikadan AQSHga ko'chishi boshlandi. Milliy valyuta — **peso** keskin tushib ketdi, amalda milliy moliya tizimi izdan chiqdi, 20 ming korxonalar xonavayron bo'ldi, mamlakat YIMI keskin tushib ketdi.

1990-yillari "neoliberal islohot yutuqlarining namoyishi" bo'lgan **Argentina** iqtisodiyoti ham qattiq zarar ko'rdi. 2001-yili Argentinaning defolt e'lon qilishi jahon tarixidagi eng yirik bankrotlik holati bo'lib, Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi neoliberal eksperimentlarga nuqta qo'ydi va mintaqada siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning yangi davrini boshlab berdi. Bu jarayonlar ta'sirida iqtisodiy kursdan norozilik, an'anaviy partiyalar va ularning yetakchilariga ishonchsizlik hollari kuchaydi, qarshilik harakati, jumladan, Kolumbiya, Peru kabi mamlakatlarda radikal-terroristik tashkilotlar va narkomafiya faollashuvi uchun sharoit tug'ildi. 1994-yili Meksikada hindularning ommaviy qo'zg'oloni boshlandi. Hukumat siyosatining ijtimoiy oqibatlariga qarshi Argentina, Meksika, Ekvador va boshqa bir qator mamlakatlarda aholining ommaviy namoyishlari bo'lib o'tdi.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda hindu xalqlarining o'z huquqlari, o'ziga xos madaniyatini saqlab qolish, avtonomiya va yerga bo'lgan huquqi uchun kurashi alohida o'rin egallaydi. XX asr oxiriga kelib, Boliviya, Gvatemala, Peru, Meksika, Ekvador kabi mamlakatlarda aholining 25–50% ini tashkil qilgan hindular jamoalarining yerlarini tortib olish hollaridan norozilik kuchaydi. Hukumatlarning kaltabin ijtimoiy-iqtisodiy siyosati oqibatida mintaqaning ayrim mamlakatlarida hindularning tartibsiz chiqishlari bo'lib o'tdi. Bu harakat Ekvador, Boliviya, Peru, Braziliya va Meksikaning janubida, ayniqsa, ommaviy tus oldi.

Shu davrda Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun asosiy sherik bo'lgan AQSH bilan ularning munosabatlarida **uchta model** shakllandi: **Venesuelaning** jangovar, AQSHning mintaqadagi yetakchilik rolini tan olmaydigan va lotin amerikacha sotsializmga intiladigan varianti. Bunga Venesuela, Kuba, Kosta Rika, Nikaragua, Boliviya kabi mamlakatlar kiradi; iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarining umumiyliги asosida AQSH bilan do'stona munosabatlar tarafdori bo'lgan **kolumbiyacha** variant. Bunga Kolumbiya va Meksikani kiritish mumkin; AQSH bilan pragmatik hamkorlik tarafdori bo'lgan **braziliyacha** variant. Bu variant AQSHning Braziliya va Argentina bilan munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI XXI ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA

Yangi asr boshiga kelib, Lotin Amerikasi mamlakatlari o'z tarixida birinchi marta diktaturalarsiz rivojlanish yo'liga kirdi, deyarli barcha davlatlarda saylov va konstitutsiyaviy rejim joriy etildi. Mintaqa mamlakatlarining mutlaq ko'pchiligida prezidentlik boshqaruvi o'rnatildi.

Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi partiyaviy-siyosiy tizim Yevropa standartlariga mos tushmaydi, dohiyparastlik, populizm belgilari ularning xarakterli jihatlari hisoblanadi.

XX asr oxiridan boshlab aholining an'anaviy partiyalarga ishonchi so'nishi natijasida XXI asr boshida Braziliya, Peru, Venesuela, Ekvador kabi mamlakatlarda hokimiyatga yangi, mustaqil deb atalotgan nomzodlar keldi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida mintaqadagi mamlakatlar siyosiy hayotining boshqa bir xarakterli jihati kommunistik partiyalarning o'z mavqeyini yo'qotishi bo'ldi. Bu, albatta, dunyoda yuz berayotgan global jarayonlar bilan bog'liq edi.



O'YLAB KO'RING

Bugungi kunda Lotin Amerikasi davlatlarida demokratiya uzil-kesil o'rnatilgan deb hisoblash mumkinmi?



MULOHAZA YURITING

Qo'shimcha manbalardan foydalanib nima uchun demokratiya diktaturadan yaxshi ekanligini asoslab bering.

1959-yilgi inqilobdan so'ng o'ziga xos kommunistik siyosiy rejim shakllangan **Kubada** ham shunday jarayonlar yuz berdi. Sotsialistik rejim barbod bo'lgandan so'ng Kuba tashqi moddiy-texnik va moliyaviy yordamdan mahrum bo'ldi, bu esa birinchi navbatda aholining ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ammo bu qiyinchiliklarga qaramasdan XXI asrda ham Kuba ijtimoiy davlat bo'lib qolmoqda. AQSHning iqtisodiy sanksiyalari sharoitida Kubaga Xitoy, Rossiya, Turkiya, Jazoir kabi davlatlar yordam ko'rsatib kelmoqda.

XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari kuchaydi. Bu jarayonlarning asosiy yo'nalishi mintaqaviy erkin savdo zonalarini tuzish bo'ldi. Kelajakda Shimoliy va Janubiy Amerika miqyosidagi erkin savdo zonalarini tuzish mo'ljallangan. Ammo yirik rejalar va katta imkoniyatlarga qaramasdan, bu mamlakatlar, hatto Braziliya va Meksika kabi gigantlar ham bugun global siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonida arzigulik ta'sirga ega emas. 2008-yildan mintaqadagi eng yirik uchta davlat — Braziliya, Meksika va Argentina G20 (katta yigirmalik) obro'li klubiga a'zo bo'ldi, ular katta istiqbolli imkoniyatlarga ega. Masalan, Meksika 1994-yili Shimoliy Amerika erkin savdo zonasiga kirdi va 1994–2010-yillari Meksikaga kiritilgan chet el investitsiyalari miqdori to'rt barobar o'sdi. Shuning 75% i AQSH ulushiga to'g'ri keladi. Agar yaqin o'tmishda eksportning asosini neft tashkil qilgan bo'lsa, hozir Meksika eksportining 80% i sanoat mahsulotlaridan iborat.

Braziliya bugun dunyoning eng yirik o'nta iqtisodiy markazlaridan biri, shuningdek, jadal rivojlanayotgan Xitoy, Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi va Rossiya qatorida BRIKS tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Braziliya XXI asrda Lotin Amerikasining tan olingan lideriga aylanish, AQSHning doimiy ta'siridan butunlay qutulish va BMT XKning doimiy a'zolaridan biri bo'lish kabi olamshumul vazifalarni maqsad qilib qo'yib, shunga intilmoqda.

2002- va 2006-yillari Braziliya Federativ Respublikasi prezidenti etib saylangan va 2022-yili shu lavozimga qayta saylangan **Luis Inasiu Lula da Silva** boshchiligida hukumat aholining eng kambag'al qismini qo'llab-quvvatlash, moliya sohasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, inflyatsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish bo'yicha kompleks ijtimoiy tadbirlarni olib bormoqda.

Argentinaning XX asr oxirida hukumat tarixidagi eng katta defolt e'lon qilishi uning 80 milliard dollarlik qarzni to'lay olmasligini anglatar edi. 2003-yili prezident etib saylangan **Nestor Kirshner** boshlab bergan islohotlarni 2007-yildan uning rafiqasi – Argentina prezidenti **Kristina de Kirshner** davom ettirdi. 2003–2012-yillari Argentina YIMining



2019-yil 4-sentyabrdagi moliyaviy inqiroz.
Buenos Ayres, Argentina

o'rtacha o'sish sur'ati 7,1% ni tashkil qilib, bu Yer yuzidagi juda ko'plab davlatlarning o'rtacha iqtisodiy o'sishidan yuqori edi. Argentina 1914-yildan beri o'tgan yuz yil davomida bunday yutuqlarga erishgan emasdi. 2023-yili Argentina prezidenti etib saylangan **Xaver Miley** davlat boshqaruvi apparatini ikki barobar qisqartirib, inflyatsiyaga qarshi kurash olib bormoqda. Ammo iqtisodiy qiyinchiliklar davom etmoqda, 2024-yil martda yillik inflyatsiya 1991-yildan beri birinchi marta 100% dan ortdi.

Tashqi siyosatda X. Miley AQSH bilan yaqinlashish yo'lini tanladi. U Argentinaning BRIKSga a'zo bo'lmasligini, Rossiya, Xitoy va boshqa "kommunistik rejimlar" bilan aloqalarni mustahkamlamasligini e'lon qildi.

Aytish lozimki, Lotin Amerikasi mamlakatlari XX asrda o'z oldilariga qo'ygan murakkab muammolarni to'liq hal qila olmadi, ammo buning yo'llarini qidirishda davom etmoqda. XXI asrda bu muammolar o'z yechimini qanday topishini vaqt ko'rsatadi.



ATAMALAR IZOHI

Populizm — saralangan fuqarolarning ehtiyojlariga emas, xalq ommasi ehtiyojlariga qaratilgan siyosiy pozitsiya yoki nutq shakli.

Defolt (ingliz. default — majburiyatlarni bajarmaslik) — kredit shartnomasini bajarmaslik, ya'ni qarz majburiyatlari yoki obligatsiyali kredit shartnomasi bo'yicha foizlarni yoki asosiy qarzni o'z vaqtida to'lamaslik, to'lay olmaslik.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Lotin Amerikasida XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr birinchi choragida mashhur bo'lgan siyosiy arboblardan biri (Xuan Peron, Salvador Alyende, Fidel Kastro, Augusto Pinochet, Ugo Chaves, Ernesto Che Gevara va h.k.) haqida ma'lumot yig'ing va tezis, ma'ruza, taqdimot, esse yoki referat ko'rinishida taqdim eting.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rivojlanishning neoliberal yo'li Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun qanday ahamiyat kasb etdi va qanday muammolarni keltirib chiqardi?
2. XX asr oxiriga kelib, Lotin Amerikasi mamlakatlarning AQSH bilan munosabatlarida qanday modellar shakllandi?
3. Lotin Amerikasining yirik davlatlari XXI asrda qanday maqsadlarni oldiga qo'yib rivojlanmoqda?



26-MAVZU

AFRIKA MAMLAKATLARI

Shimoliy Afrika mamlakatlariga Misr, Sudan, Liviya, Jazoir, Tunis, Marokash, Mavritaniya va G'arbiy Sahroyi Kabir kiradi.

MISR ARAB RESPUBLIKASI

Misr Arab Respublikasi insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi makonlaridan biri. Uning tarixini Sfinks, Giza va Luksor ehromlari va Shohlar vodiysisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular ochiq osmon ostidagi eng katta muzeylardir.

Misr sivilizatsiyaviy jihatdan ko'proq Sharqiy O'rtayer dengiziga mansub bo'lsa-da, Afrikaning arab mamlakatlari hayotida katta rol o'ynaydi. XX asr oxirida Misr iqtisodiy rivojlanishda, qishloq xo'jaligi, madaniyatda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi, rivojlangan turizm industriyasini yaratdi, mamlakatning valyuta zaxirasi ortib bormoqda. Bu yutuqlar Misrga arab va musulmon dunyosining yetakchilaridan biri bo'lish imkonini berdi.

2011-yili Misr prezidenti **Husni Muborak** iste'foga chiqdi. Shundan so'ng bo'lib o'tgan prezidentlik saylovlarida "Musulmon birodarlar" radikal tashkilotidan nomzod **Muhammad Mursiy** g'alaba qozondi. Ammo M. Mursiy olib borgan siyosat mamlakatda, avvalo, armiyada norozilik uyg'otdi. Natijada 2013-yili M. Mursiy harbiylar tomonidan ag'darildi va qamoqqa olindi. 2014-yil bo'lib o'tgan saylovlarda Misr prezidenti etib mudofaa vaziri general **Abdulfattoh as-Sisi** saylandi. 2023-yil dekabrda As-Sisi uchinchi marta prezident bo'ldi. Hozirgi vaqtda u yuqori darajadagi davlat qarzi, inflyatsiya va G'azo sektorida davom etayotgan urush kabi mamlakat va mintaqada tobora kuchayib borayotgan muammolarga duch kelmoqda. Misrda 2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasi qabul qilingan. Bu hujjat to'rtta asosiy "tayanch"ga ega bo'lib, ulardan biri innovatsiya va ilmiy tadqiqotlardir. Ilmiy tadqiqotlarga ajratilayotgan mablag' 2022-yili YIMning 1,2% ini tashkil qildi va yildan yilga ortib bormoqda.



Afrika mamlakatlari

SUDAN

Sudan XX asr oxiri – XXI asr boshlarida mintaqaning eng qoloq mamlakati bo'lib qolmoqda. Mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band. Sanoat juda sust rivojlangan, mamlakat aholisining faqat 5% i shu sohada band. Mamlakat chegarasi mustamlaka davrida sun'iy bo'lingan bo'lib, bu ko'plab etno-konfessional mojarolarga sabab bo'lib kelmoqda.

LIVIYA

Liviyada **Muammar Qazzofiyning** uzoq hukmronligi davrida neftdan olingan daromad yirik ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish imkonini berdi. Liviyaliklar Shimoliy Afrikadagi eng ta'minlangan aholiga aylandi. Mamlakatda majburiy maktab ta'limi muddati 6 yildan 9 yilgacha oshirildi, bepul oliy ta'lim joriy etildi. Qazzofiy hokimiyat tepasiga kelgunga qadar aholining savodxonlik darajasi 27% ni tashkil qilgan bo'lsa, oradan 10 yil o'tib ko'plab kutubxonalar va ta'lim muassasalari tashkil etilishi ortidan bu ko'rsatkich 51% gacha yetdi.

Bundan tashqari, Qazzofiy demografik siyosatga ham katta e'tibor berdi. U hukmronlik qilgan 42 yil davomida Liviya aholisi 3 barobar ko'paydi, bolalar o'limi 9 barobar kamaydi. Uning davrida ayollarga o'zi va yangi tug'ilgan chaqalog'i uchun katta miqdorda ijtimoiy nafaqa to'langan.

Ammo 2011-yili Liviyada ham hukumatga qarshi g'alayonlar boshlandi. Qo'zg'olonchilar muvaqqat hukumat tuzib, yordam so'rab NATOga murojaat qildi. NATO kuchlari Liviyani bombardimon qildi, M. Qazzofiy o'ldirildi, ammo bu mamlakat uchun tinchlik va farovonlik olib kelmadi. 2016-yili mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib, Liviya iqtisodiy halokat yoqasiga kelib qoldi. Millionlab kishilar mamlakatni tark etib, qochoqqa aylandi.



YODDA TUTING!

Dunyodagi eng qashshoq 30 davlatdan asosiy qismi Afrikada joylashgan. Ularda tibbiy xizmat deyarli yo'q, ichimlik suvi sifatsiz, aholisi surunkali to'yib ovqatlanmaydi.



BU QIZIQ!

Qazzofiy populist siyosatchi bo'lishiga qaramay, u Liviyani modernizatsiya qildi va cho'ldan iborat qoloq mamlakatni Afrikadagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlardan biriga aylantirdi. 1979-yilga kelib, Liviya aholi jon boshiga daromad bo'yicha Buyuk Britaniya, Italiya va Yaponiyani ortda qoldirdi. 2001–2005-yillarda Liviya inflyatsiya darajasining pastligi bo'yicha Ginnesning rekordlar kitobiga ham kiritilgan.

TROPIK VA JANUBIY AFRIKA

1990-yillari Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlarida ham muhim va o'ta murakkab o'zgarishlar yuz berdi. Bular Afrika mamlakatlarining o'zidagi rivojlanish tendensiyalari va umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan voqea — "sovuq urush"ning yakunlanishi bilan bog'liq edi. Ikki qarama-qarshi bloklar o'rtasida Afrikaga ta'sir uchun kurash yakun topdi.

Afrika mamlakatlarida demokratizatsiyalash tendensiyalari, fuqarolik jamiyatini tuzishga intilish, bir partiyali tizimdan ko'p partiyali tizimga o'tish boshlandi. Dasturida marksizm-leninizm haqidagi nizom saqlanib qolayotgan hukmron partiyalar bu yo'riqlardan voz kechdi, marksizmga sodiq qolgan Efiopiyadagi **Mengistu Xayle Mariam** hukumati 1991-yili ag'darib tashlandi.

Ammo bu jarayonlar mintaqadagi siyosiy holatni keskinlashtirib yubordi. 1989-yili Liberiyada etnik asosda boshlangan fuqarolar urushi ko'plab qurbonlar va 1 million aholining qo'shni davlatlarga ommaviy qochishiga olib keldi. Mamlakat xarob ahvolga tushib qoldi. Faqat Liberiyaga xalqaro harbiy kuchlarni kiritish ahvolni biroz tartibga keltirdi.



MULOHAZA YURITING

G'arb davlatlarining Afrikaga sarmoya kiritishdan qochishi va u yerga investitsiyaning atigi 7% i yo'naltirilishining sababi nimada?

RUANDA VA BURUNDI

Ruanda va Burundida ham qonli mojarolar bo'lib o'tdi. 1990-yillar o'rtalariga kelib, tutsi va xutu xalqlari o'rtasidagi kurash keskinlashib, genotsidga olib keldi. Natijada Ruandaning 1 millionga yaqin aholisi halok bo'ldi, Burundida 1 millionga yaqin kishi qochoqqa aylandi.

SYERRA LEONE

Syerra Leoneda ham harbiy to'ntarishlar va qurolli mojarolar fuqarolar urushiga olib keldi. Faqat BMT aralashuvi keskinlikni biroz yumshatdi, ammo mamlakat iqtisodi vayron bo'lgan edi.

KONGO DEMOKRATIK RESPUBLIKASI

1997-yili Kongo Demokratik Respublikasida **Mobutuning** diktatorlik rejimi ag'darildi. Ammo yangi hukumat uzoq yillar davomida to'planib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni yengib, etnik ziddiyatlarni yumshata olmadi. BMT Kongo Demokratik Respublikasini dunyoning eng qashshoq mamlakati deb tan oldi.

Kongo inqiroziga Afrikadagi qator davlatlar: Janubiy Afrika Respublikasi, Angola, Namibiya, Uganda, Ruanda, Zimbabve ham u yoki bu darajada hissa qo'shdi. Ularning barchasi mojaroni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risida bayonot bersalar-da, bir guruhi markaziy hokimiyatni, boshqalari isyonchilarni qo'llab-quvvatladi.

Hozirgi kunda mamlakatning eng katta muammolari qashshoqlik, korrupsiya va gender tengsizlik bo'lib qolmoqda. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik oddiy hol bo'lib, eng dahshatlisi, aholining ko'pchiligi buni normal hol sifatida qabul qiladi. Bu kabi kulfatlar Tropik va Janubiy Afrikaning katta qismidagi holatni aks ettiradi.

XX asr oxirida Kongoda ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz tobora kuchayib bordi. Aholi o'sish darajasining yuqoriligi ishsizlik muammosini yanada keskinlashtirdi. Jahon bozorida Tropik va Janubiy Afrika xomashyosiga bo'lgan talabning kamayishi mintaqada mamlakatlari iqtisodiga katta zarba bo'ldi. Af-



O'YLAB KO'RING

Markaziy va Janubiy Afrika davlatlari rivojlanishining xususiyatlari nimada? Nimaga Afrikadagi eng qashshoq davlatlarning muammolari global tus oldi?



rikaning ko'plab mamlakatlarida aholi jon boshiga yillik daromad 1960-yildagidan ham pastga tushib ketdi. Faqat XXI asr boshlaridagina ijobiy tomonga o'zgarish boshlandi. Ammo yangi asrda ham afrikaliklar oldida katta muammolar turgani aniq. Bular dan eng kattasi demografik muammo. Qashshoqlik, dahshatli kasalliklarga qaramasdan, Afrikaning ko'plab mamlakatlarida aholining yillik o'sishi juda yuqori. BMTning hisob-kitobiga ko'ra, Afrika aholisi 2050-yilga kelib, 2 milliard kishiga yetadi. Bu yangi asrda Afrika juda katta muammolar oldida turganligidan dalolat beradi.

Tropik Afrika bolalari



ATAMALAR IZOHI

Etno-konfessional mojarro — bu etnik mojaroning shakllaridan biri bo'lib, unda etnik ziddiyat diniy ziddiyat bilan qo'shilib ketadi.

Gender tengsizlik — bu ijtimoiy tizimning muhim belgisi bo'lib, unga binoan, turli ijtimoiy guruhlar, ayni holatda erkaklar va ayollarning jamiyatdagi imkoniyatlari bir-biridan muqim farq qiladi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XXI asr boshiga kelib, Misrning siyosiy hayotida islom fundamentalizmi qanday rol o'ynadi?
2. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Liviya va boshqa Shimoliy Afrika mamlakatlaridagi inqilob va to'ntarishlar qanday oqibatlarga olib keldi?
3. XXI asrda Afrika mamlakatlari oldida qanday dolzarb muammolar turibdi?



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

Afrika davlatlari taraqqiyotidagi muammolar va yutuqlar masalasini T-chizma asosida tahlil qilib daftaringizga yozing.



**GLOBALLASHUV —
TURLI DAVLATLAR
IQTISODIY,
MADANIY VA SIYOSIY
HAYOTINING
BIRLASHISH JARAYONI.**

**V
BOB**



XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA JAHON SIVILIZATSIYASI MUAMMOLARI

**SHANGHAY HAMKORLIK TASHKILOTIGA A'ZO DAVLATLAR
RAHBARLARI KENGASHI YIG'ILISHI**
2022-yil 15-16 sentabr, Samarqand

**ЗАСЕДАНИЕ СОВЕТА ГЛАВ ГОСУДАРСТВ-ЧЛЕНОВ
ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА**
15-16 сентября 2022 года, Самарканд



上海合作组织成员国元首理事会会议

(2022年9月15-16日, 撒马尔罕)

**MEETING OF THE COUNCIL OF HEADS
OF THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION MEMBER STATE**
15-16 September 2022, Samarkand



IQLIM KELISHUVI

**2015-YIL 12-DEKABRDA
PARIJDA IQLIM
O'ZGARISHI BO'YICHA
TARIXIY KONFERENSIYA
BO'LIB O'TDI.**



ESLAB KO'RINGI

1927-yilda Nyu Yorkda namoyish qilingan birinchi ovozi kina qanday nomlanadi?

27-MAVZU

XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA GLOBALLASHUV MUAMMOLARI, HARBIY, EKSTREMIS- TIK VA EKOLOGIK XAVF-XATARLAR

Globallashuv (*globus* — Yer shari) deganda umumjahon iqtisodiy, siyosiy, diniy va madaniy integratsiyalashuv va unifikatsiyalashuv jarayoni tushuniladi. Iqtisodning globallashuvi natijasida moliyaviy yuksalishlar va inqirozlar umumsayyora miqyosiga, global xarakterga ega bo'lib bormoqda. Zamonaviy axborot tizimlari moliya kapitaliga juda tez harakatlanish, moliya bozorlariga esa to'xtovsiz faoliyat yuritish imkonini yaratdi.

Madaniy sohada globallashuv jarayoni esa ziddiyatli natijalarga ham olib kelmoqda. Bir tomondan, madaniy globallashuv jarayonida internet, xalqaro turizm, kinofilmlar, kitoblar va intellektual mehnatning boshqa mahsulotlari katta rol o'ynaydi. Boshqa tomondan, axloqqa zid narsalarning ommalashuvi milliy madaniyatlarning rivojlanishi uchun xavf sola boshladi. Masalan, hozir "ommiy madaniyat" deb atalayotgan jarayon xuddi shunday salbiy holatlardan biridir.

Globallashuvga hozir ko'plab mamlakatlarda g'arblashuv jarayoni sifatida ham qaralmoqda. G'arbnining kuchayib borayotgan iqtisodiy, harbiy va ayniqsa, madaniy ta'siri aksariyat davlatlarda salbiy munosabatni keltirib chiqarmoqda. Chunki har bir millatning o'zi qadrlaydigan milliy o'zligi borki, globallashuv jarayonida uni yo'qotishni, "g'arblashishni" hech kim istamaydi.

Globallashuv bir xil baholanishi mumkin bo'lmagan o'ta murakkab jarayon. Bu jarayonda har bir xalq o'z o'rnini egallashga, o'zligini saqlab qolishga intilmoqda. Osiyo va Afrikadagi an'anaviy sivilizatsiyalar o'chog'ida G'arb qadriyatlar tizimini, uning ma'naviy-axloqiy asoslarga zid normalarini qabul qilish jiddiy qarshiliklarga uchrarmoqda.

Zotan, Xitoy va Hindiston singari an'anaviy sivilizatsiyasi uzoq tarixga ega bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyoti, siyosatidagi rolining ortib borishi bu jamiyatlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ham jahon maydoniga chiqishiga olib kelmoqda. Bu esa G'arb jamiyatiga tobora chuqurlashib borayotgan ma'naviy inqiroz holatidan chiqib olish imkonini berishi mumkin.

HARBIY VA TEXNOGEN XAVF-XATARLAR

XX asrning 50-yillarida dunyoning bir guruh mashhur olimlari yadro qurolini ommaviy qo'llash sivilizatsiyaning to'liq yo'q qilinishiga olib keladi, degan ogohlantirish bilan chiqdilar. Haqiqatan, yadro quroli barcha tabiiy ofatlarga qaraganda ham ko'proq vayron qilish qudratiga ega. Bu qurolning paydo bo'lishi tarixda ilk bor insoniyatning o'z-o'zini yo'q qilish xavfini tug'dirdi.

XXI asrning birinchi choragida ham harbiy xavf-xatarlar to'liq bartaraf etilmadi, dunyoning turli qismlarida urushlar davom etmoqda. Dunyoda yadro quroliga yoki uni tez yaratish imkoniyatiga ega davlatlar soni ham muttasil ortib bormoqda. Yadro qurolining butun sayyora bo'ylab tarqalib ketishi yuz berayotgan ko'p sonli mojarolarda uni qo'llash xavfini oshirmoqda. Bunga 2025-yil mayda ikki yadroviy davlat — Hindiston va Pokiston o'rtasidagi mojaro misol bo'lishi mumkin.

Shuningdek, minglab kishilarning o'limiga olib keladigan va atrof-muhitga cheksiz zarar yetkazadigan texnogen halokatlar xavfi ham ortmoqda. Masalan, Hindistondagi Bhopal kimyo zavodidagi portlash, AQSHning Tri Mayl Aylend, SSSRning Chernobil, Yaponiyaning Fukusima-1 atom elektrostansiyalaridagi halokatlar insoniyat uchun yangi xavf paydo bo'lganligini ko'rsatdi. Turli mamlakatlar hukumatlari ekstremizm va terrorizmning kuchayishi shunday obyektlarga qarshi qo'poruvchilik harakatlari xavfining oshishiga olib kelishidan tashvishga tushmoqda. Masalan, urush ketayotgan Ukrainadagi Yevropada eng katta bo'lgan Zaporozhye atom elektrostansiyasiga uyushtirilgan raketa hujumlari butun dunyo, ayniqsa, Yevropa aholisini keskin tashvishga soldi.

Kimyo va gen injeneriyasining yutuqlari tufayli kimyoviy va bakteriologik qurollarni takomillashtirish imkoniyati ham insoniyatni tashvishga solmoqda. Bunday qurollarni yaratishning nisbatan arzonligi, nazorat qilishning murakkabligi, ko'plab kishilarni yo'q qila olishi ularning kichik to'qnashuvlar o'choqlarida paydo bo'lish xavfini oshirmoqda.

EKSTREMIZM VA TERRORIZM

So'nggi paytda zamonaviy jamiyatda bir-biri bilan uzviy bog'langan ikki muammo — ekstremizm va terrorizm alohida o'rin tutadi. Ekstremizm va terrorizm insoniyatning ijtimoiy qadriyatlariga katta zarar yetkazadi, jamiyatda insonning himoyalanganlik hissini poymol qiladi.

Ekstremizm — bu ijtimoiy-siyosiy, diniy, milliy maqsadlarga taqiqlangan usullar orqali erishishning nazariyasi va amaliyoti. Taqiqlangan usullar deganda inson va fuqaro huquq va erkinliklariga qonunda man etilgan kuch ishlatish, zo'rlik yo'li bilan tajovuz qilish tushuniladi.

Ekstremist o'zining siyosiy, diniy yoki boshqa ijtimoiy xavfli g'oyalari haqligiga ishongan va ularni kishilar, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish uchun harakat qiladigan "g'oyaviy" jinoyatchi. Bugun o'zining mutaassib g'oyala-



Terrorizmning mudhish oqibati



Zaharli gazlar — insoniyatning global muammosi

rini isbotlash va ularni jamiyatning asosiga aylantirish uchun harakat qilayotgan, o'z faoliyatida dahshatli g'ayriinsoniy usullardan foydalanayotgan guruhlar shunday ekstremistlardir.

Ekstremizmning eng xavfli shakli terrorizmdir. **Terrorizm** — bu davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari hamda xalqaro tashkilotlarning qarorlar qabul qilish jarayoniga aholini qo'rqitish yoki qonunga xilof boshqa harakatlar bilan bog'liq zo'ravonlik orqali ta'sir ko'rsatish mafkurasi va amaliyotidir. Ya'ni terrorchilar hech narsa bilan chegaralanmagan vahshiyliklar, masalan, aholi to'plangan joyda portlatish sodir etish, ommaviy qatl qilish kabi usullar orqali siyosiy hokimiyatga intiladi. Ular hozirda, ayniqsa, diniy niqobdan keng foydalanmoqda. Bugun islom dinini niqob qilib olgan terroristik tashkilotlar dunyoning eng katta ekstremistik va terroristik xavfiga aylandi va bu orqali islom dinining mohiyatini buzib ko'rsatmoqda. Bu xavfni oxirigacha tushunib yetmayotgan kishilar, ayniqsa, yoshlar terroristlar changaliga ilinib qolmoqda. Ekstremistik g'oyalarning yoyilishida Meta (Facebook), Telegram, Instagram, Youtube, TikTok kabi kanallar, saytlar va boshqa zamonaviy axborot vositalari ham ma'lum salbiy rol o'ynamoqda.

Ukraina, Yaqin Sharq kabi notinch hududlardan millionlab qochoqlarning Yevropaga intilishi butun dunyoda terrorizm xavfini keskin oshirdi. Eng xavflisi, zamonaviy kishilarga yot bo'lgan qo'rqinch va xavotir holati butun dunyoni qamrab olmoqda.

TABIY RESURLAR MUAMMOSI VA BIOSFERANING IFLOSLANISHI

Yer yuzidagi hayotga tahdid qilayotgan xavflardan yana biri insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq. Inson ishlab chiqarish faoliyatining Yer biosferasiga salbiy ta'siri kun sayin oshib bormoqda. Sayyoramizni quyoshning radioaktiv nurlaridan himoya qilib turgan ozon qatlami buzilmoqda. Oqibatda odamlarning saraton dardiga yo'liqishi, hayvon va o'simliklarning kasallanish xavfi ortmoqda. Atmosferaga is gazining ko'p miqdorda chiqarilishi global iqlim o'zgarishi jarayonini boshlab berdi. Sayyoramizda o'rtacha harorat yil sayin ko'tarilib bormoqda. Kelajakda qutb muzliklari, Grenlandiya va Antarktida muz qatlamlarining erishi, dunyo okeani sathining ko'tarilishi, qirg'oq bo'yidagi yuzlab shaharlarni, keng hosildor yerlarni suv bosishi kutilmoqda.

Bugungi xavf-xatarlar orasida inson organizmiga ta'siri hali oxirigacha o'rganilmagan bir qator omillar ham mavjud. Minglab radio va telestansiyalar, sanoat, mudofaa obyektlari va hozirda keng tarqalgan uyali telefon antennalaridan taralayotgan to'lqinlar natijasida elektromagnit nurlanishning umumiy darajasi doimiy ko'tarilib bormoqda. Buning inson salomatligi uchun xavflilik darajasi hozir olimlar tomonidan tadqiq qilinayotgan muammolardan biridir.

So'nggi davrda Yer yuzi aholisining katta qismi to'plangan shaharlarda inson o'tmishdagiga nisbatan ancha katta axborot ta'siriga uchramoqda. Natijada asab-psixologik, saraton va yurak-qon tomir kasalliklari ko'payib bormoqda. Yuz yillar davomida shakllangan turmush tarzidagi o'zgarishlar, ayniqsa, zamonaviy qulayliklar natijasida harakatning kamayishi ham sog'likka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Albatta, yuqorida keltirilganlar bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolarning barchasini qamrab olmaydi. Ulardan ayrimlari, masalan, insoniyatning ma'naviy inqirozi, axloqiy buzilish kabilar juda murakkab bo'lib, ularning hal qilinishi Yer yuzida insoniyatni saqlab qolish va keyingi rivojlanishini ta'minlash uchun favqulodda muhim hisoblanadi. Shu qatori bashariyat oldida jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni tiklash, ekologik, texnologik va ijtimoiy jarayonlarni uyg'unlashtirish, ijtimoiy tanglikni yumshatish va natijada insoniyat sivilizatsiyasini saqlab qolishdek olamshumul murakkab vazifa turibdi. Bu muammolarni yengish odamzoddan, eng avvalo, hamkorlik va hamjihatlikni talab qiladi.



BU QIZIQ!

*Ko'rib turganimizdek, globallashuv ko'p qirrali jarayondir. Keling, uning asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatamiz. **Moliyaviy sohada** bu global miqyosda kapitalning misli ko'rilmagan harakatidir. **Ishlab chiqarish sohasida** bu transmilliy korporatsiyalar asosida xalqaro integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimini shakllantirishdir. **Savdo sohasida** savdoni liberallashtirish, butun dunyo bo'ylab tovarlar harakati bo'yicha cheklovlarni olib tashlashdir. **Gumanitar sohada** bu axborot va bilimlarni cheksiz tarqatishdir. Globallashuv eng yangi axborot texnologiyalariga asoslanadi.*



ATAMALAR IZOHI

Unifikatsiya — bu bitta tizim yoki shaklga keltirish.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi globallashuv jarayoni nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Ekstremizmning g'oyaviy xavfi qanday ko'rinishlarda aks etadi?
3. Nima uchun terrorizm global muammo hisoblanadi?
4. Tabiiy resurslarning kamayishi va atmosferaning ifloslanishi insoniyat oldiga qanday muammolarni qo'yimoqda?



28-MAVZU

XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA ETNO- IJTIMOIY MUAMMOLAR

BARQAROR XAVFSIZ RIVOJLANISH MUAMMOLARI



ESLAB KO'RING!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qachon va qaysi maqsadda tuzilgan?

Barqaror rivojlanish — bu iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, unda tabiiy resurslardan foydalanish, investitsiyalarni yo'naltirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning yo'nalishini belgilash, shaxsning rivojlanishi va institutsional o'zgarishlar bir-biri bilan moslashtiriladi, inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun bugungi va istiqbolli imkoniyatlar kuchaytiriladi. Bulardan maqsad, albatta, kishilarning sifatli yashash darajasini ta'minlashdir.

Insoniyatning barqaror xavfsiz rivojlanishi ko'p jihatdan xalqaro hamkorlikka ham bog'liq. Sanoatni energiya va resurslar sarfini kamaytiruvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan postindustrial tizimga o'tkazish hozirgi sivilizatsiya zimmasiga tushayotgan yukni ancha kamaytirishi mumkin. Masalan, so'nggi 50 yil ichida dunyoda yonilg'i sarfining keskin kamayishi tabiatdan oshiqcha boylikni olmasdan, atrof-muhitni iflos qilmasdan yuqori texnologiyalar asosida mahsulot olish mumkinligini isbotladi.

Tabiatni himoya qilish bo'yicha alohida davlatlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlar bilan bir qatorda, bu sohada xalqaro hamkorlik ham rivojlanmoqda. Atrof-muhitni himoya qilish va barqaror taraqqiyot bo'yicha 1992-yili Rio de Janeyro (Braziliya) shahrida o'tkazilgan konferensiyada XXI asrdagi harakat, jumladan, butun insoniyat uchun barqaror-xavfsiz rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish dasturi qabul qilindi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni atmosferaga chiqarishni kamaytirish va keyinchalik butunlay to'xtatish majburiyatini oldi. Yadro texnologiyalaridan foydalanuvchi davlatlar atom elektrostansiyalari xavfsizligining xalqaro standartlariga rioya qilmoqda. Bu jarayonlar insoniyatning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlamoqda.



YODDA TUTINGI

1992-yili Rio de Janeyro shahrida atrof-muhitni himoya qilish va barqaror taraqqiyot bo'yicha konferensiya o'tkazildi.

IRQCHILIK VA IRQIY KAMSITILISHGA QARSHI KURASH

Jamiyatdagi irqiy keskinlikni yumshatishga qaratilgan tadbirlar etnik ozchilikning teng huquqlarini, jumladan, ijtimoiy himoyani mustahkamlash borasidagi qonunlar qabul qilinishini o'z ichiga oladi. Shunday qonunlar dastlab sobiq SSSRda, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida joriy etildi. Ayniqsa, Yevropada irqiy kamsitilishga qarshi qonunlarni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. Etnik ozchilikning ijtimoiy muammolariga va siyosiy maqomiga fuqarolik jamiyatining nodavlat tizimlari, ayniqsa, katta e'tibor qaratdi. Masalan, kasaba uyushmalarida etnik ozchilik vakillari manfaatlarini ifoda etuvchi bo'limlar paydo bo'ldi. Yetakchi siyosiy partiyalar ham etnik ozchilik vakillari uchun o'z bo'limlarini ochdi. Parlamentga, mahalliy hokimiyat organlariga etnik ozchilik vakillaridan nomzodlar ko'rsatildi. 1987-yili Buyuk Britaniyada ilk bor jamoa palatasiga etnik ozchilik vakillaridan to'rt nafari saylandi. Keyin qora tanli **Devid Dinkins** Nyu York shahri meri, afroamerikalik **Barak Husayn Obama** AQSH prezidenti, kelib chiqishi belujlardan bo'lgan **Sodiq Omonxon** London shahri meri, kelib chiqishi panjoblik **Rishi Sunak** Buyuk Britaniya bosh vaziri etib saylandi.

Ammo qora tanlilarning kamsitilish hollari saqlanib qolmoqda. 2013-yili AQSHda "**Black Lives Matter**" ("**Qora tanlilar hayoti ahamiyatli**") jamoat tashkiloti paydo bo'lib, bu tashkilot 2014-yili ikki nafar afroamerikalikning o'ldirilishi ortidan juda faollashib ketdi.

2015-yili B. Obama irqchilik hamon dolzarb muammo ekanligini tan oldi. 2020-yili AQSHning Minneapolis shahrida afroamerikalik **Jorj Floydning** qamoqqa olish paytida politsiyachilar tomonidan o'ldirilishi butun dunyoda "Black Lives Matter" norozilik namoyishlariga olib keldi. AQSH tarixidagi qulchilik bilan bog'liq bir qator arboblarning haykallari, jumladan, Richmond va Baltimor shaharlarida Xristofor Kolumbga o'rnatilgan haykallar ham ag'darilib tashlandi.



Dunyo xalqlari irqchilikka qarshi

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDAGI ETNO-IJTIMOY MUAMMOLAR

XX asr oxiriga kelib, katta moddiy resurslarga ega bo'lmagan davlatlar ham etno-ijtimoiy muammolar bilan to'qnash kela boshladi. Zotan, XXI asrda etno-ijtimoiy mojarolar o'tgan asrdagi sinfiy kurashlarga nisbatan ham jiddiyroq muammolar manbasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Jahonda aholisi 1 milliondan oshiq bo'lgan 164 ta davlatning yarmidan kamrog'i nisbatan bir millatli, ya'ni asosiy aholisi bitta millatga mansub davlatlardir. Qolgan davlatlar ko'p millatli hisoblanadi.

Aholining ko'p millatli tarkibi shu davlatda etno-ijtimoiy qarama-qarshilik kelib chiqishini muqarrar qilib



Millatlararo hamjihatlik — tinchlik garovi



Millatlararo hamjihatlik — etnik mojarolarning oldini olishning samarali yo'li

qo'ymaydi. Ko'p millatli mamlakatlar, masalan, O'zbekistonda turli millatlarning tinch-totuv yashash an'anasi shakllangan. Ammo dunyoning ayrim hududlarida etnik nizolarning keskinlashuvi kuchaymoqda. 1980-yillar oxiriga kelib, yuz bergan jami harbiy nifoqlarning yarmidan ko'pi bir davlat ichkarisida, etnoslararo kelishmovchiliklar edi. O'sha paytda bu mojarolarning asosiy maydoni Osiyo va Afrika mamlakatlari bo'ldi. Ammo SSSR tarqalib ketishi bilan uning sobiq hududida o'nlab etnoslararo keskinlik o'choqlari vujudga keldi. SSSRda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgan 1920-yillari sovet respublikalari o'rtasidagi chegaralarni belgilashda etnik faktor yaxshi inobatga olinmagan, natijada ko'plab aholi vakillari o'z milliy respublikalari hududidan tashqarida qolib ketgan. Bu muammo, ayniqsa, Kavkazorti respublikalari va Markaziy Osiyoda SSSR qulagandan so'ng yaqqol sezilib qoldi. Bu hududlarda ko'plab sun'iy etnoslararo mojarolar o'choqlari paydo bo'ldi.

Butun dunyoda mavjud bo'lgan etno-ijtimoiy muammolarni hal etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun BMT tomonidan **17 maqsaddan iborat global dastur** qabul qilingan bo'lib, unda quyidagi masalalar ustuvor deb belgilangan: qashshoqlik va ochlikka barham berish, yuqori darajali tibbiy yordam ko'rsatish, sifatli ta'lim olish, gender tenglik, toza suv, sanitariya, arzon va zamonaviy energiya manbalari bilan ta'minlash, tabiatga zarar yetkazmagan holda ishlash va iqtisodni rivojlantirish, boy va kambag'allar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, shahar va qishloqlarni rivojlantirish, tabiat ne'matlaridan unumli foydalanish va iqlim o'zgarishining oldini olish, sayyoramiz ekotizimini saqlab qolish, odil sudlovni ta'minlash va o'zaro manfaatli hamkorlik masalalari.



ATAMALAR IZOHI

Institutsional o'zgarishlar — bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy institutlardagi rivojlanish va o'zgarishlarda namoyon bo'ladi.

Potensial — bu qaysidir soha, jahhada mavjud barcha imkoniyatlar, vositalar yig'indisi; keng ma'noda “zaxira” vositalari.

Irqchilik — bu irqning teng emasligi, “oliy” irqning “past” irq ustidan hukmronlik qilishi to'g'risidagi g'ayriilmiy, reaksiyon nazariya.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I


Insoniyatning global muammolarini quyidagi jadvalda tasniflang:

siyosiy muammolar	etno-ijtimoiy muammolar	ekologik muammolar



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Etno-ijtimoiy muammolar deganda nimani tushunasiz?
2. Migratsion jarayonlar etno-ijtimoiy munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Irqchilik va irqiy kamsitilish atamaları nimani anglatadi?
4. Etno-ijtimoiy munosabatlarga migratsion jarayonlarning ta'siri nimalarda namoyon bo'lmoqda?



29-MAVZU

XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA ILMIY-TEXNIK TARAQ- QIYOT: ILM-FAN, ADABIYOT, SAN'AT

ILMIY-TEXNIK INQILOB VA UNING NATIJALARI

XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik inqilob (ITI) so'nggi yuz yil davomidagi ilm-fan rivojlanishining qonuniy natijasi bo'ldi. Bu inqilobning asosiy belgilari tovarlarni tabiiy va sintetik materiallardan ommaviy ishlab chiqarish, mashinalardan keng foydalanish, ishlab chiqarishning konveyerli liniyalarini, zavod-avtomatlarni va sanoat robotlarini yaratish bo'ldi. ITI jahonning ilg'or mamlakatlarini sivilizatsiyaning industrial bosqichidan postindustrial davriga olib chiqdi. Axborot va yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida olimlar “**axborot jamiyati**” deb atagan jamiyat shakllana boshladi.

XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida ilmiy-texnik taraqqiyot dunyo miqyosida turli sohalarda katta o'zgarishlar va yuksalishlarga olib keldi. Ushbu davrda ilm-fan, texnologiya, muhandislik va innovatsiyalar sohasida ko'plab inqilobiy yangiliklar yuz berdi, ular iqtisodiyot, jamiyat va hayot tarzini tubdan o'zgartirdi.



ESLAB KO'RING!

*Internetning o'tmishdoshi
Arpanet qachon kashf etilgan?*

TABIIY FANLAR VA TIBBIYOT

XX asrning ikkinchi yarmida biologiya, biokimyo va tibbiyotning rivojlanishi inson hayotining keskin o'zgarishiga, industrial jamiyatning yangi sifat bosqichiga o'tishiga olib keldi. XX asrda qora chechak, ispan grippi, o'lat, vabo, terlama, sil, bezgak kabi kasalliklar Yer yuzida 1 milliardga yaqin kishining o'limiga olib keldi. Asr oxiriga kelib, yangi yuqumli kasallik — OITS paydo bo'ldi. Shunga qaramasdan, aynan XX asrda tarixda birinchi bor yuqumli kasalliklar odamlar o'limining asosiy sababi bo'lmay qoldi. Juda ko'plab kasalliklarga qarshi vaksinalar yaratildi. Ammo 2019-yili boshlangan “COVID-19” pandemiyasi XXI asrning birinchi choragida miqyosi jihatidan eng keng tarqalgan kasallik bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi uchun eng yirik inqiroz va sinov bo'ldi.

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Zamonaviy ta'lim jiddiy muammolar oldida turibdi. Ularning yechimi nafaqat o'qitish usullari, balki ta'lim tizimining maqsad va tamoyillari ustida ham chuqur o'ylashni talab qiladi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar quyidagi muammolar yechimiga qaratilgan:

- a) ta'lim dasturlari, ko'pincha, jadal o'zgarayotgan zamonaviy mehnat bozori talablaridan ortda qolmoqda. Bitiruvchilar davrning kasbiy talablariga har doim ham tayyor emas, ularga amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar yetishmaydi;
- b) hamma maktablar va oliy o'quv yurtlari ham o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun resurs va kompetensiyalarga ega emas, bu, o'z navbatida, axborot olish va o'qish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- d) ta'lim tizimida bolalarning moliyaviy ahvoli, yashash sharoiti va jismoniy cheklovlaridan qat'i nazar, barcha uchun bir xil sharoit yaratilishi lozim. Shu sababli hozir inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda;
- e) zamonaviy ta'limda o'quv yuklamalarining ortib borishi, raqobat va stress o'quvchilarning psixologik holatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim tizimi bolalarning nafaqat intellektual, balki emotsional rivojlanishiga ham e'tibor qaratmog'i lozim;
- f) bugun malakali o'qituvchilarning yetishmasligi ham kuzatilmoqda, bu ta'lim sifatini oshirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida shu kabi muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim tizimi isloh qilinmoqda.

QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi uni kishilarning ongiga, yurish-turish va kayfiyatiga ta'sir o'tkazuvchi qudratli vositaga aylantirdi. XX asrning ikkinchi yarmida sun'iy yo'ldosh orqali teleko'rsatuvlarni namoyish qilish, global kompyuter tarmog'ini yaratish orqali insoniyatning ma'naviy hayotini baynalmilallashtirish uchun sharoit tug'ildi, g'oyalar va madaniy qadriyatlarining o'ziga xos jahon bozori paydo bo'ldi. Unda kuchli davlatlar o'zining siyosiy va madaniy ta'sirini ta'minlash uchun kurashmoqda.

Ommaviy madaniyat nafaqat ko'ngil ochadigan, balki ma'lum mafkuraviy maqsadni ham ko'zlagan ommaviy vaqtichog'likning audio va video mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi butun boshli sanoatning paydo bo'lishiga olib keldi.

So'nggi paytda ko'plab xalqlarning taqlid obyektiga aylangan G'arb sivilizatsiyasi texnik va texnologik innovatsiyalar, demokratiya va inson huquqlari kabi tushunchalar bilan birga madaniy tolerantlikning yangidan yangi jihatlarini ham namoyon qilmoqda. Aslida xulq-atvorning taqlidchilik modeli



YODDA TUTING!

***Inklyuziv ta'lim** — bu alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha o'quvchilar uchun teng sharoitlar ta'minlangan holda beriladigan ta'lim. Inklyuziv ta'lim maktablarda jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun tashkil etiladi.*



MULOHAZA YURITING

***Ommaviy madaniyat** — bu zamonaviy jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga kirib kelgan maishiy, ko'ngilochar va axboriy madaniyat. Bu jamiyat uchun ijobiy hodisami yoki salbiy?*

kishilarda sustkashlik, moslashuvchanlik, ya'ni dunyoni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga tayyorlik psixologiyasini shakllantiradi.

Bunday psixologiya rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, avtoritar rejimlar hukmron bo'lgan jamiyatlar uchun katta xavf solmoqda. Ushbu jamiyatlarda bu psixologiya ijtimoiy taraqqiyot muammolari va tarix to'g'risida sodda qarashlarni yaratishga, jamiyatda umumiy shukronalik ruhini o'rnatishga xizmat qiladi. Bunday jamiyatda san'at umuminsoniy muammolarni chetlab, turmushning xususiy, mayda ikir-chikirlarini ijtimoiy muammo darajasiga ko'taradi, ommaviy axborot vositalari orqali uni targ'ib qiladi. Adabiyotda ham zamonga mos yozuvchilar ko'payib, ular adabiyotning asosiy vazifasi avtoritar rejimga xizmat qilish, ba'zan ochiqcha maddohlikdan iborat deb biladi. Shu tariqa jamiyat ma'naviy qashshoqlashish xavfi ostida qoladi.

ADABIYOT

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib, adabiy jarayonlar tez o'zgardi, har o'n yilda adabiyotda yangi yo'nalish paydo bo'ldi, yangi maktablar shakllandi. Shunday maktablardan biri bayon qilishning realistik shakli bo'lib, yangi adabiy fenomen — ommaviy adabiyotda o'ziga yo'l topdi. Bu adabiyot ommaviy o'quvchiga mo'ljallanib, aniq andozalar asosida yozilgan, badiiy jihatdan unchalik yuksak bo'lmagan, mafkuraviy jihatdan mavjud tartiblarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan asarlardir. Bu — bozorning barcha qonunlariga rioya qiladigan, xaridorlarning turli qatlamiga mo'ljallangan adabiy tovar.

Ushbu murakkab jarayonlarga qaramasdan, adabiyot intellektual izlanish jarayonini davom ettirmoqda, u zamonaviy jamiyatning ehtiyojlarini va rivojlanish usullarini anglashga intilmoqda.

Yangi asr boshida paydo bo'lgan shunday asarlar qatoriga asli afg'onistonlik bo'lgan amerikalik yozuvchi **Xolid Husayniyning** "Shamol ortidan yugurib", "Tog'lar ham sado berdi", "Ming quyosh shu'las" asarlarini kiritish mumkin. Ayniqsa, uning 2001-yil sentyabr voqealaridan so'ng nashr qilingan "Shamol ortidan yugurib" romani o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi va o'ziga xos bestsellerga aylandi.

Braziliyalik yozuvchi **Paulo Koelyoning** "Alkimyogar" romani ham davrning mashhur asarlaridan biri. Asar yoshlik, orzu va unga intilish haqida. "O'z taqdiri yo'lidan borib, ko'ngliga tuggan orzu-umidlarini amalga oshirishi — mana insonning yagona eng to'g'ri vazifasi", – deb yozadi P. Koelyo.

So'nggi vaqtda mashhur bo'lgan yana bir asar xitoylik yozuvchi **Yuy Xua** qalamiga mansub "Yashamoq" romanidir. Asarda yozuvchi XX asr ikkinchi yarmidagi Xitoy tarixining fojiali tomonlarini bitta oila taqdirida katta mahorat bilan yoritib bergan.

SAN'AT

Ommaviy madaniyat san'atning zamonaviy muammosiga aylandi. Ommaviy madaniyat keng tarqalgan mamlakatlarda u ma'naviy hayotni belgilovchi muhim omil sifatida shakllandi. Ko'pchilik madaniyat arboblarning fikricha, ommaviy iste'molga mo'ljallangan mahsulotlar (teleseriallar, melodramalar, triller — dahshatli filmlar, detektivlar, fantastika va boshqalar), ko'pincha, katta badiiy qimmatga ega emas.

Ammo qizig'i shundaki, hozirgi zamonda ommaviy madaniyat vositalaridan foydalanmasdan o'ziga e'tiborni jalb qilish mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, ommaviy madaniyatning hukmronligiga qarshi norozilik ham namoyishkorona harakat bo'lib, o'zi ham ommaviy madaniyatning bir qismiga aylanib bormoqda. Masalan, ommaviy madaniyatning tanqidiga bag'ishlangan teleko'rsatuvlar ham shakl va ko'pincha, mazmun jihatidan ommaviy madaniyatni targ'ib qilyapti, uning usullarini ko'chirib olyapti.

Axborot davrining yangi texnologiyalari, san'atda axborotning haddan ziyodligi, inson bilan mashina o'rtasida ziddiyatga olib keldi. Bu ziddiyatni hal qilish yo'li sifatida telekommunikatsiyaga estetik asoslarni olib kirish, uni axborot yetkazish funksiyasidan ozod qilish, xususan, ko'rsatuvlar mazmunini sharqona mistitsizm, irratsional negiz bilan to'ldirish taklif qilinadi. Intellektni "ishga solmasdan", bevosita insonning ichki olamiga murojaat qilish — bu prinsip kompyuter grafikasi, videokliplar yaratish kabi san'atning yangi turlarida, qisman zamonaviy kino san'atida qo'llanilmoqda.

Telekommunikatsiyalarning global tarmog'i, ommaviy madaniyat paydo bo'lishining eng muhim natijasi badiiy san'atning ijtimoiy-siyosiy roli oshganligida namoyon bo'ldi. Endi san'at faqat hayotning in'ikosi bo'lmasdan, ijtimoiy reallikni shakllantiruvchi omilga ham aylandi.

Umuman olganda, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ilmiy-texnik taraqqiyot bir qator sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, biotexnologiya, yashil energiya, kosmik tadqiqotlar va robototexnika kabi sohalarda yuz berayotgan yutuqlar insoniyat hayotini tubdan o'zgartirmoqda. Bu davrda ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotni, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotini ham shakllantirmoqda. Bu yutuqlar kelajakdagi innovatsion yechimlar va imkoniyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



ATAMALAR IZOHI

Vaksina — yuqumli kasalliklarga qarshi emlashda qo'llaniladigan vosita.

Mistitsizm — bu mistika, ya'ni g'ayritabiiy kuchlarga moyillik, mistikaga asoslangan diniy-idealistik dunyoqarash shakli.

Irratsionallik — bu voqelikni bilishda ongning imkoniyatini rad etuvchi yoki uni juda cheklangan deb biluvchi falsafiy konsepsiya.



IJODIY ISH TOPSHIRIG'I

"XX asr oxiri – XXI asr boshlarida ilm-fan, adabiyot, san'at" mavzusini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ITI rivojlangan mamlakatlarda jamiyatning qanday sifat o'zgarishlariga olib keldi?
2. "COVID-19" pandemiyasi dunyo davlatlari sog'liqni saqlash va ta'lim tizimiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
3. Siz qadriyatlar tizimining baynalmilallashuvi jarayoniga qanday qaraysiz? Unda milliy madaniyatlar uchun qanday xavf yashiringan?
4. Zamonaviy axborot vositalari adabiyot va san'atda qanday yangi yo'nalishlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda?

XULOSA

XX asr oxiri – XXI asr boshlari jamiyat taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar, ilg'or mamlakatlarning postindustrial sivilizatsiyaga o'tish, ayni paytda industrial sivilizatsiya mamlakatlari o'rtasida bozorni va xomashyoning yangi manbalarini egallash uchun kurashning keskinlashuvi, an'anaviy sivilizatsiya mamlakatlarida esa jadal modernizatsiyalash davri bo'ldi. Modernizatsiyalash bir tomondan, industrial sivilizatsiya umumiy qadriyatlarining keng yoyilishini taqozo etsa, ikkinchi tomondan, industrial sivilizatsiyaga xos bo'lgan ijtimoiy, millatlararo, ma'naviy rivojlanish kabi ziddiyatlarning an'anaviy jamiyatlarga ham yoyilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, modernizatsiya jarayoni hamma joyda keng tarqaldi, uning oqibatlari ham global xarakterga ega bo'ldi. Modernizatsiya jarayoni keltirib chiqargan eng katta muammolardan biri an'anaviy munosabatlardan bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ishsizlikning oshib borishi, ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi va aholining bir qismining boshqa davlatlarga migratsiyasi bilan bog'liq holatlardir. Xomashyo resurslari, energiya manbalari va eng asosiysi, insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq atrof-muhitni ifloslantirish muammolari ham juda keskinlashib bormoqda.

XX asr oxiri – XXI asrning birinchi choragida dunyoning juda katta qismida insonning erki, ozodligi va sha'ning daxlsizligi g'oyasi tantana qildi. Uning tashabbuskorligi va tadbirkorligi uchun keng yo'l ochilib, odamlar o'z mehnati bilan munosib hayotni ta'minlashga erishdilar. Bu xalqlar butun XX asr davomida demokratik jamiyat qurdilar, shunga intildilar. Ammo XXI asr insoniyat kutgan mustahkam tinchlikni olib kelmadi. XX asr oxirida sotsialistik rejimning barbod bo'lishi, ikki qutbli dunyo tizimining barham topishi xalqaro munosabatlarda yangi muammolarni keltirib chiqardi, yangi urush o'choqlari paydo bo'ldi.

1991-yili SSSRning tarqalib ketishi ko'plab xalqlarga taraqqiyot yo'lini erkin tanlash imkoniyatini berdi. Ularning ko'pchiligi jamiyatni modernizatsiya qilish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, ozod va mustaqil davlat qurish yo'lini tanladilar. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi ham yangi davlatlar qatorida o'z taraqqiyot yo'lini o'zi tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan beri g'oyat murakkab, ziddiyatli yo'lni bosib o'tdi, ammo asosiy masala — mustaqil davlat qurish vazifasi muvaffaqiyatli uddalandi. Bugun O'zbekiston xalqi ulug' bir niyat bilan yangi jamiyat sari intilmoqda, Yangi O'zbekistonni qurmoqda. Ayniqsa, yoshlarimiz kelajakka ulkan orzular bilan qadam tashlamoqda.

QISQARTIRILGAN SO'ZLAR

- BMT** — Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
- NATO** — Shimoliy Atlantika harbiy bloki.
- YI** — Yevropa Ittifoqi.
- SSSR** — Sobiq sovet ittifoqi (rus. Soyuz Sovetskix Sotsialisticheskix Respublik).
- TDT** — Turkiy Davlatlar Tashkiloti.
- JSHO** — Janubi-sharqiy Osiyo.
- BRIKS** — Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi.
- ITI** — Ilmiy-texnik inqilob.
- YIM** — Yalpi ichki mahsulot.
- JSST** — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti.
- GDR** — Germaniya Demokratik Respublikasi.
- GFR** — Germaniya Federativ Respublikasi.

MUNDARIJA

I BOB

XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA DUNYO MAMLAKATLARI

- 1-mavzu. XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida xalqaro munosabatlar.....5
- 2-mavzu. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida demokratik inqiloblar
va sotsialistik lagerning parchalanishi.9
- 3-mavzu. Sovet respublikalarida mustaqillikning e'lon qilinishi
va SSSRning parchalanishi..... 13

II BOB

XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI MAMLAKATLARI

- 4-mavzu. Rossiya Federatsiyasi..... 18
- 5-mavzu. Ukraina, Belarus va Moldova Respublikalari.....22
- 6-mavzu. Kavkazorti davlatlari.26
- 7-mavzu. Markaziy Osiyo davlatlari.30

III BOB

XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA AQSH VA G'ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARI

- 8-mavzu. G'arb mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi.....35
- 9-mavzu. Amerika Qo'shma Shtatlari.40
- 10-mavzu. Germaniya Federativ Respublikasi.....45
- 11-mavzu. Buyuk Britaniya.48
- 12-mavzu. Fransiya.52
- 13-mavzu. Italiya.55

**IV
BOB****XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA OSIYO,
AFRIKA VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI**

14-mavzu.	Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	59
15-mavzu.	Xitoy Xalq Respublikasi.	63
16-mavzu.	Yaponiya va Koreya.	68
17-mavzu.	Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari.	72
18-mavzu.	Hindiston Respublikasi.	76
19-mavzu.	Turkiya Respublikasi.....	80
20-mavzu.	Eron Islom Respublikasi.	84
21-mavzu.	Pokiston va Afg'oniston.....	88
22-mavzu.	Suriya va Iroq.	92
23-mavzu.	Ko'rfaz arab mamlakatlari.	95
24-mavzu.	Falastin va Isroil: ikki xalq uchun ikki davlat.....	99
25-mavzu.	Lotin Amerikasi mamlakatlari.....	103
26-mavzu.	Afrika mamlakatlari.	107

**V
BOB****XX ASR OXIRI – XXI ASR BIRINCHI CHORAGIDA JAHON
SIVILIZATSIYASI MUAMMOLARI**

27-mavzu.	XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida globallashuv muammolari, harbiy, ekstremistik va ekologik xavf-xatarlar.	112
28-mavzu.	XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida barqaror rivojlanish va etno-ijtimoiy muammolar.	116
29-mavzu.	XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida ilmiy-texnik taraqqiyot: ilm-fan, adabiyot, san'at.	120

O'quv nashri

Shuhrat Ergashev, To'liqinjon Bobomatov, Jamshid Abdullayev

JAHON TARIXI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
11-sinfi uchun darslik*

Respublika ta'lim markazi,
Toshkent – 2025

Muharrir	<i>Dildora Abduraimova</i>
Musahhih	<i>Munisa Ismoilova</i>
Texnik muharrir	<i>Alimardon Aqilov</i>
Rassom	<i>Aziza Ibraimova</i>
Sahifalovchi-dizayner	<i>Artur Nurullayev</i>

Nashriyot litsensiyasi № 140295. 04.10.2023-yilda berilgan.
Bosishga 02.09.2025-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{16}$.
“Arial” garniturasini. Kegli 11 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 10,4. Nashriyot-hisob tabog'i 12,03.
Adadi 566 139 nusxa. Buyurtma № 25-417.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100011,
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

**Ijaraga beriladigan darslik holatini
ko'rsatuvchi jadval**

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.